

**Bahodir Ahmedov**

**O`ZBEK TELEVIZION KINOCINING  
RIVOJLANISH TARIXI**

O`quv qo`llanma

**TOShKENT – 2007**

***Mas'ul muharrir:***

O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko`rsatgan san'at arbobi, san'atshunoslik  
fanlari doktori, professor  
**Jo`ra TEShABOEV**

***Taqrizchilar:***

O'zbekiston xalq artisti, Davlat  
mukofoti sovrindori, professor  
**Shuhrat ABBOSOV**

O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko`rsatgan san'at arbobi, Davlat  
mukofoti sovrindori, professor  
**Abdurahim ISMOILOV**

## M U Q A D D I M A

O'zbekistonda televizion kino san'ati aynan Mustaqillik yillarda eng muhim taraqqiyot bosqichlaridan o'tishga musharraf bo'layotir. Audio-vizual san'at hisoblanuvchi bu kino turi keyingi paytlarda texnikaviy taraqqiyotning, kommunikatsiya va umuman, madaniy sohalardagi barcha yangilik va afzallikkarni sintezlab foydalangan holda, shiddat bilan rivojlanmoqda.

Zangori ekranda namoyish qilishga mo'ljallab yaratilgan filmlar shakli va mazmuniga ko'ra, janr va stilistik belgilariga ko'ra turlicha bo'lib, ular badiiy va xronikal filmlar, multiplikatsiya va ilmiy-ommabop filmlar, qisqa metrajli va ko'pseriyalni filmlar (seriallar) sifatida xalqimiz hayoti va turmush tarziga mustahkam kirib bormoqda, tomoshabinlar dunyoqarashini shakllantirishda, dam olish soatlarini mazmunli o'tkazishda muhim rol o'ynamoqda. Zangori ekran orqali hayotimizga, dunyoqarashimizga kirib kelayotgan yangi kinoning bu turiga hamon yoqtirmay qarayotgan tanqidchi odamlar bor, albatta. Lekin endilikda ham televizion kino degan o'ziga xos bu san'at turidan ko'z yumib turish, bu kino bilan hisoblashmaslik mutlaqo mumkin emas. Endi u ko'plab muxlislarga ega bo'lgan san'atga aylandi. Telefilm bir marotaba namoyish qilinganda yig'ilgan tomoshabinni boshqa payt kinoteatrлarda yil bo'yи kino qo'yib ham yig'a olmaysiz.

Bu g'aroyib fenomenning siri nimada ekan? Televizion mahsulot o'z muxlislari uchun nega bunchalar aziz?! Telekino deganlari yana qanday zaxira qudratga ega? Bu san'at turi shu kungacha qanday yo'llarni, taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi-yu, bundan keyin qanday yo'llardan yurib ketadi? Teletomoshabinlar tafakkurida ma'naviyat uchqunlarini o't oldirishda, dunyoqarashlarni shakllantirishda yordam beradigan bu san'at turining yana qanday imkoniyatlari bor? Mana shu savollar hozir faqat soha mutaxassislarinigina emas, balki san'atshunos, sotsiolog, psixolog olimlarni ham qiziqtirib turibdi.

O'zbekistonda bunday ijod turining paydo bo'lishi va rivojlanish faktlari hozirgi zamon bosqichida jahon ijodiy tajribalari bilan milliy madaniyatimizning birgalikda, o'zaro faol harakatlanishi natijasida televizion san'atlar ichida eng ilg'or, sermahsul yo'nalish va tamoyillar qaror topa boshlaganidan, bu esa san'atimiz taraqqiyotida ma'lum rol o'ynay boshlaganidan darak beradi. Masalaga shu nuqtai nazardan qaraganda, televizion kinematografiya – mamlakatimiz aholisi tafakkurining badiiy jihatdan o'sishi, rivojlanishida eng dolzarb san'at sohalaridan biri bo'lib turibdi.

Ushbu monografiya muallifi o'z oldiga keyingi qirq besh yil mobaynida vatanimiz telekino san'atining tarixi, genezisi va evolyutsiyasi bosqichlarini qamrab olishni niyat qilgan edi. Qisqagina vaqt mobaynida respublikamizda televizion kino san'ati shu qadar ilgarilab ketdiki, endilikda u bosib o'tgan bosqichlarda imkoniyatlar qay darajada bo'lgani-yu, estetik tamoyillar qanday ijodiy muhitni taqozo qilgani, mutaqillikka intilayotgan ushbu san'at o'ziga xos yo'lni topib olguncha qanday rivoj topganligi ham qiziqarli tarixga aylandi.

O'zbek televizion kinosining eng yaxshi asarlari bu orada mavzular rang-barangligi jihatidan ham, turli janrlardagi dadil izlanishlari jihatidan ham ancha

ilgarilab ketdilar. Hozirgi zamon ijodiy muhitining tayanch yo`nalishlaridan biri hisoblangan telekino san`ati, uning izlanish miqyoslari-yu, yutuqlari boshqa san`at turlari – teatr, kino, musiqa, tasviriy san`at turlaridan ilhom olib, quvvatlanib turibdi.

Bu boradagi turli-tuman va qimmatli tajribalarni o`rganish, ularni umumlashtirish – muallif nazarida, televizion kinoning san`at turi sifatida dunyoga kelishi, oyoqqa turishi, kamolot sari intilishi muammolari haqida boy va muhim ma'lumotlarni namoyon etishi mutaxassislar e'tiborini tortadi. Gap shundaki, o`zbek televizion kinosi – jiddiy va chuqur tahlil ehtiyojini keltirib chiqarayotgan murakkab ham ko`ptarkibli hodisadir. Shuning uchun ham muallif mavzuga oid materiallarni tadqiq qilar ekan, o`zidan avvalgi mualliflar aytib o`tgan fikrlarni muqoyasa qilib o`tirmadi (bunaqa ma'lumotlar, baribir, biz tahlil qilayotgan muammolar haqida to`laqonli manzara yaratib bera olmasdi), qolaversa, qo`lingizdagi tadqiqotda ko`tarilgan masalalar avvalgi mualliflar tomonidan to`la tahlil qilinmagan ham edi.

Shunday qilib, biz tahlil qilayotgan muammolar dolzarbli tanlagan mavzuimizning ahamiyatiga ko`ra belgilanadi.

**Maqsadimiz:** o`zbek televizion kinosining barcha taraqqiyot bosqichlarida qanday rivojlanganligini yoritish, bu san`at turining turli xil tasviriy shakllari hamda xususiyatlarini namoyon etishdan iborat. Tadqiqotchi tomonidan ana shu niyatlarini amalga oshirish uchun:

- televizion asar yaratuvchilarning madaniy saviyasi, shu bilan birga, kasbiy mahorati taqozo etgan ijtimoiy omillarga asoslana turib, ushbu san`at turining taraqqiyotidagi asosiy tamoyil va qonuniyliklarni aniqlab chiqdi;
- asarlarning janri, stilistikasi, izlanishlarning g`oyaviy-mazmuniy yo`nalishlaridan kelib chiqib, ularga baho berdi;
- telekino yaratuvchilarning mavzuni yoritib berish, tasvirlash vositalaridan foydalanish borasidagi tajribalari umumlashtirildi;
- telekino bilan amaliyotda unga yondosh bo`lgan boshqa san`at turlarining o`zaro aloqalari tahlil qilindi, ularga ilmiy asoslangan baho berildi va ular o`zaro muqoyasalanib, janr va stilistik yo`nalish jihatidan ahamiyati ochib berildi;
- O`zbekistonda televizion kino san`atining bugungi holatiga tavsif berildi, bu san`at turining kelajakdagi taraqqiyot yo`llari taxminlab-belgilab berildi, jahon kinosi va badiiy tafakkuri miqyosida bu san`atning egallaydigan o`rni va ahamiyati haqida fikr yuritildi.

Shuningdek, muallif telekino san`atining respublika televideniesi tizimida ko`rsatayotgan faoliyati, «O`zbektelefilm» studiyasining tashkil topishi, qisqagina vaqt oralig`ida bu tashkilot yangi san`at turining ko`psonli muxlislarini o`ziga jalb qila olgani, o`z devorlari ichida ko`plab asarlar yaratgani-yu, bu asarlar keyinchalik tomoshabinlar va tanqidchilar tomonidan qizg`in kutib olingani, ko`rimli va mumtoz asarlar bo`lib qolgani haqida ham fikr-mulohazalar yuritadi.

Albatta, yangi tashkil qilingan studiyaning ijodxonasida ham jahon badiiyat xazinasiga ulush bo`lib qo`shilgan «Forsaytlar haqida saga» («Forsaytlar qissasi») yoki «Bahorning 17 lahzasi» singari epik durdona asarlar yaratilgan bo`lmasa ham, lekin o`sha yillardan boshlab to bugungi kungacha ekranga chiqib kelgan «Qo`g`irchoqboz», «Shoshmaqom», «Kuz novellasasi», «Aziz», «Charxpalak»,

«Boychechak», «Lafz», «Bog`», «Imon» kabi asarlar milliy telekino ijodkorlarining iste`dodi, chinakam badiiy asar yaratish malakalari qanchalik yuksak bo`lganligidan darak beradi.

Boshqa mamlakatlar teleekranlarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan, ko`plab obro`li kinotanlovlarda g`olib bo`lib, o`zbek teleijodkorlari nomini dunyoga taratgan yana ko`plab teleasarlarni bu ro`yxatga kiritish mumkin.

O`tgan qirq besh yillik vaqt ichida studiya televizion publitsistika va badiiy asarlarning chinakam zabardast ustalarini yetishtirib berdiki, endilikda bu nomlar nafaqat «O`zbekteofilm» studiyasining, balki butun o`zbek kinosan`atining ko`rkiga aylandilar. Ushbu ro`yxatda L.Boboxonov, T.Akromov, H.Ibrohimov, Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo`jaev, B.Ahmedov, R.O`tkirov, Sh.Bizaatov, E.Davidov, N.Mahmudov, I.Mirzaev, S.Boboev, N.Qosimov kabi rejissyorlar, ko`pgina operatorlar, stsenariynavislari, muharrirlarning nomlarini ham keltirish mumkin. Zero, aynan shu ijodkorlar to`plagan tajribalar bu sohada o`ziga xos maktab bo`lib qoldi.

Biz ushbu tadqiqotimizga asosan O`zbekiston televideniesida studiya tashkil qilingan 1961 yildan boshlab qariyb qirq besh yil mobaynida (1961-2006 yillar) zangori ekran uchun ishlab chiqarilgan kinomahsulotlarni tayanch asarlar qilib oldik.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning nutqlari va asarlaridan olingan iqtiboslar tadqiqotchilarimiz uchun metodologik asos bo`lib xizmat etdi. Bundan tashqari, televizion kino nazariyasi va amaliyoti, turlari va janrlari, hayot voqeliklarini badiiy idrok qilish va ularni ekranda tasvirlash masalalariga bag`ishlangan ko`plab o`zbek, rus va jahon kinosan`ati ustalarining ilmiy asarlarini ham o`rganib chiqdik. Shunga ko`ra, ushbu tadqiqotlarimizni o`zbek televizion kinematografchilarining keyingi qirq besh yil mobaynidagi mehnatlari haqida aytilgan yangi so`z deb ham qabul qilish mumkin. E.Bagirov, A.Vartanov, S.Muratov, A.Yurovskiy, R.Ilin, R.Kopilovalarning telefilmlar tarixi va nazariyasi masalalari yoritilgan asarlari ham yuqoridaq nuqtai nazardan maxsus o`rganildi.

Televizion kinoning yangi san`at turi sifatida rivojlanishi, o`z navbatida telekino mahsulotlari, bu san`at turining o`ziga xosliklari va yutuqlari haqidagi maxsus fanning dunyoga kelishiga asos bo`ldi. Televizion kino mahsulotlari ekranga chiqishi munosabati bilan, mutaxassislar darhol ular to`g`risida maqola, taqrizlar yozdilar, matbuotda fikr bildirdilar, bunday maqola va munozaralar bora-bora tanqidiy tahlillar ob`ekti bo`lib, kitob, tadqiqot, ilmiy izlanishlarga kirdi. A.Yurovskiy, E.Bagirov, A.Vartanova, S.Muratov, R.Ilin, R.Kopilova, O.Nechay va boshqa mualliflar o`zlarining ilmiy ishlarini, ijodini aynan mana shu masalalarga bag`ishlaganlar. Bulardan tashqari, V.Sappak, V.Dyomin, A.Plaxov, V.Vilchek, N.Zorkayalarning maqolalarida mavzumizga oid ijodiy masalalar muhokama qilinganligini aytib o`tamiz.

Binobarin, o`zbek telekinosi o`zining taraqqiyot bosqichlarida maxsus o`rganishga arziydigan yutuqlarga erishayotgani, bu borada muhokama qilinishi zarur bo`lgan muammolar ham borligi, ammo bularning bari ko`ngilda gidek o`rganilmayotganini ham aytib o`tishimiz kerak.

Tadqiqotchi S.Haytmatovaning 1987 yilda himoya qilingan «O`zbekistonda televizion badiiy kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi» mavzusidagi

dissertatsiyasi ushbu tadqiqotlarimizga mavzudosh mehnat hisoblanadi va u biz uchun o`ta qimmatbaho manbadir. Ammo, orada o`tgan qariyb yigirma yillik muddatni ozmuncha vaqt deb bo`lmaydi. «O`zbektelefilm» studiyasi aynan shu yillar mobaynida o`zining mustaqillik davri tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o`tdi, badiiy filmlar yaratish sohasida ham, hujjatli televizion kino sohasida ham ajoyib yutuqlarni qo`lga kiritdi.

## BIRINCHI BOB. YUKSALISHLAR SILSILASI

XX asrda ilmiy-texnikaviy inqilob farzandi sifatida jamiyat hayotining qatlamlarini qamrab olgan televidenie qisqagina vaqt ichida xalqning ma'rifatli bo'lishida, axborot bilan ta'minlanishida eng muhim vositalardan biriga aylandi. Badiiy fenomen sifatida u o'zigacha faoliyat ko'rsatib kelgan barcha san'at turlarining eng afzal jihatlari va imkoniyatlarini o'zlashtirdi, o'zining beqiyos xislatlari bilan boyitdi. Ammo jahon televideniesi tajribalaridan ham ma'lumki, televidenie endilikda erishgan xususiyatlari, afzalliklariga birdaniga ega bo'lib qolgani yo'q. U o'zining tadrijiy taraqqiyot bosqichlari bo'ylab yuksala-yuksala, intila-intila shu kungi darajasiga yetib keldi.

Taraqqiyotning birinchi bosqichi - televideniening texnika bazasini ijodiy o'zlashtirish, teledasturlar tuzish, televideniening janr va mavzularini takomillashtirish, ijtimoiy dolzarblik va kasb mahoratini egallab borish singari masalalar bilan bog'liq edi.

Shunday qilib, televidenie dastlab kashf etilgan paytda oddiygina aloqa vositasi sifatida ish boshlagan bo'lsa, keyinchalik esa an'anaviy ijod turlarini – musiqa, teatr, kinematografiya asarlarini namoyish qiladigan translyatsiya vositasi bo'lib faoliyat ko'rsatdi, so'ng esa, bir necha o'n yillar mobaynida yuqoridagi san'at turlarining eng afzal jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan televidenie badiiy madaniyat majmuasiga aylandi.

Badiiyat olamidagi har qanday yangi hodisaning «boshidan kechishi mumkin bo'lgan savdolar» televideniening ham peshonasida bor ekan – u to o'zining xususiyatlarini shakllantirib olgunga qadar, sohadagi o'ziga “qarindosh” bo'lgan san'atlar bilan munosabatlarni aniqlashtirib olishga ham vaqt sarflab yurdi. Yangi tug'ilib kelayotgan san'at – telekino shunday bir ajoyib kommunikativ (hamma narsani birdaniga qamrab oladigan) hodisa ekanki, uning yordamida aholining keng qatlamlarini ham, hattoki boshqa axborot va aloqa vositalari bilan ham kirib borish mumkin bo'limgan nuqtalargacha qamrab olsa bo'lar ekan! Ya'ni, hamma joyda “hoziru nozirlik” xususiyati – televideniega radiordan “yuqqan” xislat edi.

Yangi san'at turi - telekinoning yana bir o'ziga xos xususiyat bor edi: telekino tasvir va tovush “hamrohligida tomoshabin e'tiboriga yetib bora olardi. A. Yurovskiy telekinoning bu xususiyatini “ekraniylik” tushunchasi ostida talqin qilgan edi<sup>1</sup>. Ya'ni, mana shu “ekraniylik” sabab televizion obrazlar tomoshabinlar aql-idroki, tafakkuriga bevosita yetib boradi, shuning uchun ham bu yangi san'at hammaga va har bir tomoshabinga tushunarli, “oson hazm bo'ladigan” yangilik edi. Televidenie va kino san'atlarini bog'lab turgan bosh rishta – ular “tili”ning yagonaligi ham ana o'sha “ekraniylik”ning yana bir afzal jihat edi. Voqeа-hodisalarni amalga oshayotgan joyning o'zidan xabar qilib, ko'rsata olishi telekino san'atning eng noyob xususiyati edi (S. Eyzenshteyn iborasi).

<sup>1</sup> Юсуповский А. “TV: поиски и решения”. –М.: Искусство, 1983, с.144.

Simulantlik<sup>2</sup>, voqea-hodissalarning bir paytning o`zida ro`y berishi va o`sha lahzalarda ekranda namoyish qilinishi, telekameralar orqali shu vaqtning o`zida efirga uzatilishi – jonli ko`rsatuvning hayotiyligini yanada oshiradi. Bunday ruhdagi bevosita namoyish qilish tomoshabin aql-idrokiga o`ta nozik ta`sir, aynan o`sha teleko`rsatuvninggina emas, umuman butun teledasturlarning ishonchli xujjatlar asosida amalga oshayotganligiga ishonch ortadi.

Shunday qilib, yangi san`at malikasi – TV kino o`zining xususiyatlariga ko`ra san`atning manzara-vaqt jihatidan afzallik tomonlarini namoyish etdi va shu xususiyatlari bilan ekrandagi tasvir orqali ham kino, ham teatr o`rmini bosa olishini ko`rsatdi.

Ammo bu – ular o`rtasida hech qanday farq yo`qligini bildirmaydi. Televedenie tili bilan teatr va kino tillarini qiyoslab ko`rganimizda, ular bitta tizimga oid tillardan foydalanishi ma'lum bo`ladi-qoladi. Shunga ko`ra, TV, kino va teatr san`atlari o`rtasidagi o`zaro munosabatlar masalalari orasida o`ylab topilganlar deyarli yo`q. Hozirgi zamonda inson hayotini teleekransiz – ko`rsatuvlarsiz va filmlarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Ammo TV endigina atak-chechak qilib kelayotgan dastlabki bosqich yillarida “televidenie san`ati”ning kelajagi, uning faoliyati, turlari, ma’no-mazmunidan tortib, shakl-shamoyili qanday bo`lmog`i kerakligi haqidagi munozaralar vaqt-vaqt bilan matbuot yuzida goh avj olib, goh pasayib turardi.

Aslida, “Asr mo’jizasi” deb nomlanayotgan san`at – TV ham amalda juda ko`plab san`atkorlar bosib o`tgan “rad qilishlar” va “hayratlanishlar” yo`li bilan, an`anaviy “qarindosh” san`atlar bilan ba’zan ittifoqlashib, ba’zan esa o`zaro munozaraga kirishib, «qoqilib-suqilib» voyaga yetmoqda edi. Masalan TVga eng yaqin “qarindosh” bo`lgan kinematografiya ham aynan shunday yo`lni bosib o`tib, kamolga yetishgan - ya’ni, avvaliga unga ham texnik kashfiyot darajasida “muomala” qilishdi, keyinchalik u attraktsion o`yin sifatida qiziqish uyg`otadigan bo`ldi, bora-bora esa maxsus tilli, maxsus vazifali san`at turiga aylandi.

Buni qarangki, televidenieni ham aynan shunday qismat kutib turgan ekan! U boshqa san`at turlariga o`xshab “uyalib” turmadidi. Zangori ekran o`zi uchun tayyorlab qo`yilgan barcha “sinov maydonchalari”ni bir-bir yurib-oralab chiqdi. To o`zining rostakam yo`lini topguncha, u “sinov maydonchalar”ida adabiyot, kino, teatr kabi san`at turlari nimalarni o`ziga tavsiya qilsa, barini boshdan kechiraverdi. O`zi dunyoga kelgunga qadar ma’naviy qadriyatlар qolgan barcha turdagи san`atlar uchun “translyator” bo`lib xizmat qila-qila, televidenie o`zi uchun yo`l izladi – o`zining afzalliklarini, yangi san`at turi sifatida zaxiradagi barcha imkoniyatlarini namoyish etishga ko`maklashadigan yo`llarga “bir-bir bosh suqib chiqdi”. Mana shunday xilma-xil izlanishlar yo`lida u kuch to`pladi, imkoniyatlarini his etdi, ularni sinovdan o`tkazdi va alohida san`at bo`lib voyaga yeta boshladidi.

Yuqorida aytganimizdek, paydo bo`lishda oddiygina texnika kashfiyoti bo`lib tug`ilgan televidenie endilikda tovush, rang, format o`lchamlari singari badiiyat vositalarini qadam-baqadam o`zlashtirgan holda shiddat bilan rivojlanib bormoqda.

<sup>2</sup> Simulantlik – frantsuz va lotin tillaridagi Simuetane (bir vaetning o`zida), ya’ni voqeani joyida turib namoyish etishni bildiradi.

Agar qirqinchı yillarda teleekran o'lchamları 9+12 sm.dan oshmagan bo'lsa, shundan keyingi yigirma yil mobaynida bu o'lchamlar besh barobar o'sdi, teleko'rsatuvlarni rangli holatda namoyish qilish boshlandi. Sifatiga ko'ra, televiedenie hali kinematografiyaga yetib ololmagan bo'lishiga qaramay, (kinoda tasvirlarga ko'ra xira ko'rinishlar ko'p, aniq-ravshanlik kuchlik emas edi), yaqin yillar ichida televiedenie ham bu borada kinematografiya erishgan yutuqlarga yaqinlashib borishiga hech kim shubha qilmaydi.

Televiedenie hayotimizga kinodan keyin kirib kelganiga qaramay, endilikda u "uyatchan shogird-bola" rolini o'ynashdan allaqachon voz kechib, o'z yo'lini topib olishga intilmoqda. Televiedenie – "madaniyat tashuvchi ulov" sifatidagi vazifalarni bajarishdan bosh tortmagan holda, u o'zining xususiy badiiy asarini yaratish darajasiga qadam-baqadam yaqinlashib kela boshladi. "Televizion san'at tushunchasi allaqachonlar turmushimizga ham, tafakkurimizga ham mustahkam kirib oldi, - deb yozadi tadqiqotchi R.Kopilova, televiedenie atrofida bo'layotgan munozaralar esa xuddi kinematografiya haqidagi bahslarni esga soladi – kinematografiya ham o'zining estetik mustaqilligiga erishgunga qadar mana shunday kurashlar silsilasidan o'tgan edi"<sup>3</sup>.

Bunisi-ku mayli-ya, ko'p o'tmay boshqacharoq mazmundagi munozara avj ola boshladi – bu yangi tug'ilgan "malika" - TVning kinematografiyadan ustun ekanligi to'g'risidagi bahs edi. Nima emish, yaqin yillarda kinematografiya san'ati o'zining bor-yo'q ustunliklarini televiedeniega boy berib qo'yar emish, ya'ni televiedenie texnika, kommunikatsiya, estetik jihatlar mukammallahib borgani sayin, kinematografiya san'atini "sindirib" tashlar emish!.. Albatta, bu borada ham amaliyot kim haq-u, kim nohaq ekanini eslatib qo'ydi. San'at sifatida televiedenie ham, kino ham teng huquqli munosabatlar asosida, bir-birlariga ko'maklashgan holda rivojlanaverishi haqidagi kontseptsiya haq bo'lib chiqdi. Shubhasizki, televiedeneda o'ziga xos til xususiyatlarining shakllanishida kino san'ati qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, o'z navbatida, televiedenie ham kinematografiyadagi shakliy evolyutsiyalar ro'y berishida ta'sir o'tkazmay qolayotgani yo'q.

Televiedenining o'ziga xos va g'aroyib ijod sifatida kamolga yetishida videomagnit yozuvining kashf etilishi ham ulkan inqilobiy rol o'ynadi, deb ayta olamiz, negaki mana shu video magnit yozuvlari tufayli TV ning resurs xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari juda ko'p barobar ortdi va teledasturlar tuzish ishlarida ham qulayliklar sonini oshirdi. Elektron videomagnit uchun ishlatiladigan maxsus apparatlarning kashf etilishi TV kino imkoniyatlari yanada yuksalayotganidan navbatdagi darak bo'ldi. Tadqiqotchi A.Yurovskiy ta'kidlashicha, «70-yillar o'rtalarida videomontaj texnika-uskunalari shu qadar rivojlana boshladiki, o'z imkoniyatlarini namoyish qilishda TV endilikda kinematografiya bilan tenglashib, hatto ba'zi o'rnlarda kinodan o'zib ham ketadigan bo'ldi»<sup>4</sup>.

Bu xil yangiliklar, shuningdek, mobil telekameralarining paydo bo'lishi - televizion mahsulotlarning yana bir turi - videofilmlar yaratilishi uchun asos bo'ldi.

<sup>3</sup> Копилова Р. Кинематография плюс телевидение. –М.: Искусство. С.5.; Юсуповский А. TV: поиски и решения. с.135.

<sup>4</sup> .Юсуповский А. TV: поиски и решения. С.136-137.

Televizion kinoning kelib chiqishida qizg`in munozaralarga sabab bo`lgan jihatlardan biri - bu telefilm bilan televidenie ko`rsatuvlarining o`zaro munosabatlari muammosi edi. Gap shunchaki ularning biri – telefilmlar voqeliklarni badiiylashtirib, tiriltirib namoyish etsa, ikkinchisi – teleko`rsatuvlarni voqeа yangilikni plynoka (tasma)larga jo qilib, xohlagan paytning o`zida tomoshabinga “issiq” holatda havola qilinardi.

O`sha paytlarda ko`plab tanqidchilar va san`at arboblari aytgan fikr-mulohazalarga qulq osadigan bo`lsak, diametrik qarama-qarshiliklarni ifodalovchi, hatto televideniening bu xil vazifasini rad etishgacha borgan mutaxassislarning gaplarini o`qib, yoqa tutasiz: “Uyimizdagи ekranda namoyish qilinayotgan material maxsus suratga tushirilganmi yoki maxsus emasmi, agar unga estetik imkoniyatlar nuqtai nazardan baho beradigan bo`lsak, takror va takror aytamanki, gap janr xususiyatlariga kelib taqaladigan bo`lsa, televidenie kinoning oldida ip esholmay qoladi. Kino, faqat kino, o`sha oddiygina kino g`alaba qozonadi. (Bu gapni mashhur telemutaxassis Sappak aytgan!)

Uning fikrini Ye.Nikolov ham qo`llab-quvvatlaydi: “Teleko`rsatuv kino tasmaga yoki magnit tasmaga yozib olingan zahoti, televizion obraz – televideniega aloqadorligini yo`qotadi.

A.Yurovskiyning fikri esa, ularga tamoman qarama-qarshi: “Agar televidenie voqelikni aks ettirish va yoritib berish asnosida efirga oldindan suratga olib, tayyorlangan tasvirni uzatishda o`ziga xoslikdan mahrum bo`ladigan bo`lsa, film yaratishning o`zi – televizion ijod - tayanadigan daraxtni kesish bilan barobardir”<sup>5</sup>.

Amalda bu vazifa materialni oldindan tayyorlab qo`yadiganlar foydasiga hal qilindi, bu esa televizion ijodkorlarning imkoniyatlarini kengaytirib yubordi, ularning faoliyat miqqosi ham kengaydi, oshdi, ular bajaradigan murakkab ijodiy yumushlar ko`paydi. Shunisi e`tiborga loyiq ediki, televizion xabarlarni qayd qilib, yozib olib qo`yishning qonuniyligi haqidagi debatlar asosan badiiy asarlarga emas, balki publitsistik yo`nalishdagi dasturlar materiallariga tegishli edi. Gap shundaki, badiiy kino mualliflarining ijodiy faoliyatida shu narsa aniq-ravshan isbotlandi – agar teleekrandagi xabar to`qimaga, badiiy fantaziyaga asoslangan bo`lsa, bunda ko`rsatuv to`g`ridan-to`g`ri olib ko`rsatiladimi yoki avval yozib olib, keyinchalik efirga uzatiladimi, tomoshabinlar uchun buning hech ahamiyati yo`q ekan.

Balki shuning uchun ham ko`rsatuvlarni yozib olish imkoniyatlari paydo bo`lganidan keyin spektakllarni to`g`ridan to`g`ri olib ko`rsatishlar o`z faoliyatini tugatgandir? Buning sababi shunda ediki, yozib olingan badiiy-publitsistik telematerial tarkibida “jonli” ko`rsatilgan, shu lahzaning o`zida uzatilgan materialga unchalik yopishavermaydigan allaqanday obrazli unsur mavjud edi. “Badiiy xabar, - deb yozadi A.Yurovskiy, - o`z mohiyatiga ko`ra obrazli xabardir, undagi informatsiya (xabar)ning o`zida estetik mazmun mavjud bo`ladi”.

Xullas, yangi san`at turi sifatida paydo bo`layotgan telefilm rivojlanganining ilk bosqichidayoq uning estetik mohiyatiga shubha bildirilgan, telefilmning qanday imkoniyatlarga, qanaqa ijodiy salohiyatlarga ega ekanligi hali noma'lumligacha qolmoqda edi. Mana shunday “g`ira-shira”likda, yo`l boshida hayron turgan yangi

<sup>5</sup> O`sha joyda.

san'atga qo'l uzatgan ulug` ijodkorlar orasida Federiko Fellini, Jan Renuar, Roberto Rosselini, Bernardo Bertoluchchi singari ustozlar bor edi. Ular o`z ijodlari mobaynida aynan zangori ekranga moslab ham asarlar yaratdilar va bu yangi san'at turining yashab qolishini yoqlab jiddiy dalil-isbotlar izladilar va topdilar.

“... Bugungi kunda televideenie muammolari faqat u bilan hamkorlik qiladiganlarnigina qiziqtirayotgani yo`q, - deb yozadi taniqli polyak kinorejissyor Yeji Kavalerovich. Ochiq-oydin ko`rinib turgan haqiqatdan ko`z yumolmaydigan har qanday kinematografchidan so`rang, u tan olib aytishi kerak: bugun televideenie imkoniyatlarini chetlab o`tib, kino sohasida biron ish qilish mumkin emas”.<sup>6</sup>

E.Kavalerovichning fikrlarini Fellini ham qo'llab-quvvatlaydi: “...Ilgari men “Televideenie nima?” degan savol borasida jiddiy o`ylab ko`rmagan ekanman”<sup>7</sup>. Fellini, uyida – divanda cho`zilib yotgan tomoshabin bilan suhbat qurishning juda osonligi haqidagi tasavvurni rad qiladi. Uning nazarida ham, tomoshabin uyiga kirib borgan televizion asar sakral (an'anaviy) kommunikatsiyani yo`qqa chiqaradi, kinoteatrda jamoa bo`lib film tomosha qilayotganlar maftunkor jozibadan mahrum bo`ladi. Televizor sohibi uydagi “yashik”ni o`zi xohlagan paytda o`chirib qo`yishi mumkin. Natijada filmni qabul qilishda marosimiy tafakkur butunlay yo`qqa chiqadi. Qizig`i shundaki, shubhaga beriluvchan Fellini “Bloknot” (“Yon daftar”) va «Masxarabozlar» deb nomlangan ikkita televizion film yaratdi-da, boshqa kinematografchilarda shubhaga o`rin qoldirmadi.

Televidenieda namoyish qilish uchun kino ishlash Roberto Rosselini, Jan Renuar singari dunyoga tanilgan usta kinochilarni ham qiziqtirib qo`yaniga nima deysiz? Masalan, R.Rosselini Hindistonda suratga olgan 10 ta filmini ham televidenieni mo`ljallab ishlaganini aytadi. J.Renuar esa frantsuz TVsi uchun R.Stivensonning mashhur “Doktor Jekill va janob Xayd” asarini kino qilib berdi. Tajribali kinematografchilar shuni aniq biladilar: teleuzatuvlarda bitta jiddiy nuqson mavjud, ya`ni ekran qanchalik kichik bo`lsa, teletasvirlarning sifati ham shunchalik past bo`ladi. Ularning nazarida, televideenie – tarbiyaviy xarakterdagи, didaktika san`ati bo`lib, u jamiyatda ma`rifatparvarlik rolini o`ynashga moyillashgan.

“Televideenie - tuyg`ularni tasvirlamaydi, balki chizib ko`rsatadi”, - deydi F.Fellini. Mana, boshqa bir fikr. R.Rosselini: “TV - yangi tug`ilgan san'at - insonni izlab topish uchun yo`lga tushdi”. R.Rosselini fikricha, televideenie ijodkor uchun ulkan erkinlik bag`ishlaydi.<sup>8</sup>

Kinoijodkorlar ijodning bu yangi turi – telekinoga o`ta ehtiyyotkor munosabatda bo`ldilar. Bu – tabiiy, albatta. “Men, - deb yozadi ispan kinorejissyor Umberto Solas, - kino rejissyor sifatida televideneda ishlashim mumkin. Buning uchun televideenie menga tanish bo`lgan ish uslubimni o`zgartirib qo`ymasligi kerak, ya`ni, katta ekranda o`rganganlarimdan voz kechishimga, kichik ekran uchun ishlashga majbur qilmasligi kerak. Men professional kinorejissyor sifatida o`z filmlarimni yaratib yurib, kinodagi texnikaviy imkoniyatlardan, uning tilidan foydalanishga o`rganganman. Kinofilmlar yo`nalishini hisobga olaman, negaki

<sup>6</sup> Кавалерович Э. 40 мнений о телевидении. –М.: Искусство, 1978, с.156.

<sup>7</sup> Феллини Ф. О`sha asar. 146-bet.

<sup>8</sup> Россеплини Р. О`sha asar. 153 –bet.

kinofilmlar telefilmlardan faqat ishlab chiqarish texnikasi jihatidan emas, balki, kimi larda mo'ljallanayotgani jihatidan ham ajralib turadi. Demak, men kinematografiya rejissyori bo'lib qolishni istar ekanman, o'z ampluamni o'zgartirmasligim kerak, deb o'layman".<sup>9</sup>

Televideniening texnikaviy shart-sharoitlari haqida yozar ekan, Rene Kler yanada ehtiyotkorroq bo'lib baho beradi: "To'g'ridan-to'g'ri ko'rsatadigan televideniening texnikaviy shart-sharoitlari kinoni suratga olishdagi boy imkoniyatlardan foydalanishga yo'l qo'ymaydi. Natijada televidenieda teatr dagiga o'xshash shart-sharoitlar paydo bo'la boshladiki, endi bundan qutilish televidenie uchun ancha-muncha qiyinchiliklar tug'diradi".<sup>10</sup> Bu xildagi ehtiyotkorona so'zlarda jon bor. Aytaylik, har ikkala san'at turida – kinoda ham, televidenieda ham o'zlariga mos keladigan "ekranga xoslik" (ekraniylik, deylik) bor, vaholanki, ikkala san'atdagi ekraniylik bir-birlariga mutlaqo mos kelmaydi. Masalan, televizion asar dastlabki davrlarda hatto teledasturlarda chizib berilgan chiziq bo'y lab yurishga majbur edi. Bunga 1959 yilda yaratilgan "N.F.I. jumbog'i" telefilmi aniq-ravshan dalil bo'lib xizmat qiladi. ("N.F.I. jumbog'i", stsenariy muallifi I.Andronikov, S.Vladimirov, rejissyor M.Shapiro, 1959 yil). Ushbu film teleekranlarga chiqqanda V.Shklovskiy qutlov so'z yozgan edi. "Ko'z oldimizda, - deb yozadi atoqli san'at nazariyachisi, - televizion san'atning yangi etapda dunyoga kelishini ko'rib turibmiz".

"N.F.I. jumbog'i" filmi teleekranlarda ulkan, muvaffaqiyat bilan namoyish qilindi. Andronikov – Ittifoqda birinchi raqamli teleyulduzga aylandi. U butun mamlakat tomoshabinlari ko'zi oldida o'zining olimlik iste'dodini ham, improvizatsiyaga usta bo'lib ketgan estrada artistining hunarini ham chunonam qotirib ijro etdiki, asti qo'yaverasiz! Irakliy Andronnikovning har bir chiqishida erkinlik ulkan auditoriya – millionlab teletomoshabinlar oldida mahorat ila nutq so'zlash, kinotasvirlar, fotografiyalar, rasmlar, shuningdek, filmda ishtirot qiladigan shaxslarning dialoglari yozilgan sahifalar nihoyatda orastalik bilan birlashib, filmning qiziqarliligini orttirgandan orttirdi. Film namoyishi davomida tomoshabinlar nafaslarini ichga yutib, jimjit o'tirishar, hammaning e'tibori - o'rtaga jumboq qilib tashlangan «N.F.I.» initsiallarida, stsenariy muallifi (adib) I.Andronnikov esa o'sha harflar bilan bog'liq voqealarni hikoya qilish bilan birga, jumboqlarni ham birma-bir yechib bormoqda edi.

I.Andronnikovning teleekrandagi bu chiqishlaridan keyin, televizorda og'zaki hikoya aytish hunari an'ana shakliga kirdi, turli davrlarda Alla Demidova, Sergey Yurskiy, Vitaliy Vulf, Edvard Radzinskiy va boshqa aktyorlar, adiblar, tarixchilarining chiqishlari avj oldi. Ular butun Ittifoq tomoshabinlari oldida katta shuhrat qozondilar, davradagi orziqib kutiladigan suhbatdoshlarga aylandilar. Yangi san'at turi o'z yo'lini izlab, o'z imkoniyatlarini endi-endi namoyish qilib boshlagan dastlabki paytda teleekranda paydo bo'lgan yana bir yorqin iste'dod – bu G.Avenarius edi.

Hikoya aytib beradigan suhbatdosh, mayli u olim yoki yozuvchi bo'ladimi, bastakor yoki mehnat qahramonimi, bundan qat'iy nazar, hatto aytib beradigan

<sup>9</sup> Солас У. Сто мнений о TV. с.73.

<sup>10</sup> Клер Р. О'sha yerda, 138-140 betlar.

hikoyasi biroz sodda syujetga, oddiy voqealarga asoslansa ham, yoki primitiv xarakterga ega bo`lsayam, barchasidan qat’iy nazar, bunday hikoyalarni jon-dili bilan eshitadigan ko`p million sonli tomoshabinlari bor edi, ular kinoteatrлarda emas, uylarida o’tirib, hikoya-filmning boshlanishini orziqib kutar edilar.

Film ijodkorlarining soddaligi shu darajada ediki, asar avval telestudiyada namoyish etilar, undan keyin diktor, undan so`nggina boshlovchi ko`rinardi. Irakliy Andronnikovning «N.F.I. jumbog’i» telefilm mi mana shunday kentavr-filmardan bo`ldi.

Film ekranga chiqishini butun bir kashfiyat deb atash mumkin. Kartina stsenariysi shunday tuzilgan ediki, aytilishi lozim bo`lgan eng qo`pol so`z ham publitsistik ekranga moslab, televideniening so`z omborxonasida “ijodiy” tarashlanib chiqardi. Bunday tizimda ishlash mualliflarni ochiqdan-ochiq badiiy kinematograf tomon chorlar, zero kino unsurlari allaqachon teledasturlarda aks eta boshlagan edi.

Bularga parallel (yondosh) ravishda televideenie ishida telexronikaga ehtiyoj sezila boshlandi. Voqeа sodir bo`layotgan joydan reportajlar, yo`l kundaliklari, ocherklar - ko`rsatuvlarga aylanish jarayonida studiyaning moddiy-texnika bazasini kengaytirishni taqozo qildi, buning natijasida esa kino va telepublitsistikaning turli shakl va janrlari “zangori ekran” tomoshalariga kirib kela boshladi. Kinokameralar yordamida televideeniya uchun yaratilgan eng yaxshi televizion ocherklar muvafaqqiyati, shubhasiz, ularda saqlanib qolgan janr xususiyatlari, hayot voqeliklarining shiddatida aks etgan mantiq, namoyish qilinayotgan voqeanning hodisalariga berilgan baho, tashkillashtirilayotgan materialning ishonchliligi va aniqligiga ham bog`liq edi.

Publitsistik telefilmlar vazifalari sof axborot janrlari bilangina cheklanib qolmadи, ular teledasturlar ehtiyojlariga ham javob berish uchun o`zlaridagi janr - mavzu imkoniyatlarini iloji boricha faol ravishda kengaytirdilar, shu paytgacha hujjatli kino amaliyotida, xususan film-portret yaratishda to`plangan barcha eng qadrli tajribalarni o`zlashtirdilar. Kinomahsulot ishlab chiqarishda zamon talablaridan jiddiy orqada qolganlik, moddiy-texnika bazasidagi nuqsonlar televizion hujjatli filmlar yaratishda to`sinq bo`lib turdi. Ustiga-ustak, televideineda malakali kadrlar, ayniqlisa rejissyorlar yetishmasdi. Aytaylik, 20-yillarda sovet kinematografiyasining eng ilg`or qismi bo`lib xizmat qilgan hujjatli kinosining «hozirjavobligi» va hayotni «o`zicha talqin» qilishi, televideineda hujjatli filmlar yaratilishiga to`sinq bo`lib yotardi. “Hujjatli kino – loqaydlikni, hayotga manmansirab, past nazar ila qarashning uyasi bo`lib qolgan edi”<sup>11</sup>.

Oradan yillar o`tib, 60-yillarda sovet jamiyatida yuz berayotgan o`zgarishlar, yangilanishlar paytidagina kinopublitsistikada sal jonlanish sezildi. Albatta, jamiyat boshqaruvidagi rasmiy tantanabozlikning puch estetikasi, o`z-o`zini maqtashlar natijasida telefilmlar mazmuniga putur yetdi. Uzoq muddat davom etib kelgan telefilmlar bu paytga kelib kinopublitsistikadan na bir tayanch, na bir yordam ololmadi. Telehujjatli kinoga faqat “to`g`ridan-to`g`ri kino” g`oyalari, hujjatli kinematografiyaning D. Vertov, E. Shub, R. Flaerti singari va boshqa korifey (ustoz) larining an’ana va tajribalari kirib kela boshlagach, televizion san’atning obrazlarida

<sup>11</sup> Эйзенштейн С. Избранные произведения в 6 томах. Т.5. –М.: Искусство, 1964, с.288-289.

yangiliklar ko'zga ko'rina boshladi, rivojlanish kurtaklari nish yora boshladi. Jarayonlarning shunday faollahuvi tufayligina ekran telepublitsistikasida o'z imkoniyatlarini, tevarak-atrofda kechayotgan voqeliklarni dadil aks ettirishdagi qudratli vositalarni jamiyat oldida namoyon etish istagi paydo bo'ldi. Bu istak shunchalik zo'r ediki, endilikda texnikaviy ta'minlanmaganlik ham, davom etib kelayotgan sxematizm ham amalda hali-veri ba'zi kinoijodkorlarga to'siq bo'layotganligiga qaramay, telepublitsistika hayotga shiddat bilan yopirilib kira boshladi. Hujjatli kino ijodkorlari hayotdagi qahramonlar xarakteridagi o'ziga xosliklarni, taqdir o'yinlari-yu yozmishlarni, ularning faoliyatidan tortib histuyg'ularigacha, fikrlash va intilishlarigacha - bari-barini chinakamiga ifodalab berishga kirishdilar.

Bu yo'l - oson yo'l emasdi.

Televizion publitsistika voqelik tomon dadillik bilan, matonat bilan intilar, endi u hayotdagi fakt va hodisalarnigina emas, balki shular orqali insonni aks ettirishga, uning hayoti va kechmishlarini tasvirlashga harakat qildi. Albatta, matbuotda, teleradio dasturlarida bo'lgani kabi, telefilmlarda ham rasmiy hokimiyat g'oyalarini targ'ib-tashviq etish ishlari hamon avjida, chunonchi, "Yarim asr solnomasi", "S'ezddan - s'ezdgacha" kabi epopeyalar, Lenin mavzusidagi turkum filmlar ekranlarda chappor urib gullab yotar, biroq endi haqiqat izlab yo'lga tushgan, o'tkir muammoli masalalarni ko'tarib chiqqan iste'dodli asarlarni to'xtatishning iloji ham yo'q edi. senzura tomonidan siquvgaga olinishiga qaramay, qattiq tahrirga uchragan, yulinib-yulqilanib efirga yo'l olgan ba'zi filmlar oxir-oqibatda baribir tomoshabinlarning qizg'in olqishlariga sazovor bo'ldilar. S. Zelikinning "Shinov va boshqalar", "Bola komissarlar" kabi, A.Gabrilovichning "Bolaligimizdag'i futbol" asari, M.Goldovskaya, D.Lunkovlarni film-portretlari ana shunday olqish olgan filmlar edi.

Nimayam deyish mumkin, sanab o'tilgan filmlarda ham "ijtimoiy buyurtma" degan buyruq-gapning ta'siri hamon sezilib turar, ammo endi filmlardagi hayot bilan san'atni bir-birlariga yaqinlashtirishga bo'lgan intilishlarni rad etib bo'lmas edi. Shunday qilib, ma'naviy va jismoniy jihatdan yuksalayotgan, ijtimoiy vazifalarni hal qilishga chog'lanayotgan inson qiyofasi filmlarda bor murakkabligi va muayyanligi ila bosh planga chiqib kela boshladi.

Kinotadqiqot ob'ekti bilan yanada kengroq aloqaga intilish, kamera bilan inson o'rtasidagi masofani qisqartirish, u yoki bu xil emotsiya (hissiy ifoda)ning paydo bo'lishini "ilib" olish, fikr va harakatlarni paydo bo'lganidanoq qayd etish – bular bari televizion san'atning asl mohiyatini ochib beradi, telepublitsistlarning san'at turlaridan qanday foydalanishlari, ular ijodidagi bosh printsip (tamoyil)lar, hayotning chuqur qatlamlarida ro'y berayotgan voqeliklar mazmunini ochish uchun xizmat qilishlarini yoritadi.

Kinodagi va televideniyadagi ijodiy resurslar borasida munozaralar ham uzoq paytlardan beri davom etib kelayotgan tarix. Kinematografiya endigina atak-chechak qilib kelayotgan paytlardayoq ko'plab tanqidchilar va amaliyotchilar yangi san'at turi xuddi fotosuratlar kabi tiniq ko'rinish va manzaralar ato eta olishidan hayratga tushgan edilar.

“Fotografiya – predmetdan uning tasviri (reproduktsiyasi)ga qarashga majbur etadi”, - deb yozadi frantsuz tanqidchisi A. Bazen<sup>12</sup>. Boshqa bir tanqidchilar esa, surati olinayotgan ob’ektga nisbatan muallif ifodalayotgan nuqtai nazarni tasvirlay olgan rasmnigina estetik jihatdan to’laqonli deb qayd etadilar. Z. Krakauer “Film tabiat” degan kitobida o’z navbatida kinoijodkorlarni “kinokamera realligi”ni buzib ko’rsatadigan badiiy shakllardan kinokamerada plynkadagi “ijodkor tomonidan o’zgartirilmagan tirik vogelik”ni saqlab qolish qobiliyati borligidan ehtiyyot bo’lishga chorlaydi.

Hayotiy voqealarni tasvirga olish, qayd qilib qo’yish (fiksatsiya) hodisasiga F. Leje taklif qilgan gigant-film yaratish g’oyasini misol qilib ko’rsatish mumkin. F. Leje yigirma to’rt soat mobaynida erkaklar va ayollar hayotidagi barcha xatti-harakatlarni tafsilotlari bilan tasvirga olib, kino qilish g’oyasini taklif etgan edi. Kino, ular izidan televideniya ham rivoj topib borar ekanlar, ekran san’atining mohiyati va vazifasi haqidagi ko’plab mana shunday tasavvurlarni rad qilib tashladilar. Axir tomoshabin ekrandagi tasvir orqali moddiy turmushning jo’shqin va tirik suratini xotirasida saqlab qoladi-ku. Bunga o’xshash mavzular yuzasidan kelib chiqqan muhokama munozaralar nazariy bahslarga sabab bo’lib qolmay, hali yana uzoq muddatlar davomida o’zlarini turli tomonlardan eslatib turdilar. Amerika yalovbardor liderlaridan biri Endi Uorxol yaratgan filmni eslaylik, unda osmono’par binodagi hayotni sakkiz soat mobaynida tinimsiz, bitta nuqtadan turib tasvirlaydilar.

Ushbu yetarli darajada samarasiz bo’lgan “tajriba”larga shubhalanib qaraydigan odamlar ham, bu xil xirgoyi asarlar mualliflari ham ma’lum bir g’oyalarga xizmat qilayotganlarini ko’rmasligi mumkin emasdi. “Dunyo o’zi tasodifiy faktlarning parchalaridan tarkib topadi, - deb hisoblaydi Krakauer, - bu faktlar – taassurotlarning to’xtovsiz harakatini va oqimini aks ettiradi. Krakauerning fikricha, insonning ichki olami tashlandiq narsa, benuqson va bekamu-ko’st butunlik esa mangu yo’qotildi. Bu – turmushning ichki mohiyatiga yetib borish istagida intilayotgan ijodkorning harakatlari.

Hujjalni lentadagi g’oyani qanday qilib amalga oshirish shakli bilan reallikni kinokuzatish o’rtasida qarama-qarshilik bormi? S. Muratov o’zining “Tarakfash kamera” nomli kitobida mana shu savolga javobni stsenariy muammosi orqali yoritib bermoqchi bo’ladi. Bo’lajak filmdagi barcha mushkul tafsilotlar stsenariyda aks ettirib berilishi shartmi? Muallif savol qo’yadi: “Umuman olganda, filmni - stsenariyning ekrandagi ifodasi, deb tushunish, shuni orzu qilish va shunday bo’lishni kutish kerakmi-yo’qmi? “Kinodramaturgiya bo’yicha konferentsiya materiallari” kitobining mualliflaridan biri xuddi shu muammoga oid yana bir qiziq holatni qayd etadi: “Vazifaning murakkabligi shundaki, - deydi A. Nikiforova, - hujjalni asar stsenariysi, xuddi Mendeleevning kimyoviy elementlar davriy jadvalidagi og’ir elementlarga o’xshab, asar tasvirga olinayotgan paytda tushib qoladi”. Stsenariy degan “jonvor” faqat filmgacha yashab turadi, keyinchalik esa u film ichiga singib yo’qoladi, yoki ekranga yetib borguncha yo’ldayoq jon topshirgan bo’ladi”.

Bizningcha, muammo - kinoasarning bitta tarkibiy qismi bo’lgan stsenariyda emas, balki hamma gap sovet davrida hujjalni asar yaratish metodikasida edi. Kimki

<sup>12</sup> Базен А. Что такое кино? –М.: Искусство, 1962, с.15.

agar kino ishlab chiqarish bilan tanish bo`lsa, (bu mayli, hujjatli kino bo`ladimi yoki badiiy asarmi, bundan qat`i nazar), unga shu narsa aniq ediki, mafkuralashgan jamiyatda stsenariy - hisobotning bir shakliday gap edi. Stsenariyning foydali yoki samarasizligi ham hali noaniq bir narsa. U – xuddi yig`inlarda o`qiladigan “doklad” qog`oz deganday gap - fikr esdan chiqib qolmasin uchun shu qog`ozga qayd etib qo`yiladi, xolos. Ijodkor uchun eng muhimi – bari ana shu g`oya ichida yashiringan bo`lardi.

“Ochig`ini aytganda, stsenariyda yozilganiga qarab hujjatli film ishlash – azobning o`zginasi. Ba`zi rejissyorlar hatto bunga, mumkin bo`lmagan ish, deb qarashadi”. Axir, reallik – bir joyda tinch turmaydigan tirik narsa, voqealar doimo almashib turadi, odamlar almashadi. Stsenariy yozib tugatilgunicha, uyoq-buyoqda o`qib ma`qullanib chiqilgunicha, tahrir qilinib, bezatilgunicha – ob`ekt o`zining dolzarbligini yo`qotadi. “Stsenariy qancha batafsil yozilgan bo`lsa - shuncha yaxshi” deb hisoblaydiganlar ham bor. Ammo, nima bo`lgandayam, rejissyor suratga olish ishiga qadar, filmni o`zicha yasab-bejab qo`ygan bo`ladi.

Mana, jahon hujjatli ekranida iz qoldirgan mutaxassis Kriss Markerning so`ziga qulq solaylik. “Umrim bo`yi men biror martayam stsenariy yozmaganman. Men voqealoyiga kelaman, tasvirga olaman, shundan keyingina nima bo`layotganligini tushunishga harakat qilaman”<sup>13</sup>.

Stsenariy “jonvor”ning aybi shundaki, u hayotga tadbiq etila boshlagani zahot, ishtirokchilar – ijrochilarga, rejissyor va operator esa sahnalashtiruvchilarga aylanadi-qoladi, natijada hujjatli film ham bir san`at turidan ikkinchi san`at turiga aylanib ketadi.

Hujjatli kartinani shu tariqa yamab-yasqash kuzatuv metodlari va reportajlikni yo`q qiladi, “hujjatli” (ishonchli) bo`lish afzalliklarini badiiy kino tamoyillari bilan almashlaydi.

Yaxshi stsenariy yozmoqchi bo`lgan muallif tadqiqot ob`ektini yaxshi o`rganadi, kinoga olish harakatlarining taxminiy ko`rinishlarigacha rejallashtirib chiqadi, lekin, shu bilan birga, stsenariy umumiyligi mazmuni doirasida personajlarni erkin qoldiradi, bu esa kinohujjatchilarning malaka oshirib olishlari uchun juda qo`l keladi, ular ob`ektiv oldida “tahrir qilinmagan voqelik”ning barcha tafsilotlarini bilib oladilar.

Atoqli adib va shoir Konstantin Simonov “Jangchi kelardi” filmining stsenariy rejasini tanishtirar ekan, suratga olish guruhining e`tiborini matnga tayyorlangan materiallarga tortayotib, uch jihatga diqqat qilishlarini so`ragan. Adabiy matn – muallifning front ocherklari va maqolalaridan, jangchilar bilan suhbatlaridan, urush ishtirokchilarining xotiralari, shoirning o`z she`rlaridan iborat edi. Filmning tasviriy qismida – frontda olingan tasvir, nemis harbiy xronikasi tasvirlari, urushdan keyingi faxriylar uchrashuvlari xronikasi material o`rnida ishlataldi. Adibning uncha muhim bo`lmagan masalalarda ham (qahramonlar bilan suhbatlarni sinxron yozib borish, tasvirga olish mazmuni, musiqalardan foydalanish va hakozo) sinchkovlik, sezgirlik ko`rsatardi.

<sup>13</sup> Muratov S. “Pristrastnaya kamera”. -M.: 2004. Str. 92.

Taniqli kinohujjatchi G. Frank film yaratishni – okeanda suzishga, stsenariyni esa – Ptolemy xaritasiga o`xshatardi, ya`ni, guruh “Yangi Yer”lar qidirib topish uchun kemada yo`lga tushgan, o`zлari “Yangi Yer”ni ko`rmagan, faqat tasavvur qiladilar, xolos<sup>14</sup>.

Amerikalik rejissyor Alan Rozentalning so`zлari ham xuddi shuni takrorlayotganday: “Men film yaratishni me’moriy loyiha ustida ishlashga o`xshataman. Binoni tiklashda asos-loyihasiz, chizmalarsiz ham ishlash mumkindir, xuddi shuningdek, har qanday filmni ham stsenariysiz yarataversa bo`ladi. Lekin har ikkala taqdirda ham ijodiy g`oyani shakllantirish va rasmiylashtirish uchun millionta bahona topiladi. Boshqacha aytganda, yaxshi stsenariy film yaratishni ming marotaba osonlashtirib beradi”<sup>15</sup>.

A.Rozental fikricha, stsenariyning vazifalari quyidagilardan iborat: muallif g`oyasini ijodiy amalga oshirishda suratga olish guruhi uchun tashkilotchilik rolini o`ynashi kerak; film g`oyasini obrazli shakllarda tasavvur qilishga yordamlashishi kerak; rejissyor va operatorga film mohiyatini, mazmunini ochishda, byudjetni belgilashda yordam berishi kerak; montaj jarayonida rejissyorga tashkilotchi-yordamchi bo`lib xizmat qilishi kerak. “Bu degani, - deb xulosa qiladi Rozental, - stsenariy - adabiy asar emas, balki ish hujjatidir, degan gap”.

1934 yilda inson bilan san’at o`rtasida yangi munosabatlar o`rnatalishiga yaralishi sabab bo`lgan voqeа yuz berdi – hujjatli ekranga “til bitdi”, ekran dramaturgiyasining vazifasi tamoman o`zgardi, ya`ni, hayotda bor bo`lgan qahramon ekranda gapirish huquqiga, tovushdan tomoshabin obrazining afzalliklariga ega bo`ldi, bu esa uning xulq-atvorini ochib berishda beqiyos yangilik edi! Shu paytgacha faqat badiiy kino personajlarigina ekranda gapirardi. Dziga Vertovning “Lenin haqida uch qo’shiq” va “Alla” kartinalari yaratilishida birinchi marotaba sinxron kamerada televiedenie uchun asar yaratildi.

Televiedenie uchun sinxron kameraning ishlatilishi hujjatli kino imkoniyatlarini kengaytirib yubordi. Shu asnoda Dziga Vertov “Obraz ko`rinishdagi poetik film ustida ishlashdan ko`ra, endi inson xulq-atvori haqida film ishlash kerak” degan qarorga keladi.<sup>16</sup>

Film-portretlar davri boshlandi. “Shuni bilish men uchun muhim, - deb yozadi Dziga Vertov, - bir bor boshdan kechirganni yana takrorlamaslik uchun orqaga qaytmaslikka intilsam, buning o`rniga hali yurib o`tilmagan yo`ldan ketsam, aytaylik, “tirik, hujjatli insonni”: oilani, brigadani, kichikkina jamoani ko`rsatmoqchi bo`lsam, shunga intilsam – bu mening xatoim bo`ladimi? Bir paytlar men o`zim kinematografiyada faoliyat boshlab, keyinchalik istaklarimga qarshi ravishda “keng obzor” ko`rsatuvlarga haydalgan edim, endi yana vaqt bo`ylab kuzatuvga, uzoq muddat kuzatuvlarga intilishim – xato hisoblanadimi?”.

D.Vertov tanlagan yo`l faktografik kino ixlosmandlariga yoqmadidi. Ulug` novator “badiiy maqsadlarda”, “obrazli kashfiyotlar qilish” maqsadlarida voqelik ichiga “badiiy maqsadlarda” chuqur kirib ketishga, obrazli kashfiyotlar qilishga

<sup>14</sup> Франк Г. Карта Птоломея. –М.: Искусство, 1975. с.198.

<sup>15</sup> Розентал А. Создание кино... -М.: Эра. с.19-20.

<sup>16</sup> Ветров Д. Статьи дневники. –М.: Искусство, 1966. с.122.

intilar, faktografchilar esa bularning barini «metaforistikaga ortiqcha berilish» deb hisoblashardi. Muammo shunda ediki, faktxo'rlar Vertov siy whole of the film's content. Ijodkor shaxsdan hadiksirar, «vaholanki, badiiy kino ixlosmandlari uning dokumentalist (hujjatli kinochi) bo'lib ketganligigidan hayiqishardi».

A.Montegyu jiddiy ogohlantiradi: «Kinokronika, xuddi hujjatli kinoga o'xshab, alohida olingan insonni va uning ichki konfliktlarini qanchalik yoritsa, u yashayotgan hayotiy muhitni ham shunchalar ochib beradi»<sup>17</sup>.

Aytganday, qaerda dokumentalistika bilan san'at o'rtasida eng faol o'zaro hamkorlik jarayoni bo'lib o'tsa, o'sha zonada insoniy munosabatlarni tarkibiga yoki shaxsiy xislatlarining tadqiqoti uchun eng yaxshi joy paydo bo'ladi.

Hujjatli kinoda nimaiki jarayon yuz bermasin, televizion dokumentalistikaning rivojlanishiga albatta o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu sohada eng qiyin vaziyat - hujjatli ekranda inson xarakterini tadqiq qilishning uzoq vaqt yo'q bo'lib ketishi oqibatlari edi. Telefilmning tug'ilishi – kinoni uning hujjatli asosiga qaytarish uchun tinimsiz harakatlar qilishi lozimligini talab etardi. «Zangori ekran» uchun mo'ljallangan asar uning tabiatiga xos bo'lgan bir qator ajoyib afzallikkarga – kameraga moslik, yashirin ravishda idrok qilish, yirik plan afzalliklariga ega bo'ldi. Shuning uchun ham televideenie inson bilan dokumentalistika o'rtasida faol o'zaro hamkorlik uchun haqiqatda ham bepoyon kenglik yaratib bergen bo'lib, insoniy munosabatlarning shaxsiy xususiyatlarini tadqiq qilish uchun alohida yutuqlarga yo'l ochardi.

Televideenie bilan qariyb ikki yil do'st bo'lib yurib, - deb yozadi mashhur V.Sappak, - topgan eng qimmatbaho narsam “televizion portret” degan janr bo'ldi. Portret - xulq-atvor degani. U tarjimai hol. U shaxs va tipik xususiyatlarning sintezi. Va nihoyat, u - predmetga nisbatan eng yorqin tarzda ifodalangan tasvirdir»<sup>18</sup>.

Natijada, ikki o'rtada bahs-munozara qizib, dahanaki janglar bo'layotgan paytda, hujjatli kinoning janrlar ro'yxatida ekrandagi portret tomonga qarab siljishlar ro'y berdi. Bu 1970 yillarda ekranga chiqqan filmlarning nomlaridan ham seziladi, qarang: «Katyusha», «Nikolay Amosov», «Nurilla Bazetov», «Rassom Chuykov», «Raqqosa Bibisora Beyshenalieva» va boshqalar.

Tbilisida bo'lib o'tgan VI Butunitifoq telefestivalida (1975y.) tanlovga chiqarilgan tasmalarning har uchtasidan bittasi – portret-film edi. Endi bularning ustiga janr jihatdan o'xhash bo'lgan asarlarni jamoalarning guruh-guruh portretlari, alohida kasb guruhiining portretlari va hokazolarni ham qo'shing.

Portret-filmlar dokumentalistikaning xronika bilan chatishib ketishi uchun har tomonlama yordam berdi, hatto, «mualliflik kinosi» degan yangi bir yo'naliishga oq yo'l ochib berdi.

Xronika haqida gapiradigan bo'lsak, xronika - hujjatli ocherkdan yaxshi ham, yomon ham bo'limgan bir janr. Xronika ekranda ijtimoiy hayotning «marosimlashgan» sohalarini: majlislarni, sport o'yinlarini, mitinglarni, davlat hujjatlarining imzolanishlari, paradlar va bayramlarni juda qoyilmaqom qilib tasvirlaydi. Xronik tasvir «inson bo'laklari»dan chetga qochib, voqeanning o'zinigina

<sup>17</sup> Монтиегуй А. Мир фильма. –Л., 1969. с.232-234.

<sup>18</sup> Саппак В. ТВ и мы. –М.: Искусство, 1963. с.162.

ro'yxatga kiritadi, xolos. Xronikachi-ijodkor o'z reportajida alohida shaxsiy lahzalarni tasvirlashga majbur emas.

Mana, hujjatli film (bu yerda, reportaj-filmlar) yaratishga ikki xil yondoshuvni ko'rib chiqaylik. «To'psiz futbol» telefilmida (rejissyor G.Kandelaki va L.Sixarulidze) kamera ko'proq tashqi fabula (voqealar zanjiri)ni kuzatadi, o'yindagi qiziqarli lahzalarni emas, balki to'p traektoriyasini tomoshabinlarga yetkazib berishga harakat qiladi. Boshqa bir kartina («Etot udivitelnyy sport» - «Bu ajoyib sport», rejissyor - I.Belyaev) figurachilarining butunittifoq musobaqalariga bag'ishlangan bo'lib, rejissyor film kompozitsiyasini dramatik asarga o'xshatib tuzgan, asar xuddi pesaga o'xshaydi, unda dramaturgiyaning barcha unsurlari - yechim, kulminatsiya (avj nuqta), katarsis - hammasi mavjud. Kartina ishtirokchilarini - «harakatlanuvchi shaxslar» deb atashlariga hayron qolmasa ham bo'ladi. Musobaqalar mobaynida tomoshabin sportchilarining, murabbiylarning, muxlislarning yuzidagi ifodalarni hayajonlanib kuzatadi.

Shunday qilib, bu xronika bilan hujjatli film o'rtasidagi janrning tashqi belgilariga ko'ra emas, ekran vaqtining davomiyligiga ko'rayam emas, balki muallif g'oyasining yo'naliishiga ko'ra, muallifning inson xarakterini oydinlashtirishiga ko'ra farqlanishidan xabar topamiz.

Dokumentalist (hujjatchi)larning vazifasi – voqealar silsilasini «tiklash»dangina iborat emas, balki asarning mazmuni ichiga kirib borish, ijrochilarining emas, harakatlanuvchi shaxslarning qiyofasini ko'rsatishdan iborat. Mana shunday yondashuvlarda ko'proq publitsistikani ko'ramiz, hayotning badiiy tadqiq qilinayotganini sezib olamiz.

Xronika voqealari haqida insonni chetlab o'tib, xabar beradi. Jurnalist voqealari ichidagi insonni yoritib beradi. Albatta, bu yerda ularning hech birini yaxshi deb oldinga surib bo'lmaydi. Har bir janr o'z vazifasini bajaradi. Kuzatishning ikki xil metodi – informativ (xabar qiluvchi) yoki badiiy-publitsistik kuzatish ham teng huquqli. Hamma gap - xabar muallifining nuqtai nazarida, ya'ni vazifani qanday printsipliga asoslanib yechmoqchi ekanligida.

Xronika janrida ishlovchi mualliflarni ayblab bo'lmaydi. Dziga Vertov xronikal obzor-filmlar yaratib, shuhrat qozondi. Yana buning ustiga «Qadam bos, Sovet!» va «Dunyoning oltidan biri» filmlari ham buyurtma filmlar edi. Ammo rejissyor-islochchi bu filmlarda oddiygina registrator - qayd etuvchi bo'lib qolishni istamadi. U «faktlar simfoniyasi»ni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Uning filmlaridagi kadrda birorta insoniylikdan qaytgan, o'zligini yo'qotgan odam yo'q edi, hamma yuksak mehnat havolaridan nafas olar, jasorat ko'rsatib mehnat qilardi.

Keyinchalik esa, turg'unlik yillarida Stalin davrida rasmiy-anonim xronikalar davrida fikrlashni talab qilmaydigan, jamiyatdagagi noroziliklarni ochib berishga intilmaydigan, hayot qiyinchiliklarini bo'yab ko'rsatadigan hisobot-filmlar, marosim-filmlar paydo bo'ldi. Vertov o'zi yashagan davr va shunga mos bo'lgan asarlarni «taxlam-filmlar» (film-skorosshivatel) deb atagan edi.

Xronika «o'z hududida harakatlanar ekan», dokumentalistika sohasining boshqa yo'naliishlari bilan teng huquqli munosabatlarda bo'ladi. Reportaj-ko'rsatuvi yoki shu ruhdagi kinoda inson faqat «sahna bezagi» rolini o'ynash uchungina tasvirga

olinsa – bunisi yomon, albatta. Axir insoniy munosabatlar, his-tuyg`ular, iztiroblar tasvirining o`rni ekranda tanlab olingen etalon turishlar, g`oz qomatlar, yasama kulgular egallab olgan filmlar; po`lat quyuvchilarning, olimlarning, sportchilarning, sut sog`uvchilar, dehqonlarning risoladagidek kulib tushgan holatlari ko`z-ko`z qilinuvchi filmlar ekrandan-ekranga sakrab o`tib yurishlari ozmunchami?

Dokumental xabarni televizion ekran orqali uzatishning sinxron vositalari faol qo`llanila boshlagandan keyin, «materialni tirik, jonli holatda berish» kuchaydi. Bora-bora rasmiy direktor, studiya vakillarining ahamiyati yo`qolib, endilikda ularning o`rnini sharhlovchilar, intervyu beruvchilar, matn mualliflarining o`zлari egallay boshladilar. Mualliflik sharhlari faollashib, ular direktor (suhandon)lar o`qiydigan quruqdan-quruq matnlar o`rnini ham bosib ketar, buning natijasida dokumentalistika bilan tasvir sub`ekti o`rtasida sun`iy to`sqliar chilparchin bo`lib, ekrandagi haqiqiy voqelikning «tirik aurasi» jonlanib turardi.

Shunday qilib, tomoshabinlar ko`zi oldida film illyustratsiyalarining oldindan o`rnatilgan stilistikasiga darz ketdi, portret-filmlarning ijodiy qabil qilingan dramaturgiyasi - hayotni ekran orqali yoritishning mustaqil ko`rinishi sifatida tasdiqdan o`tdi.

So`nggi o`n yilliklarda yaratilgan televizion dokumentalistika muammolari borasida gap ketar ekan, «montaj qilingan kartinalar» deb nomlanuvchi asarlar masalasi haqida gapirmay o`tish mumkin emas, sababi ular ham dasturlarda kinopublisistikaning bir turi sifatida ko`zga ko`rinarli o`rin egallab kelayotir. Aytgandek, bunday filmlarning yana «kompilyativ-film», «arxiv-film», «xronikal-montaj filmlari» deb ataladigan turlari ham bor. Bu xil yo`nalishdagi filmlarning paydo bo`lishi E.Shubning dastlabki tajribalariga borib taqaladi (uning «Romanovlar sulolasining tugatilishi», «Ulug` yo`l», «Nikolay II ning Rossiyasi va Lev Tolstoy» filmlarini eslaylik). Uning ijodi haqida S.Eyzenshteyn ham yaxshi gaplar aytgan.

Televidenieda arxivlardan olingen lavhalar, filmoteka materiallari badiiy ko`rsatuvlarda, lektsiya va obzorlarni bezashda foydalana boshlandi. Kinoarxiv materiallaridan fragment (parcha)lar turli xil telexabarlar tarkibidan muayyan maqsadlarda qo`llaniladi.

Filmoteka kadrlaridan foydalanish ishlari tobora kengayib, 60-yillarning o`rtasiga kelganda esa saqlov bo`limlaridagi arxiv materiallaridan, plyonka (tasma)lardan foydalanishlar mustahkam o`rin oldi, bunga hatto televizion dasturlar ham murojaat qiladigan bo`lishdi.

Shunday paytlar ham bo`ldiki, «montaj qilingan filmlar»ning qo`llanmagan payti qolmadni, butun boshdan-oyoq arxiv kinomateriallaridan foydalanib ishlab chiqilgan filmlar paydo bo`ldi, ulardagi janr-stilistika bo`yoqlari quyuqlashdi, ular lirika, pafos, ironiya (kinoya), epos kabi turlar va uslublarning elementlaridan foydalanadigan bo`lishdi.

Montaj-publisistika janri sohasida ekranlarga to`lametrajli va hatto ko`pseriyali filmlar ham ekranga chiqa boshladи – «Vatan askarlari» (A.Shtaden), «Katta san`at sahifalari» (V.Shelkanov), «O`rtoq avlodlar!» (I.Belyankin) kabi filmlar – mana shunday asarlardan edi. Turli xil davrlarda suratga olingen kadrlar montaji ularga tirkalgan mualliflik sharhlari bilan omuxta qilinib, o`rab berilardi.

Agar o`zlashtirilgan kadrlar qanchalik eski bo`lsa, ular tarixiy materiallarni tomoshabinlarga «edirish»da shunchalik ahamiyat kasb etardi, bu esa tomoshabinlarning o`ziga ham qiziq tuyular edi. Chala unutilingan, arxiv qatlamlari orasida chang bosib, po`panak bosib ketgan filmlardan olingan materiallar «Yarim asr solnomasi» tasmalarida qayta «tiriltirilib», ikkinchi bor yana obrazli hayotga qaytarilardi.

Evolyutsion o`savotgan telefilm dastlabki o`n yilliklarda informatsion va faktologik ishlardan tortib, to voqelik ko`rinishlarini obrazli badiiy-publisistik aks ettirishgacha bo`lgan yo`lni bosib o`tdi. Albatta, bu jarayon murakkab va dialektiv holatda davom etdi, badiiy janrlarning «oyoqqa turib olishi» - informatsion janrlarga zarar yetkazmadi, aksincha, ularning son jihatdan ham, sifat jihatdan ham rivojlanishi uchun quvvat bo`ldi. 60-yillarda kuzatilgan hujjatli kinotasvirlarning shakliy usullari va metodlari keyinchalik informatsion telefilmlar uchun ham, badiiy-publisistik asarlar uchun ham teng mahsulot beradigan yo`nalishlarga aylandi.

Shuni qo`shimcha qilish mumkinki, publisistik telekinoning shaklan va mazmunan taraqqiy qilishi uning informatsion janrlarida ham, badiiy janrlarda ham o`zgarishlar o`z-o`zicha yuz bermaganini, balki televideenie maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, ehtiyojini qondirish uchun amalga oshirilganini aytib o`tish joiz.

Badiiy telefilmning SSSRdagi «tug`ilishi» 1951 yilda Moskvadagi Maliy teatrning «Pravda xorosha, a schaste luchshe» («Haqiqat yaxshi, baxt esa undan ham a`lo», rejissyor S.Alekseev) film-spektaklini tasvirga olish jarayonida ro`y berdi. Ushbu spektaklning ekranlashtirilgan nusxasini tasvirga olishni so`rab, Markaziy Televideenie M.Gorkiy nomidagi studiyaga buyurtma bergen edi.

Asar teatrtdan jonli, translyatsiya holatida yozib olinganday ishlangan bo`lsa-da, unda sahma harakatlarida adabiy asos saqlanib qoligan. Vaholanki, asar-teatrning bo`m-bo`sh zalida, bitta kamerada ishlangan. Shuning uchun ham tasvirga olish teleuslubda emas, balki kinouslubda – ya`ni, dubl (ikkilamchi, uchlamchi va hokazo) tasvirlar yordamida amalga oshirilgan, so`ngra montaj qilish ishlari o`tkazilgan.

Birinchi film-spektaklning televidenieda namoyish qilinishi tomoshabinlarga ma`qul keldi. TV buyurtmalariga ko`ra, endi turli kinostudiyalarda filmlar ishlab chiqarish faollashdi. TV kanallarida ko`rsatuvalar uzatish soatlari oshgani bois, teatr va kinoasarlarni retranslyatsiya qilish yanada kengayib, katta dasturiy materiallarga ehtiyoj kuchaydi. Natijada, KPSS Markaziy Qo`mitasida soha muammolarini hal etish masalasi muhokama qilindi va shu asosda «Sovet televideniesini yanada rivojlantirish haqida» qaror qabul qilindi.

Televizion kino rejissyorlari dastlabki pallalardayoq kinoekran standartlariga mos keladigan filmlarni tasvirga ola boshladilar. Bu sohada muvaffaqiyatli chiqqan filmlar quyidagilar bo`ldi: «Tungi mehmon» (Yu.Nagibin stsenariysi, rejissyor V.Shredel), «Alvasti» (A.Donatov stsenariysi, rejissyor A.Abramov), «Kuba hikoyasi» (G.Borovik stsenariysi, rejissyor S.Kolosov), «Bexosiyat irim» (A.Yurovskiy stsenariysi, rejissyor N.TroЩenko) va hokazolar.

Ushbu yangi san`at turining o`ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- filmlar qisqa metrajli edi;

- maxsus dramaturgik usullar - tomoshabinlarga murojaat, chiziqli kompozitsiya.
- asarlarning beistisno o'tmisiga qaratilgan bo'lishi;
- dialoglarning ko'pligi;
- tasvir-plastika vositalari yordamidagi ifoda.

Telefilmlarning badiiy kino tomon siljishi - jahonda televidenie sohasida olg'a tashlangan qadam bo'ldi. Eng mashhur kino va teatr arboblari faol ravishda televizion ijodga o'tib ishlay boshlashdi. Qizig'i, kinorejissyorlar ko'pchiligi haligacha telefilmlar qanday qilib tasvirga olinishi haqida tushunchaga ega emasdilar. Turli-tuman retseptlar paydo bo'la boshladi. «Televizion ekran uchun kino ishlaganda, - deydi D.Pontekorvo, - katta shartlilik va haqiqatparastlik bilan tasvirga olish kerak, keyinchalik shular bosh belgilar bo'lib qoladi va kichraytirilganlik hissiyotini bilintirmaydi».<sup>19</sup> Kameraga moslik – telekinoestetikaning yana bir xususiyati. Ye.Kavalerovichning «Kechki taom» («Ujin») filmida oilaviy bo'lib ovqatlanayotganlar orasidagi paydo bo'lgan janjal – asar mazmunini belgilagan.

Televizion ekran uchun badiiy filmlarning yaratilishi teleentalarning, ayniqlsa, zamonaviy mavzudagi teleentalarning mazmunini boyitishda va ular uchun maxsus shakllar izlab topishda ahamiyati katta bo'ldi.

Televidenie bilan adabiyot aloqalari kichik ekran san'atining tetapoya davridayoq boshlangan edi. Ilk ko'rsatuvlarda suxandonlarning adabiy o'qishlari, Irakliy Andronikov, Sergey Yurskiy, Alla Demidovalarning nutqlari, chiqishlari soha rivojida alohida o'rinnegalladi, teletomoshabinlar mumtoz rus adabiyoti namunalari bilan yanada yaqindan tanishdilar.

Endilikda TV teatr, radio, estrada, musiqa san'atlarining tajribalaridan, kashfiyotlaridan keng foydalana boshladi.

Lekin telefilmlarga nasriy asarlar ancha yaqin edi. Romanda, qissada deyarli bo'lib o'tgan voqealar tasvirlanadi. Boshqa san'at turlaridan farqli holda – TV asarları ham vaqt ni tasvirlashga moslashtiriladi, ham bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlab beradi. Bunisi juda muhim. Ushbu kashfiyot kelajakka tomon yo'lni katta qilib ochib berdi, TV uchun ekran asarlarining yangi turini tasdiqladi, bu asarlar asosini dramatik dialog emas, balki nasr, hikoya tashkil etdi.

TV bilan kitoblardagi seriyaviy boshlanmalarning bir-biriga o'xshashligi ham shubha uyg'otmaydi. Masalan, romanning boblarga ajratilishini oling. XIX asr oxirida paydo bo'lgan yevropacha an'analarga ko'ra, romanlar, feletonlar alohida boblarga ajratilgan holda chop etilgan. Mana shu usul bilan televizion seriyaviylik o'rtasida o'xshashlik borligini tadqiqotchilar isbotlaydilar. Bu jihatlardan olib qaraganda, TV seriallar bilan «Ming bir kecha» ertaklari o'rtasida ham o'xshashliklar bor – «Ming bir kecha» ertaklari eng qiziq, avj nuqtaga yetganida uzilib qoladi-da (Shahrizoda ertaklaridagi fantaziyalarni xayolan «hazm qilib» olishda bu xil bo'linishlarning, boblarga ajralishlarning ahamiyati juda katta), birozdan so'ng yana izga tushib, davom etib ketaveradi. Shu o'xshashliklarni boshqacha tushuntirsak, asrlar mobaynida odatda muhim o'rinnegallab kelgan seriyaviylik tamoyili TV estetikasiga mos tushib, XX asr ruhini ifodalashda juda qo'l keldi.

<sup>19</sup> Зорькая Н. Многосерийный фильм. –М.: Искусство, 1976, с.22.

Ko`pseriyali telefilm tajribalari shundan darak beradiki, telefilmlarning tuzilishi ko`proq «uzun roman» tushunchasiga o`xshab ketadi. Telefilmning janr-mavzu jihatlardagi rivojida mumtoz adabiyot asarlari samarali rol o`ynadi, ya`ni telekino rivojidagi bosh yo`nalishlardan biri, uning obrazlilik, stilistik quvvati aynan mumtoz adabiyot namunalaridan foydalanilganligi tufaylidir.

«Ko`pseriyaviylikning ko`payishi, - deb yozadi N.Zorkaya,- TV nazariyachilar va prognoz (bashorat)chilari tomonidan o`ylab ham ko`rilmagan bo`lib, buni qandaydir, bir umumiy jarayonning guvohi sifatida qarash mumkin... Ayni shu hol bizning ko`z oldimizda zangori ekran xususiyatlari haqidagi tushunchalarga tuzatish va aniqlovlardan kiritdi». Muallif yana fikrini davom ettiradi: “Televideniening rivojlanishi televideniega o`zidagi shu paytgacha bir chekkada, soyada qolib kelayotgan salohiyat hamda ichki quvvatlarni anglash va baholash imkonini bag`ishladi, hali, yana kim biladi deysiz, oldinda bizni bu borada qanchadan-qancha kashfiyotlar, kuzatish yoki raddiyalar kutib turgandir? Bizni boshqa bir narsa o`ylantiradi: TV oldida nazariy muammo bo`lib turgan «seriyaviylik» amaliyoti butun dunyo bo`ylab ulkan tajriba to`plab bo`lganda, «seriya»lar soni, turkumlarni yuzlab raqamlardan oshib o`tgandan keyingina «bu masala juda dolzarb ekan!» degan e`tirofga ega bo`ldi”<sup>20</sup>.

Ko`pseriyali filmlar o`zi TVga qay tomonidan kirib keldi- tarixiy mavzularga ergashib keldimi yoki detektiv asarlardagi fabulalarni mayda-chuyda tafsilotlariga qadar, «ushog`iniyam tushirmsandan» teletomoshabinga yetkazish istagi g`olib chiqarmidi? Inglizlarning «Forsaytlar qissasi (sagasi)» yoki Chexovning ekran tiliga ko`chirilgan «Mening hayotim» asarlarini eslaylik...

Mana bunisi esa, V.Deminning e`tirofi: «Mening nazarimda, ko`pseriyaviylik tamoyilining boshqa asl televizion tamoyillari bilan xususan, «dasturiylik» bilan ichki (yaqin) qarindosh ekanligi hal qiluvchi holat bo`ldi».<sup>21</sup>

Bu rost fikr. Turli xil telestudiyalarda suratga olingan, turli turkum ko`rsatuvarlaridan misollar keltirib, bu fikrni davom ettirish mumkin.

Bunaqa misollar O`zbekiston TV ko`rsatuvlari orasida ham ko`plab topiladi, masalan, bir paytlar «Otalar so`zi - aqlning ko`zi» nomli oddiygina bir ko`rsatuva tomoshabinlar orasida shunday keng shuhrat qozonganki, buning sababini bir-ikki so`z bilangina tushuntirish qiyin. Bora-bora bu o`ziga xos ko`rsatuva teleturkum-serialga aylandi.

Litva televideniesi ekranga chiqa boshlagan «Petryatislardan oilasi» nomli turkum filmlar ham oldin oddiygina ko`rsatuva shaklida boshlangan edi, keyinchalik bu ko`rsatuva ertasi kuni takrorlanadigan bo`ldi, maslahat beradigan yaxshi «oilaviy advokat» rolini o`ynay boshladi, davra atrofidagi suhbatlar ko`plab kechalarga cho`ziladigan bo`ldi, tomoshabinlarning ishonchini qozondi, ko`rsatuva saviyasi badiiy-jurnalistik nuqtai nazardan judayam yuqori darajada deb bo`lmasa ham, har holda bitta maqsadli yo`nalishda davom etib, muvaffaqiyat qozondi.

Yana bitta muvaffaqiyatli, sinov janglariga o`xshash tajriba to`plash uchun foydali, keljakdagi mo`l hosildan darak beruvchi bo`liq don urug`lariday ko`zni

<sup>20</sup> Зорьская Н. Многосерийный фильм. –М.: Искусство, 1976, с.22.

<sup>21</sup> Дёмин В. Многосерийный фильм . –М.: Искусство, 1976. с.7.

quvontiruvchi filmlardan biri – Riga TV sida ekranga chiqa boshlagan «Ko`cha boshida» turkumi bo`ldi (rejissyor Ivar Seletskis). Kartina yil davomida sur`atga olindi va uning ko`plab belgilari «ko`pseriyaviylik» belgisiga o`xshab chiqayotgan edi.

Shu kunlarda TVni - oyoqqa turish va rivojlanish, beto`xtov ijodiy izlanishlar va yutuqlar qozonida o`ynayotgan shiddatli jarayonga o`xshatish mumkin. Telefilmni hamon yangi paydo bo`layotgan san`at deb qarashga urinadigan tanqidchilar munozara qo`zg`ab, telefilm imkoniyatlari va xususiyatlari borasida telefilmchilarga o`rgatib qo`ymoqchi bo`lishadi. Yoki bo`lmasa yana avvalgidek kino va TVning o`zaro munosabatlarini ko`tarib chiqib, birgalikda hal qilmoqchi bo`ladi, ba`zan esa ikkala san`at turini alohida-alohida ajratib, muhokama boshlamoqchi bo`lishadi. Ular bu borada telemualliflarning kino san`ati tajribalaridan barakali foydalanilayotgani, ayni paytda TVning o`zida mavjud bo`lgan amaliy tajribalardan kamroq foydalanayotganlarini bahona qilmoqchi bo`ladilar.

TV va uning turli-tuman va ko`psonli ijodiy bo`limlarining zamonaviy tajribalari televizion asarlarning ifoda qudrati uchun muvaffaqiyat qozonish sabablarini, talabgirligini allaqachonoq aniqlagan va tasdiq etgan. Agar butun dunyoda yuzlab va minglab telefilmlar ekranlarini zabit qilib, boshqa an`anaviy san`at turlarini bir chekkaga surib chiqarib, o`zining talablarini namoyon etgan holda, odamlar hayotiga bostirib kirib bordi. Xo`s, zamonamizning ushbu fenomenal hodisasi televidenieda yana qancha vaqtgacha o`zining hukmini o`tkazib turarkan? Bu san`at turi insoniyatga yana nimalarni tuhfa etmoqchi? U bundan keyin ham ijodiy o`zgarishlar dunyoga kelishi uchun o`zining yangi-yangi salohiyatlarini namoyon eta oladimi? Va nihoyat, telefilmlar xalqlarning milliy xarakterini shakllantirishda qanday rol o`ynamoqda – bu xil savollarning hammasiga javob izlab, bular haqida munozaralar uyushtirib turish lozim. Negaki, insoniyatning bundan buyongi tarixi, hayoti, turmush tarzi qay yo`nalishda kechishini belgilash uchun buning ahamiyati juda katta.

Masalaning xuddi shu tarzda qo`yilishi san`atning insoniyat tarixi va hayotidagi ahamiyatining yangi-yangi qirralarini ochib berishga sabab bo`ladi, deb o`ylaymiz. Teleseriallarning inson turmush tarziga bu qadar chuqur kirib borishi, singib ketishi – ijtimoiy taraqqiyot uchun, axloq uchun qanday rol o`ynaydi? Axir bugungi matbuot sahifalarini sal varaqlab ko`ring, «inson hayoti, quvonchu tashvishlari faqat seriallardan iborat bo`lib qolganmi?» degan savol darhol xayolingizni o`rab oladi. Gazetachilar ham biri olib, biri qo`yib, faqat serialarni maqtash bilan ovora! Maqolalar mazmuni ham faqat shulardan iborat: «Bugungi kunda ekranlarda faqat serialarga hukmronlik qilishga haqli!» Tugmachalarni salgina bossangiz, serial namoyishiga ko`zingiz tushadi - kim kimnidir tashlab ketgan... Yana bular shu kunning o`zida hal bo`lib qo`ya qolmaydi - voqealar davomi keyingi seriyalarga, keyingi seriyalarga.... to`xtovsiz ko`chib boraveradi. Buni endi «ko`pseriyali kasallik» deb nomlash to`g`riroq bo`lar balki?

Bir gazeta seriallar haqida munozarali davra suhbati uyushtirib, shunday deb sarlavha qo`yibdi: «Hayotimiz nimalardan iborat - seriallardan!».

Uchinchi bir maqolani o`qiymiz: «Xalq seriallarga o`rganib qoldi, televizor oldida o`tirib serial ko`rgani-ko`rgan, xuddi yelimlanib, yopishib qolganga o`xshaydi...»

Haqiqatan, ham shunaqa bo`lyaptimi? Xalq xuddi bangi-giyohvandlarga o`xshab, «serial» degan kasallikka yo`liqdimi? Bu ketishda oqibati nima bo`ladi?

Balki bir paytlar «televidenie» degan kasallikdan ogohlantirgan bashoratchilarning bashorati endi rost chiqayotganmikan? Axir bir paytlar (70-80 yillarda taniqli olim R.Ilin hozircha telefilmlar to`la darajada mustaqillikka erishmadi, agar ular ham kinofilm singari katta ekranlarga sakrab chiqib ketishsa bormi?» - deya ogohlantirgan edi-ku!

Albatta, bashorat-bashorat yo`liga, ammo seriallar to`g`risida jiddiyroq o`ylab ko`radigan vaqt yetdi. Telefilmlar resurslari kinonikidan kam emas-da. «Kino tili, - deb yozadi D.Linch, syujet yoki so`zdan ham ko`proq gapiradi»<sup>22</sup>. Baribir bu borada TVning imkoniyatlari, salohiyati juda ulkan. Demak, telefilmlar haqidagi munozaralar ham hali davom etadi...

Keyingi yillarda Rossiya va boshqa mamlakatlarning teleekranlarida paydo bo`lgan asarlar sifati kelajakda bu san`at turi tarbiya va axloqda, insoniyat turmush ikir-chikirlaridan forig` bo`lib olishida ham ahamiyat kasb etishiga umid bog`lamoqda. «Qonun», «Arbat bolalari», «Usta va Margarita», «Kursantlar», «Turk gambiti» kabi eng yaxshi telefilmlar bu borada umid paydo bo`lishiga asos yaratadi, yeb o`ylaymiz. Bu borada keyingi paytlarda «O`zbekteofilm» studiyasida yaratilgan «Charxpalak», «Lafz», «Zanjir», «Bog`», «Imon» singari asarlar ham kinomahsulotlarning «zangori ekran» uchun naqadar ahamiyatli ekanligini ko`rsatmoqda.

---

<sup>22</sup> Линг Д. //А и Ф. №34. 2006.

**IKKINChI BOB.  
HUJJATLI TELEKINO TARAQQIYOTI  
1. FAKTLARDAN – OBRAZLARGA**

Mamlakat ijtimoiy hayotida televideniening ahamiyati orta borishi, uning kelajagiga va kamolotiga bildirilayotgan umid, televideniening axborot-ma'rifiy vazifalari 1960 yillardan boshlab sohaga davlat tomonidan e'tibor yanada kuchayishi lozimligini taqozo etdi. KPSS MK «Sovet televideniesini yanada rivojlantirish haqida»gi Qarori mamlakatda soha rivojining yanada yuksalishi, mamlakat hududida TVning tarqalishi yanada kengayishida, televideniening texnika va kadrlar bilan ta'minotini yaxshilashda katta rol o'ynadi. Partiya rahbariyati markaziy va tahliliy hukumat zimmasiga yangi telestudiylar tashkil etish va qurish, ularni zamonaviy asbob-uskunalar, apparatura, magnit lentalari va pylonka bilan ta'minlashni yukladi.

TVdagi mana shunday qayta qurishlar, hududiy studiyalarda ko'rsatuvlardan hajmining muntazam ortib borishi, studiyalarning zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashni ta'minlash borasida 1969 yilning 2 oktyabridan boshlab Toshkentdagidagi respublika televideniesining kino ishlab chiqarish Bosh tahririyatida «O'zbektelefilm» studiyasi tashkil qilindi (aslida televizion filmlar 1961 yildan tasvirga olina boshlangan edi – ushbu kitobning oxirida berilgan filmografiya ro'yxatiga qarang).

Mahalliy telestudiylarning o'z imkoniyatlari mustahkamlanib va kengayib borgani sayin, ularning Markaziy televideniega bog'liqligi susaya bordi, natijada esa mahalliy xodimlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kichik ekran uchun asarlar yaratishda davom etdilar. Bu esa, mahalliy studiyalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga, endilikda ular turli-tuman shakl va janrlarda, hujjatli kinodan tortib, to badiiy lentalargacha ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar.

Ko'psonli, ma'lum ma'noda mustaqil ham bo'lgan respublika miyosida ishlangan filmlarning zangori ekranga yo'l olishi ham deyarli qiyinchiliklarsiz amalgalashdi. Mahalliy telestudiylarni ko'paytirish haqida qarorlar chiqib, shoshapisha ishga kirishilgan paytda esa, muammoning boshqa bir chigal tomoni paydo bo'ldi - qarang, bu studiyalarda ishlaydigan malakali xodimlarni qaerdan olish mumkin? Axir televizion texnika tilini tushunadigan, telefilmlarga rosmana badiiy film ko'rkini bag'ishlaydigan, qolaversa, oddiy matnlarni tahrir qilib, uni aktyorlar ongiga, tiliga va diliiga yetkazish masalalari bor...

Ko'pgina telekinostudiylar jamoasi yosh va tajribasiz xodimlardan - sobiq jurnalistlardan, kinematografchilardan, VGIK (Vsесоyuзnyiy Gosudarstvennyiy Institut Kinematografii), teatr institutlarini tamomlagan yigit-qizlardan iborat edi. Ularda hali tajriba ham, malaka ham yetishmas, ammo yangi san'atda nimalardir yaratish ishtyoqi, tashabbus, izlanish ruhi kuchli edi.

Telefilmlarning boy imkoniyatlarini birinchilardan bo'lib, kinojournalistlar namoyon qila boshladilar. Reportaj, ocherk, voqeа joyidan to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya kabi televizion ijodkorlikda ko'p narsalarni va'da qiladigan janrlar mavjudligi ma'lum bo'ldi.

60-yillarning o'rtalaridan boshlab, Markaziy Televideniening deyarli barcha tahririyatlari – adabiy-dramatik, musiqiy, kinodasturlar va xalq ijodiyoti, bolalar va yoshlar ko'rsatuvlari tahririyatlari publitsistik ko'rsatuvlarga faol murojaat qila boshladilar. V.Sappakning televideniening ijodiy tabiatи asosida dokumentalizm mavjud bo'lishi haqidagi fikrlari («ishonchlilikning yangi sifati») televizion axborotning muntazam amaliyotida o'z tasdig'ini topdi.

Hammaga ma'lumki, hujjatli kino – bir vaqtning o'zida ham ob'ektiv, ham sub'ektiv san'at turi hisoblanadi. San'at hayotdan nimaniki olsa, hujjatli kino ham mana shu olinmish narsalarni barchasini o'zida aks ettira oladi. Bu yerda inson xulq-atvorining tasviri ham, portret-film estetikasi ham, «sinxron voqelik» va «tilga kirgan tarix», teleserillar dramaturgiysi va hayotiy qahramonlar, amaliy psixologiya va «ataylab uyuştiriladigan» vaziyatlardagi dokumental rejissura masalalari ham nazardan o'tadi.<sup>23</sup>

Badiiy ijodning barcha qatlamlarini qamrab olgan dokumentalistika ana shu qatlamlarning barchasiga ta'sir qilishi - qonuniylik kasb etdi. Oltmishinchı yillarda ijtimoiy hayotda paydo bo'lgan yangi ishonch va umid ruhi ekranga ham kirib borgan edi. Yana Vertov g'oyalarini eslab qolishdi. Zamona viy yo'nalişlar, yangi metod va janrlar, dokumental estetika tamoyillari asosida tasvirga olingan yangi filmlar paydo bo'ldi. Yangi-yangi, iste'dodli mualliflarning nomlari butun Ittifoqda, jahonda e'tirof etila boshlandi. Bularning barchasi «televizion ijodkorlik» degan tushuncha ma'nomohiyatini kengaytirib yubordi.

Dokumental (hujjatli) filmlarni qanday tasvirga olish zarurligi haqida qizg'in munozaralar bo'lib turardi. Masalan, dokumental telefilm janrlari orasida bosh yo'nalişlardan bo'lgan reportaj-ko'rsatuvni tasvirga olish metodlari borasida ana shunday bahslar bo'lib o'tdi. Bular - «Ko'rsatuv tayyorlash jarayonida instsenirovka (sahnalashtirish) unsurlaridan foydalanish kerakmi, yo'qmi?», «Personajlar kamera oldida rol o'ynashlariga ruxsat berish kerakmi, yo'qmi?», «Balki yashirin kamera usullaridan foydalanib ko'rilar?» va hokazo mavzularda edi. Imitatsiya - kinohujjatchining dushmani. Yana Dziga Vertov an'analari esga olindi, ushbu mavzu bo'yicha uning tajribalari – filmni «sahnalashtirish» tamoyillari kinokuzatuvlarga asoslangan «hujjatli obraz» tushunchasi haqidagi bahs-munozaralarda bosh argument bo'lib xizmat qiladi.

Quruq ritorika (nutq, gap)dan iborat chiqishlar ham bo'lib turardi. Masalan, taniqli rejissyor A.Simonovning ta'kidlashicha, «...televizion kino o'zigagina qarindosh bo'lgan janrlarning faqat ikkitasinigina yaratdi, xolos, bular - ko'pseriyali telefilm va film-kontsert janrlari».

Muallif televizion kino-kontsertlarning azaldan mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Bunga o'xhash gaplarni televizion kinoning boshqa janrlari muxlislari ham aytishlari mumkin.

1965 yilda Moskvada bo'lib o'tgan IV Xalqaro kinofestivalda «Murakkab sharoitlarda kinotasvirga olish» mavzusida simpozium o'tkazilib, unda turli mamlakatlarda «to'g'ridan-to'g'ri kino» tajribalarini umumlashtirgan holda o'rGANISHGA birinchi marotaba urinib ko'rildi. Ushbu forumning ko'pgina tezis

<sup>23</sup> Муратов С. Пристрастная камера. –М.: 2004. с.1.

(mundarijasi)lari zamon ruhiyatiga, butun jahon kinodokumentalistikasining yetakchi tamoyillariga mos kelardi.

Dokumentalistika (hujjatli kino)ning yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi – bir tomondan, zamonaviy, texnikaning va suratga olish metodlarining yangi ekanligi tufayli ro'y berayotgani, ikkinchi tomondan esa, ular muayyan ijtimoiy jarayonlar asosida tayyorlanayotganligi ta'kidlandi. Angliyadagi «Erkin kino», Amerikadagi «Nyu-York maktabi» Frantsiyadagi «Yangi to'lqin» guruhlari G'arbdagi belletrizatsiyalashgan tijorat san'ati bilan raqobatlasha boshladi. Shu bilan birga, sovet hujjatli filmlaridagi ko'psonli topilma-yangiliklar, Xrushchyov davridagi ilmiliqlik, kinoijodkorlarning sotsialistik realizm deb nomlanadigan ijodiy metodlarining bir qolipdagi shtamp va dogmalari (aqida)ga qarshi kurashlari ayni o'sha paytda bo'lib o'tdi.

Dokumental kinoda muallifning maqsad-niyatlarini, dunyoqarashlarini ifodalash mumkin emas, degan fikr barham topdi, bu ishning mumkin ekanligi, hattoki shunday qilinmasa, hujjatli kinoning mazmuni ochilmay qolishi haqidagi fikrning to'g'riliqi yanada muayyanlashdi. Binobarin, hujjatli kino deganlari – faktlarning «to'satdan kelib qolgan oqimidan» iborat emas, balki bu kino san'atida ham materiallar va personajlar oldindan saralanadi va ular kimlarningdir ma'lum dunyoqarashlarini, falsafa va tushunchalarini ifodalaydi.

Voqelik bilan bevosita aloqa haqida amaliyotda va nazariya doirasida paydo bo'ladigan bahslar, muallifni aralashtirmsandoq faktlarga o'rin bo'shatib berish yoki ekrandagi voqealarni o'zining maqsad-niyatlariga moslab interpretatsiyalovchi sharhlarni filmga kiritish usullari ham munozaralardan chetda qolmasdi. Aytaylik, stsenariychi K.Slatin disskusiyalarda «umumlashtirish»ni yoqlab gapirsa, rejissyor I.Belyaev «faqat ko'zlaringga ishon!» degan shiorni dastak qilib olardi.

“Shuni komil ishonch bilan ayta olamanki, - deb yozadi rejissyor I.Belyaev,- telefilm san'atning qaysi turida yoki qaysi janrda yaratilishidan qat'iy nazar, tomoshabin uni xuddi jonli ko'rsatuvni ko'rganday qiziqish bilan tomosha qilishi kerak... Telefilmni yaratuvchi barcha ijodiy xodimlar kinokamerani – ishlab chiqarish vositasi deb tushunmoqlari lozim, xolos.”

Ushbu ta'kidlarning uzil-kesilligiga qaramay, ularni butunlay to'g'ri deb bo'lmaydi. Keyinroq borib, muallifning fikridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tomoshabin uchun kinoning tashqi tuzilishi qanchalik jozibali rol o'ynasa, ichki tuzilishi ham shunchalik jozibalik, ya'ni voqealarni bo'layotgan paytda «hozir bo'lib turishining» o'zigma yetarli emas, balki ishonchlilik effekti ham ta'sir ko'rsatib turishi lozim...

60-70 yillarda yaratilgan ko'pgina muvaffaqiyatli publisistik asarlarni kuzatib turib, bunga ishonch hosil qilish mumkin. I.Belyaevning «Saxalin kundaligi», A.Gabrilovichning «Alfa va Omega», O.Gavasaliya va A.Stefanovichlarning «Hammasi – mening farzandlarim» kabi kartinalari – ana shunday asarlardan hisoblanadi. Bu asarlarda mualliflar «jonli ko'rsatuv»ning bir qancha tashqi belgilaridan foydalanilgan holda voqelikni tasodifan paydo bo'ladigan ko'rinishlar orqali emas, balki chuqur mushohada qilingan va obrazli qilib o'ylangan ko'rinishlar orqali ochib beradilar.

O'z filmida qahramoni bilan bevosita muloqotga kirisha oladigan, qahramonning o'ziga xos xulq-atvorini kamera oldidagi xatti-harakatlari orqali ham ko'rsatib bera oladigan rejissyor auditoriyaga o'ta muhim va zaruriy tarzda ta'sir ko'rsatadigan faktik hujjatning obrazli qudratiga ko'tarilib bordi. Bunday kuchli ta'sirga ega bo'lgan iste'dodli rejissyorning qobiliyati, siri shundaki – u shaxslarning ichki dunyosini yorita oladi, tasvirga olish lahzalarida personajlarning o'ylagan o'yisi, tafakkurini qayd etadi, tasmaga tushiradi va emotsiyalarini bevosita lentaga ko'chirib biladi.

Bunday ijodiy uslubni O'zbekiston televideniesi ijodkorlarnining ish faoliyatida ham uchratish mumkin. 1961 yilda rejissyor Mahkam Muhamedov Toshkentda birinchi o'zbek badiiy telefilmi - «Azizaxon»ni yaratdi (stsenariy muallifi Jonrid Abdullaxonov, operator F.Olimov). 60-yillardan boshlab, respublika teleekranlariga G'iyos Shermuhamedovning «Yigirma besh asrlik shahar» (Samarqand haqida) filmi, rejissyor Ubay Burhonovning «Laylo Sharipova kuylaydi» filmi, muallif Farid Rashidov va rejissyor Hojimurod Ibrohimovlarning «Zamindagi iz» filmi, rejissyor Fayzulla Xo'jaev, operator Fotis Matsakaslarning «Toshkent, Xlebushkinaga» filmi va hokazo asarlarini sanab o'tishimiz mumkin. Ushbu filmlar rejissyor va boshqa ijodkorlarning o'ziga xosligi, ishga mas'uliyat bilan yondashishi, telepublisistik usullar orqali hayotni dadil va chuqur tahlil etishlari bilan teletomoshabinlar e'tiborini qozondilar.

Ijodiy resurslar arsenali yildan-yilga ortib bordi. To'plangan tajriba va malakadan samarali foydalanish, plastik tasvir va so'z qudratining kuchi filmlarning ta'sirliligini oshirdi, mazmun-mohiyatining kengayishiga imkon yaratdi. Shu kabi yangiliklarning bari – dokumentalistika vositalarining kuchli ta'siri ostida muvaffaqiyat bilan o'tayotgan eksperimentlar, o'zbek telefilmlarinig ilk qadamlaridan boshlab hamrohlik qildi va bu borada boy tajribalar to'planishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratdi. Shu o'rinda studiya xodimlari qanday sharoitlarda mehnat qilganliklarini eslab ketish kerak, deb o'ylaymiz. Dokumental kino xodimlari o'z-o'zidan nafasga tiqilganday og'ir sharoitlarda ishlar, ularning to'laqonli va erkin mehnat qilishlari uchun sharoit ham yo'q, erkin mavzulardagi ish ko'pam rag'batlantirilavermasdi, sababi bu soha mamlakat mafkurasiga xizmat qilishi shart edi. Shunday g'ov-to'siqlar va noqulayliklarga qaramasdan, «O'zbektelefilm» studiyasining hujjatli kinochilari bo'lib o'tayotgan voqealar dialektikasini yorqin aks ettirish yo'lini topish uchun tinimsiz izlandilar.

Vaqt o'tgani sayin televizion kino rivojlanib borardi. 1970 yilda studiya tashkil etish haqidagi mashhur qarordan keyin, studiya mahsulot ishlab chiqarishga butun kuch-g'ayratini bag'ishlagan holda kirishdilar. O'z davri uchun ilg'or va zamonaviy bo'lgan texnika vositalari bilan ta'minlangan studiya dastlabki ish kunlaridan boshlab turli xil janr va mavzular tevaragidagi ko'psonli ishlar bilan qizg'in faoliyat boshladi.

Ishlarning tezkorlik, shiddat, oqilona boshlanishining yana bir sababi bor edi - boshqa respublikalardagi shu kabi studiyalardan farqli o'laroq, «O'zbektelefilm» studiyasi o'z ishini sevadigan, ijodiy qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, izlanuvchan va bilimdon xodimlardan iborat holda ish boshladi. Jamoada ishlagan rejissyorlardan:

Ubay Burhonov, Bobo Xo'jaev, Armug'on Muhamedov, Mahkam Muhamedov, G'iyos Shermuhamedov, Viktoriya Raykova, Aydar Ibrohimov, Muzaffar Asadullaev, Leonard Boboxonov, Fayzulla Xo'jaev, Abror Qosimov, Erkin Ahmedov, Larisa Inozemtseva, Hojimurod Ibrohimov, Toshxo'ja Akramov, Anvar Yoqubov, Shavkat Junaydullaev, Saidbotir Ahmadxo'jaev, Bahodir Ahmedov, Rustam Shermatov, Valeriy Leshtaev, Ravshan O'tkirov, Shuhrat Bizaatov, Temur Ahmadxo'jaev, Shuhrat Xo'jaev, G'afur Boboev, keyinchalik ularning safiga qo'shilganlar: Nizomiy Mahmudov, Irkin Mirzaev, Sanjar Boboev, Nuriddin Qosimov, Ergash Normurodov, Lyudmila Garmash, Rafael Xayrutdinov, operatorlardan: Po'lat Rasulov, Feruz Olimov, Karim Maqsudxo'jaev, Vladimir Shurigin, Abdusattor Dalaboev, Mirzohid Hamidov, Abdurahim Ismoilov, Mirsobit Salimov, Vays Lyondis, Kim Gim Nyan, Oleg Yusupov, Nikolay Gerasimov, Fotis Matsakas, Vladimir Panov, Ne'mat Inog'omov, Qo'ysin Ro'zimatov, Valeriy Shugaev, Nuriddin Ziyomuhamedov, Abdujalil Vahobov, To'lqin Sodiqov, Akmal Umarbekov, Rustevan Islomov, Marat Soliev, Anvar Avazxo'jaev, Davron Abdullaev, Bahodir Narzullaev, Abduhakim Qoriev, Botir Gadoyboev, Rifkat Ibrohimov, ulardan keyin kelgan: Qo'chqor Karimov, Rustam Hakimov, Vitaliy Xudyakov, Mirvohid Hamidov, Alisher Usmonov, Zoir Hamidovlarning nomlarini ko'rsatish mumkin. Iqtidorli shogirdlarimdan biri Andrey Afrin shu kunlarda «Gyote na Sharq» mavzuida ajoyib hujjatlari film yaratdi. O'ylaymanki, kelajak endi ishchonchli qo'llarda...

Studiya faoliyat ko'rsata boshlagan ilk kunlardan ijodiy muharrirlik qilgan Farid Rashidov, Olga Xmelnitskaya, G'ani Rasulov, Albert Gudin, Aleksandr Jukov, Vitaliy Mirazimovlarning nomini tilga olish mumkin.

VGIKni tamomlab kelgan yosh mutaxassislar - Abdusattor Dalaboev, Shavkat Junaydullaev, Saidbotir Ahmadxo'jaev, Oleg Yusupov, Kim Gim Nyan, Nikolay Gerasimov, Marat Soliev, Qo'chqor Karimovlarning navqiron ijod yo'llari shu studiyada boshlangan bo'lsa, yana bir qator yoshlar: Leonard Boboxonov, Hojimurod Ibrohimov, Toshxo'ja Akramov, Abror Qosimov, Erkin Ahmedov, Bahodir Ahmedov, Shuhrat Bizaatov, Ravshan O'tkirov, Temur Ahmadxo'jaevlar Toshkentdag'i A.N.Ostrovskiy nomli teatr-rassomchilik instituti auditoriyalaridan chiqib kelgan edilar.

Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, yangi studiyaga ishga kelganlar kasbiy malakalaridan tashqari, bilim va tajriba jihatdan, faollik va intilish, mas'uliyat jihatdan, iste'dodlarini tezroq namoyon etish jihatdan ham ajralib turardilar. Ana shu yoshlik shijoati, ijodiy kengliklar, tezroq o'zligini topish, o'z ijro uslubiga ega bo'lish uchun qator-qator asarlarni ekranga uzatdilar va tez orada tomoshabinlar nazariga tushdilar.

Film ekranga yo'l olib, studiya jamoasi o'zining kuch-g'ayratini yetarli darajada namoyon qila olgani bilan, ammo yaratilayotgan mahsulotlarning hammasiniyam hali yangi san'at talablariga to'la javob bera oladi, deb aytish qiyin edi. Televizion uslub yaratish, kino tilining o'ziga xosliklarini egallash uchun hali ancha-muncha vaqt talab qilinar, tasvirga olish usullaridan tortib, kadrlarni montaj

qilish, ekrandagi har lavhaning mohiyatini to`g`ri idrok qilgan holda, payti kelganda yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklardan ham tajriba orttirish yo`lida foydalanar edilar.

O`sha ilk kunlarda, undan keyingi davrlarda ham, studiya xodimlari kamolot cho`qqilari sari qadam qo`yanlarida, milliy televidenie kadrlari orasida kino san`atidan o`tib kelgan iste`dodlar ham bor edi. Ularning nomlarini titrlarda o`qib, tomoshabinlar uchun tanish bo`lib qolgan muhtaram san`atkorlarni tilga olib o`taylik: Malik Qayumov, Latif Fayziev, Ali Hamroev, Elyor Eshmuhamedov, Miron Penson, Habibulla Fayziev, Eduard Xachaturov, Muxtor Og`amirzaev, Farid Davletshin, Rifkat Ibrohimov, Rinat Galeev, Sulton Mirzaahmedov, Aliasqar Fatxulin, Temur Qayumov, Tal`at Mansurov, Muzrob Boymuhamedov.

Shuningdek, adib, shoir va stsenariychilar: Turob To`la, Odil Yoqubov, Shukrullo, Andrey Bitov, Xudoyberdi To`xtaboev, Tohir Malik, Farhod Musajon, Ramz Bobojon, Shoyim Bo`taev, Xayriddin Sulton, Abdusaid Ko`chimov, Xurshid Davron, Anvar Obidjon, Nazar Eshonqul, Sharof Boshbekov, Miraziz A`zam, Mirzapo`lat Toshpo`latov, Erkin Usmonov, Nabijon Boqiy, Erkin Xushvaqtov, Salohiddin Sirojiddinov, Muhammad Ismoil, G`ayrat Rahmatullaev, Dmitriy Bulgakov, Eduard Dubrovskiy, Grigoriy Dimov, Yo`ldosh Muqimov, Nikolay Klado, Ra`no Solihova, Adham Akbarov, Anatoliy Anichkin, Jo`ra Teshaboev, Rihsivoy Muhammadjonov, Mahmud To`ychiev, To`lqin Obidov, Gennadiy Gurkov, Xayrulla Jo`raev, Alisher Shog`ulomov, Jasur Ishoqov, Yusuf Roziqov, Dmitriy Uzilevskiy. Ular «O`zbektelefilm» studiyasida ishlab yurib, milliy televizion filmlarning barkamol va sermazmun chiqishi uchun xizmatlarini, iste`dodlarini ayamasdan xizmat qilib keldilar.

Rejissyor Eduard Xachaturov, operator Miron Pensonlar suratga olgan «S`yomka maydonidan reportaj» filmini eslaylik. Uch qism qilib ishlangan ushbu film Komil Yormatovning yorqin hamda kurashlarga boy rejissyorlik faoliyati haqida bo`lib, kino san`ati sohasida shuhrat qozongan taniqli kinorejissyorning shaxs sifatida, ijodkor sifatidagi taqdiri ochib berilgan. «Reportaj» filmida asar ijodkorlari Yormatov yaratgan asarlardan kadrlar, sur`at va tasvirlardan keng foydalangan bo`lsalar, ijodkor shaxsi asar mavzusi qilib olingan yana bir yorqin asar – Elyor Eshmuhamedov haqidagi «Tanish siymo» nomli badiiy telefilmda (1972 yil, rejissyor S.Ahmadxo`jaev, stsenariy muallifi E.Eshmuhamedov) «Nafosat» hamda «Sevishganlar» asarlaridagi lirik novellalar, taniqli rejissyorning boshqa asarlaridan tanlangan parchalar orqali ijodkorning san`at laboratoriysi sirlaridan voqif bo`lamiz.

«O`zbektelefilm» studiyasining o`sha yillardagi faoliyati haqida gap ketar ekan, bu paytlarda ishlarimizdagи faoliyat Butunitifoq TVda, mamlakatimizda, shuningdek, chet ellardagi turli-tuman jarayonlarni birma-bir yodga olib o`tish lozim bo`ladi. Milliy kinomiz erishgan xalqaro ahamiyatli yutuqlar telefilmlar endigma o`ziga yo`l ochib kelayotgan dastlabki yillardayoq yuz bera boshlagani ham bejiz emas. Butunitifoq TV ixlosmandlari o`sha yillarda «Jeyn Eyr», «Forsaytlar haqida saga», «Bahorning o`n yetti lahzasi», «Sarson-sargardonlikda», «Katta o`zgarishlar», «Inqilob nomi bilan» kabi seriallarni tomosha qilgan edi. Markaziy TV kanallarida namoyish etilayotgan filmlar, shubhasiz, ittifoq bo`ylab saralab olingan eng yaxshi ko`p seriyali filmlar bo`lib, ular hatto chet ellarda ham shuhrat topib ketishiga umid

katta edi. Respublikamizda taniqli kinorejissyor Shuhrat Abbosovning TV uchun yaratgan inqilobiy ruhdagi «Olovli yo'llar» seriali ham o'sha paytlarda Markaziy Televidenie orqali namoyish qilingan edi.

Shubhasiz, bu kabi ulkan muvaffaqiyatli odimlar, yoshlik g'ayrati va iste'dodlar tafakkuridan tug'iladigan jiddiy asarlar xodimlarni yanada ilhom bilan ishslashga, yaxshi-yaxshi asarlar, xalqqa ma'qul keladigan zamonaviy kartinalar yaratishga undamog'i tabiiy. Albatta, ularning hammalarining sifati-saviyясини yuqori darajada deb bo'lmasdi. Ora-orada zangori ekranga berishga ko'z qiymaydigan, zaif, hali yetilmagan lavhalarga boy bo'lgan asarlar ham uchrab turardi.

Kamolot pillapoyasi bo'ylab ko'tarilayotgan studiyada mualliflardan yordamlarini ayamasdan, ularning malaka oshirishlariga, o'z salohiyatlarini tezroq namoyish etishlariga ko'maklashadigan xodim, tajribali mutaxassislar bo'lishi – nur ustiga nur. Faoliyatini katta kinoda boshlab, keyinchalik televidenieda muvaffaqiyatli davom ettirgan Olga Xmelnitskaya – kino ishlarining mohir bilimdoni edi. Farid Rashidov, G'ani Rasulov, Ra'no Solihova, Vitaliy Mirazimov, Maryam Xo'jaevalar studiyada ishlab, ham hurmat-e'tibor qozondilar, ham yoshlarga har tomonlama o'rnak ko'rsatib mehnat qilishga muvaffaq bo'ldilar. O'z hamkasblarining taqdirida, ularning kino olamini sevib qolishlari uchun jon kuydirib yuradigan insonlardan biri – kino rejissyor Fayzulla Xo'jaev edi. U o'z ishiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadigan, o'zbek kino san'atiga, TV faoliyatiga biror-bir yangilik kiritishga urinadigan mutaxassis, tirishqoq inson edi. Uning «Urush eshik qoqqanda», «Mening yerim – mening taqdirim» kabi kinoasarlari respublikada telekino sohasi tezda oyoqqa turib olishida katta rol o'ynadi.

O'zbek kino yaratuvchilarining ilk tetapoya yillarida ekranlarga chiqqan teleasarlari orasida ham hali zaifligi sezilib turadigan, tajribasizlik nuqsonlari ko'rniib turgan asarlar anchagina bo'lib, keyinchalik tajriba va malakaga ega bo'lganlari sayin, ma'no va mavzuga oid izlanishlar, shaxsning hayotiy faoliyatidagi, taqdiridagi chiziqlar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar, kechinmalar tasviri asarlardan o'rin ola boshladi.

«San'atda ham, televidenieda bosh mavzu – inson. Shuning uchun ham, rejissyor va operatorlarning faqatgina insonni maqsad qilib olganlari, kameraning ifoda qudrati - ta'sir kuchiga ega bo'ldi», - deb yozadi kinorejissyor Vladimir Basov.

Studiya xodimlari o'sha paytlarda sovet matbuotini egallashiga xavfsirashar, ammo nima bo'lganda ham davr nafasini ifodalaydigan pafossiz biron-bir asar yaratish oson ish emasdi. Xuddi boshqa hamma studiyalarga topshirilgani kabi, «O'zbektelefilm» studiyasi ham davlat tomonidan topshiriladigan buyurtmalar asosida ishslashga majbur edi. Davlat buyurtmasi – birinchi navbatda bajarilishi shart bo'lgan ish, joriy xronika uchun, yangiliklar kanali, solnomalar uchun zarur bo'lgan o'ziga xos ruxsatnoma edi. Haqiqatparvar bo'lish talabi ayniqsa, televideniega, qisman telefilmlarga tegishli edi. Iloji boricha tasvirga olingan kadrlarda ko'proq ishonch qozonish, har bitta tafsilotda hayot nafasini ifodalay bilish - mana, telehujjatchi xodimlarning o'rganishi shart bo'lgan jihatlar shulardan iborat bo'lardi.

Ko`p o`tmay, yangi telefilm studiyalari ish faoliyati tilga tushib, e`tirof qilina boshladi, haqiqatda bo`lib o`tayotgan real voqealar aynan mana shu televideniening kichik ekranlarida qizg`in kutib olinardi.

Binobarin, o`tgan asrning 70-80-yillarida yosh o`zbek kinodokumentalistikasi hujjatli kinolarning barcha janrlarida izlanishlar olib borgani, tajribalar to`plagani, o`zining ijodiy qiziqishlari doirasida turli xil mavzu va syujetlarni qamrab olgani - tasodifiy voqeа emas. «O`zbektelefilm» studiyasi repertuarlarida xalq amaliy san`ati haqida kartinalar, respublikaning kattayu kichik turli shaharlari haqida, madaniyat va sport haqida ko`plib kinolar yaratildi. Shular ro`yxatida: rejissyor M.Qorievning «Ko`k tog` etagidagi shahar», Sh.Bizaatovning «Zardo`zlar», Sh.Xo`jaevning «Dirijyor Dilbar Abdurahmonova», H.Ibrohimovning «Xiva», Sh.Mahbubovning «Botirlar», S.Ahmadxo`jaevnig «Birodarlashganlar» va boshqa filmlarni ko`rsatib o`tish mumkin.

Yosh kinotelematografchilarimiz milliy hujjatli kino maktabida erishilgan muvaffaqiyatlardan, ayniqsa, atoqli kino arbobi Malik Qayumov tajribalaridan foydalanib, ish o`rnida qahramonlarning ishonchli portretlarini yaratish, ifodali rakurs va instsenirovka (sahnalashtirish) ishlarini chuqur o`rganib chiqdilar. Shu bilan birga, studiya xodimlari I.Gershteyn, V.Lisakovich, A.Vidugiris, S.Aranovich, X.Stoychev, G.Frank kabi rejissyorlar ijodida yuz berayotgan yangiliklar, novatorlik izlanishlarini ham qunt bilan o`rganib, o`zlariga keraklicha malakalarini oshirib oldilar. Shuningdek, o`zbek telefilmchilari AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya kabi mamlakatlarda ro`y berayotgan qiziqarli kashfiyotlar, kinopublisistika yangiliklarini o`rganib, o`z ish faoliyatlarida foydalanish yo`lini izlardilar. «O`zbektelefilm» studiyasi faoliyatida yana hujjatli suratga olish yo`llari, «yashirin kamera» bilan ishslash, voqeа-hodisalarни badiiylashtirgan holda qayta tiklash, kinoreportaj, sinxron intervyu, jamlash-tipiklashtirish kabi metodlardan samarali hamda jur`atli foydalandilar.

Ushbu turli-tuman usullar bilan yaratilgan jozibali badiiy-hujjatli filmlar hisobiga biz quyidagi o`zbek telekartinalarini kiritishimiz mumkin: «Sharq keksalari» (rejissyor A.Qosimov), «Zamin ehtiroslarining haqiqati» (rejissyor H.Ibrohimov), «Hamro buvi ertaklari» (rejissyor A.Qosimov), «Urgut naqshlari» (rejissyor E.Ahmedov), «Ustoz» (rejissyor A.Muhamedov), «Olim Xo`jaev, sahnaga marhamat!» va hokazolar. Bu filmlarning hammasi «Mualliflikning kinosi» imkoniyatlaridan turli darajada foydalanganlar, ya`ni kamera syujet bo`yicha emas, balki operatorning o`zi tanlagan, ilhomlangan lavhalardan foydalanib, suratga olingan.

Hujjatli kinoda nazariy jarayon va ijodiy jarayon «yonma-yon», teng qadam tashlab, yangi kuch to`plib, intensiv va samarali ijod qilib birga yuradilar. 60-70 yillarda amaliyotda yangi-yangi janr shakllari: dramalar, reportajlar, ocherklar, boshqa o`ziga xos holda shakllangan janrlar hujjatli kinoda foydalanildi va kinojarayonda muallifning rolini, asar strukturasini mustahkamlash uchun xizmat qildi. Endi filmlarning dramaturgik bichimi ham o`zgara boshladi, ya`ni fabulalar, syujet, kompozitsiya birmuncha murakkablashdi. Boshqacha aytganda, hujjatli asar

qahramonining xulq-atvorini tiniqlashtirish va shaxslashtirish muammolari yangicha talqin qilina boshlandi.

Ittifoq bo'yicha va turli mamlakatlardagi hujjatli kino an'analari, ijodiy novatorliklar tufayli ijodda paydo bo'ladigan tendentsiyalar, izlanishlar va kashfiyotlar mualliflarining san'at asarlari yaratishdagi imkoniyatlarini, milliy kinemotografiya doirasini yanada kengaytirdi.

O'sha yillar kinodokumentistikasida paydo bo'lgan muammolar asosan, tasvirga olish metodikasi negizidan kelib chiqardi. Amaliyotda va nazariyada kelib chiqadigan mojarolar (did va tushunchalar kurashi) mohiyati mana shu o'zan ichida paydo bo'lardi. Masalan, voqealarni qaysi usulda tasvirga olish kerak-kuzatuv yo'li bilanmi yoki kinoreportaj shaklidami? Agar voqelik «ketib qolgan» bo'lsa-yu, endi uni qaytadan tiklash uchun, ob'ektga qay munosabatda bo'lmoq kerak? Kamera real hayotdagi tabiiy oqimlarni tasvirga oladi, rejissyor tomonidan «tayyorlab» qo'yilgan bu o'yinda teatrlashtirish elementlari ishtirok qilishi mumkin emas, lekin turmush fakti qayta tiklanishi, kinematograf tomonidan qayta qo'yilishi va tasvirga olinishi mumkin.

Kinematografik hikoya qaysidir bir kuzatuvchining tilidan aytib berilishi mumkin, balki u o'zining ishtirokini ataylab yashirishga urinar, balki mualliflik topilmasiga ko'ra, tasvirlanayotgan voqealarning teng huquqli ishtirokchisi (aytaylik, intervyu beruvchi) bo'lib qatnashishni bildirar? Intervyu bilan ishtirok etish bir paytlar «moda»ga ham aylangan, bu esa voqealarning ichki suhbatini, shiddatini oshirishga xizmat qilardi.

60-yillarda kinohujjatchilarning e'tiborini Qирг'изистон kinosida erishilayotgan novatorlik jarayonlari o'ziga jalb eta boshladi. Mualliflar L.Turusbekova va I.Gershteynlar, M.Aksakov, K.Kidiralievlarining «Ular Tyan-Shanda tug'ilganlar», «Qo'biz ohanglari», «Qo'shiqning tug'ilishi» kabi filmlarida yangi va ohori ketmagan g'oyalarni, hayotiy materiallar va kuzatuvlarni ko'rish mumkin edi. Qирг'изистонлик operatorlar tasvirga olgan manzara, lavha va boshqa kadrlar juda maromiga yetgan, diltortar bo'lib, tomoshabinlarga ma'qul kelar, hurmat va e'tiroflarga musharraf bo'lar edilar.

San'atni ijodkor insonlar yaratadi. 70-80-yillarda «O'zbektelefilm» studiyasida iqtidorli, o'z ishining ustasi sifatida tan olingan rejissyor, operator va stsenariychilar to'plangan bo'lib, bular asoan, VGIK, A.N.Ostrovskiy nomidagi TTRI institutlarini tamomlagan, o'zlarining butun kuch-g'ayratlarini televizion san'at turlariga bag'ishlagan yoshlar edi. Natijada esa, xronika-hujjatli lentalar ishlab-chiqarish studiyasida ishlangan filmlar soni muntazam ravishda orta bordi.

Studiyada ishlangan filmlar repertuarlari janr va mavzu jihatidan xilma-xil edi. Bular asosan, qishloq xo'jaligi haqida («Kolxozimizga keling!», «Oq oltin»), xalq hunarmandlari haqida («Urgut naqshlari», «Usta»), respublika iqtisodi va sanoati haqida («Uch kimyo giganti», «Standartlarga mos»), tabiat haqida («Kosmogoniya», «Zomin»), madaniyat va san'at haqida («Olim Xo'jaev, sahnaga marhamat!», «Ra'no Sharipova kuylaydi»), musiqiy va sport filmlar, bolalar filmlaridan iborat edi.

Yosh kinohujjatchilar iloji boricha mamlakatimiz hayotidagi eng muhim voqealarni zangori ekranda qamrab olish va yoritib borish, zamonaviy

qahramonlarining mehnatini ulug`lash, qadimgi inshootlarni avlodlar uchun tasvirga olish, osori atiqalar va milliy san`at xususiyatlarini tasmalarga jo qilish ishlarini o`zlashtirish borasida tajriba to`plashga kirishib ketdilar. Albatta, bu ishlarning bari ijodiy yechimlarning chuqurligi, ma`nodorligi, originalligi bilan ajralib turishiga katta e`tibor berildi. Yoshlar zamonaviy hujjatli kino nazariyasi, bu boradagi yangiliklar va o`ziga xosliklarni yaxshi o`qib-o`rganib chiqqanlari bilan, tajriba borasida oqsar edi, shuning uchun ham ular respublika kinosidagi tajribalari katta bo`lgan, bir muncha yoshi ulug` kinohujjatchilar bilan teng qadam tashlashga, ulardan orqada qolmaslikka intilar edilar.

Shunga yarasha, endi telestudiyaning yosh kinohujjatchilari dokumentalist va xronikyor xodimlarning faoliyatiga xos bo`lgan barcha o`ziga xosliklarni, ish jarayonida asqotadigan tafsilotlarni o`zlarining asar yaratish faoliyatiga tadbiq etib borishlari kerak edi, zero bularning bari xalq hayotini yanada ishonarli tarzda yoritishlariga zamin yaratardi. Aytish kerakki, yoshlar bu borada ham anchagina muvaffaqiyatlarga erisha oldilar. Xalq hunarmand ustalarining beqiyos iste`dodlari yaraqlab turgan kinotasmalarni, yoki milliy ekologiya bilan bog`liq bo`lgan, ajoyib va g`aroyib tabiat mo`jizasi – Baxmal tumanida yetishtiriladigan, chiroyli va chidamli, yer yuzida eng noyob hisoblanuvchi qorabayir otlari haqida «G`aroyib qorabayirlar» filmi (rej. Abror Qosimov), ilg`or xo`jaliklardan biri bo`lgan jamoa haqidagi «Hazorbog` - ming bog` degani» (rej. Rustam Shermatov), Marg`ilondagi ipak kombinati haqidagi «Bir dona tola» filmi (rej. operator Vladimir Shurigin), andijonlik mirishkor uzumchi haqidagi «Mening uyimga kiring» filmi (rej. Ravshan O`tkirov) va boshqa filmlarini ko`rsatish mumkin. Studiyamizda yaratilgan respublikaning qadim qadamjolari haqidagi «Shahrisabz» (rej. A.Qosimov), «Xiva» (rej. H.Ibrohimov), «Eng janub» (rej. Shuhrat Xo`jaev) kabi filmlarni ko`rsatib o`tish kifoya.

O`zbekistonlik telekino yaratuvchilar saylab olgan ijodiy metodlar ko`p hollarda Rossiya va boshqa milliy respublikalarning milliy kinosida ishlatilgan eksperimental-tajribalarning davomi yoki shunga o`xshash boshqa turdagи yangiliklar bo`lib chiqardi. Xuddi shuningdek, o`zbek telekinochilari erishgan yutuqlarga sabab bo`lgan ijodiy metodlar tez orada butunittifoq kino hujjatchilari tomonidan o`zlashtirib olinardi.

Buni ko`plab kinodokumentalistika asarlari timsolida ko`rib chiqishimiz mumkin. «O`zbektelefilm»ga ishga kelgan yoshlar, hali ma`lum bir tajriba, ish malakalariga ega bo`lib ulgurmay, Moskvadagi Markaziy studiyalarning, shuningdek, Qirg`iziston, Kavkaz, Sibir, Boltiqbo`yi respublikalari kinochilarining eng yaxshi ilg`or ish usullari, eksperiment va yangiliklaridan xabardor bo`lar edilar. Shubhasiz, turli xil yo`llar bilan: festivallar, seminarlar, madaniy tadbirlar va televizion yangiliklar tasmalari orqali bizning kinotelematografiyamiz doiralariga kirib kelgan chet el filmlari ham shunga o`xshash yo`llar bilan o`rganilib, kino ishslash usullariga ta`sir qilgan bo`lishi shubhasiz.

60-70-yillarda kinodokumentalistika dunyosida (s`yomka) tasvirga olish usullarining takomillashuvida asar kompozitsiyasi, syujet qurilishi sohasida kuchli yangilanishlar davri bo`ldi, deb ayta olamiz. «Vaqt doimo biz bilan birga» (rej.

S.Aranovich), «Uni Fyodor deb atashadi» (V.Lisakovich), «Ishton kiygan uchuvchilar» (V.Xaynovskiy va G.Shoyman), «Oxirgi maktublar» (X.Stoychev va S.Kulish), «Afsonalarsiz» (G.Frank) singari filmlarda voqealikni obrazli qabul qilishning murakkab tizimi, dramaturgik rasmiylashtirish shakllari asar mazmuni bilan chuqur bog`lanib, qahramonlarning xulq-atvoridagi qarama-qarshiliklarni ustalik bilan ochib berishda keng qo`llanilgan. Qahramonlar portreti (tashqi ko`rinishi)da fikrlar va replikalar hisobga olingan. Mualliflar tomoshabinlarni bo`lib o`tayotgan voqealarning ishtirokchilariga aylantirish uchun ataylab shunday usullarni qo`llaganlar.

«O`zbektelefilm» studiyasining yangilikparvar xodimlari ham san`atning bu kabi yo`llarida yangiliklar yaratish, ijodkorlik namunalarini namoyish etish uchun turli yo`llardan maqsad sari borishga tirishdilar. L.Boboxonov, T.Akramov, Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo`jaev, V.Leshtaev va boshqalarning filmlarida bu xil izlanishlar naqadar murakkab sharoitlarda olib borilgani, mualliflar o`z usullarini topish uchun qanchalar izlanishlar o`tkazganliklariga guvoh bo`lamiz. Aynan mana shu mualliflar asarlarida turli an`analarning bir-biriga ta`sirini ham uchratish mumkin, shuningdek, izlanishlar amalda ijobiy natija bermagan paytlar ham boshdan kechganligini anglaymiz.

Studiya rejissyor va dramaturglarining eng yaxshi deb e`tirof etilgan asarlarida voqelikni qayta jlonlantirishning maxsus uslubi sifatida badiiy jihatdan ifodalash, intilish hamisha sezilib turardi, zero tasvirlanadigan hodisalarning individual mohiyati, muayyan xususiyatlari ichiga kirib borishning yangi uslublari doimo e`tiborni jalb qiladi. Bu yerda yuksak ijodiy xislatlarni o`zida mujassamlashtirgan qahramonni, uning sabr-toqatini, tirishqoqligini badiiy yoritishda mualliflarning izlanuvchanligini alohida qayd etish zarur bo`ladi.

Har qanday filmda ham ijodiy yangiliklar yaratish, yangi usul va vositalardan foydalanish uchun intilaverish mumkin, lekin bu – oson ish emas. Bunday filmlar asarning yoki tadqiqot ob`ektlarining tafsilotlarini, eng nozik tomoshabinga aniq va ravshan yetkazib berishdan tashqari, asar mohiyatini, o`zligini chuqur yoritishni talab qiladi. Bu narsa ishlarning natijasiga ham, sifatiga ham ta`sir qilmasdan qolmaydi. Mualliflar o`zları yaratayotgan yangiliklar olamiga shu qadar sho`ng`ib ketgan edilarki, studiyamiz mahsulot bera boshlagan dastlabki yillardayoq xalq san`ati bilan, hunarmandlik, musiqa bilan bog`liq ta`sirli va original yechimlarga ega bo`lgan jozibador asarlar paydo bo`lib, e`tiborni torta boshladи. Masalan, folklor ansambllari faoliyati va ijodiyoti haqida rejissyor Eduard Davidovning «Boysunda qor eridi», «Xivacha ajrim» asarlarini, musiqiy asboblar yasovchi usta haqida «Uyg`urning oilasi» (rej. A.Qosimov), Zebo G`anieva nomidagi ansambl ijodi va faoliyati haqida «To`xtang, lahzalar!» filmini (rej. Shuhrat Bizaatov) ko`rsatish mumkin.

Jaharning murakkabligi va qiyinligiga qaramasdan, san`at ustalari haqidagi filmlarni yaratish hujjatli kino olamida hamisha talabgir, qahramonlar uchun qiziqarli. Buni o`zbek telekinematografchilar uchun namuna sifatida ko`rsatsa bo`ladigan S.Rixter, V.Mravinskiy, D.Shostakovich, D.Shafran, P.Kasal va boshqalarning taniqli musiqa arboblari haqidagi asarlarni tilga olib o`tsak bo`ladi. Ushbu filmlar o`ziga xos, original usulda yaratilgan bo`lib, ularni musiqa olamidagi

ulug` shaxslarning portret-filmlari deb atasak arziydi. Asarlardagi original yondashuv - ifoda vositalaridan foydalanishda lakonizm (qisqa, kamso`zlik), musiqa arboblarining xulq-atvoridagi o`ziga xosliklarni, tafakkur chizgilarini chuqur yoritib borilganligidan darak. Ushbu asarlar ekranlarga chiqishi bilanoq minnatdor tomoshabinlar filmlarning qiziqarli tomonlari, yutuq va kamchiliklari borasida qizg`in bahslasha boshladilar. Ularning nazarida ushbu filmlar umuman portret janri talabiga javob berishdan tashqari, aynan televideviebopligi bilan ham e'tiborni tortadi.

Shunday qilib, o`zbek kinohujjatchilari ulkan tashabbus ko`rsatib, xalq og`zaki ijodi xazinasidagi durdona mavzularni dadillik bilan telefilmlar tasmasiga jo qilishda jur'at va mahoratlarini namoyish etdilar, an'anaviy usullarni yanada rivojlantirdilar, o`zlarining yorqin iste'dodini to`la namoyon etish yo`lida tinmay izlanishlar olib bordilar.

Ushbu janrlarda ijod qilish 70-80 yillarda ham davom etdi va respublika san'ati haqida qiziqarli asarlar yaratildi: rej. H.Ibrohimovning «Orol ohanglari», E.Davidovning «Toshkent navolari», N.Qo`ldoshevning «Yangra, dutor!» kabi filmlarni ko`rsatib o`tamiz.

Kinoasarning muvaffaqiyatli chiqish-chiqmasligi mualliflarning maqsadi, o`zlarini yoritib bermoqchi bo`lgan mavzuni qanchalik bilishlari yoki bilmasliklari, mazkur mavzuga qanchalik tayyor yoki tayyor emasliklariga ham bog`liq, albatta. San'at haqidagi filmlar stsenariysini ko`pincha adib va jurnalist yozar, ba'zan esa rejissyorlar ham bu borada o`z kuchlarini sinab ko`rar edilar (V.Ivchenko, J.Teshaboev, S.Berezanskaya, rejissyor E.Davidov esa ko`pincha o`zi stsenariy yozar edi). Ba'zan esa, stsenariychi bilan rejissyor hamkorlikda asar syujetini pishitib olishar, natijada ularning o`zaro birgalikda ishlashlari kinoasarlarning sifatiga ijobiy ta'sir qilar, asar g`oyasi, mazmuni, detallari yaraqlab ochilib ketar edi. O'sha davrning eng yaxshi asarlarini bugungi kun tomoshabini ko`rsa ham a'lo baho qo'yishi tayin, negaki, yuqorida aytib o`tganimizdek, mualliflar bilan rejissyorlarning hamkorligi, boshqa xodimlar bilan birgalikda ishlaganliklari tomoshabinga hozir ham ohori to`kilmagan yangilik bo`lib tuyulishi shubhasiz.

Eng yaxshi va qiziqarli filmlar («Hamro buvining ertaklari», «Usta», «To`xtang, lahzalar!», «Zomin», «Bizning uylar Qizilqumda») – studiyada, jamoada yangiliklarga o`ch, ohori to`kilmagan yangi bo`yoq va g`oyalar, hayotiy kuzatishlarni asarlarida namoyon etayotgan kinodokumentalistlar A.Muhamedov, L.Boboxonov, A.Qosimov, E.Ahmedov, Sh.Junaydullaev, Sh.Bizaatov, E.Davidov va boshqalar ijodida yorqin kamolot pillapoyalarida ko`rinadigan malaka va mahoratni payqash mumkin.

Yoshlar ilk asarlari bilan ba'zan jahoniy e'tirofga sazovor bo`lishar, oddiygina asarlari bilan ham kelajakda katta san'atkor bo`lib yetishishidan darak berib turgan allanarsalar joy olgan bo`lishi hech gap emas. Masalan, mana shunday filmlar - ham yoshlar nomini tezda mashhur qilib, yuboradigan, ham tomoshabinlar yodida uzoq vaqt qoladigan filmlar janrlaridan biri – «kino-kontsert» edi. «Buning sababi nimada?», dersiz? Negaki «kinokontsert» janri aynan televidevie ekranlari

uchun yaralgan janr bo`lib, tomoshabinlarni ham fikrlashga chorlar, ham badiiy didlarni o`sirishga sabab bo`lardi.

«Bu janr, - deb yozadi taniqli nazariyotchi va rejissyor A.Simonov film-kontsertning janrini xuddi televizion okeandan topilgan tomchiga o`xshatish mumkinki, mana shu birgina tomchida butun okeanga xos bo`lgan xususiyatlar aks etib turadi.»

Quyidagi mana bu ko`chirma esa A.Simonovning boshqa bir maqolasidan olingan: «Film-kontsertlarda hujjatli asarlarga, ilmiy-ommabop kino va televizion ko`rsatuv, reportajlarga xos bo`lgan belgi va uslublar, bari aralash-quralash bo`ladi, go`yo u o`zini boshqa janrlardan ajratib, ba`zan esa boshqa janrlarni o`zidan ajratib qo`yayotganday tuyuladi». <sup>24</sup>

Albatta, mahalliy material asosida film-kontsert yaratishga kirishar ekanlar, telekinohujjatchilar ushbu janrning qanchalik murakkabligini hali to`la tasavvur qilib ko`rmagan bo`ladilar. Tez orada ularning bu boradagi tirishqoqligi samara bera boshlaydi. Zangori ekranda milliy musiqiy madaniyat va san`at arboblari, ajoyib musiqiy jamoalar, ansambllarning mamlakatdagi va chet ellardagi kontsert va chiqishlari haqida kino asarlari birin-ketin qo`yila boshladi va bu filmlar shuhrat qozondilar.

Shular ichida eng muvaffaqiyatli chiqqan filmlardan biri T.Akramov tasvirga olgan «Ra`no Sharipova kuylaydi» kino-kontserti edi. Kinofilm stsenariysini rejissyorning o`zi yozgan bo`lib, muallif va rejissyorning maqsadi, mavzuga yondashuvi, tovush bilan tomoshabin birligi asosida qo`shiqchi ayolning ijro mahoratini, noyob ovozini, nafaqat xalq qo`shiqlarini, estrada xonishlarini ham tinglovchiga tiniq va ravon yetkazib bera olgan xonandaning iste`dodi ana shu film tasmalariga jo bo`lgan. Asar allaqachon vaqt sinovidan o`tdi, tomoshabin bugun ham qiziqish ila tinglaydigan qo`shiqlar shu film orqali mangulikka muhrlanib qoldi.

Umuman, gap film-kontsertlar haqida ketar ekan, shu terminning o`zi musiqiy madaniyatning barcha sohalariyu, butun ikir-chikirlarigacha qamrab olishini unutmasligimiz kerak. Ya`ni o`tmish hayotimizda shuhrat qozongan mashshoqlardan tortib, bugungi kundagi kompozitor, xonanda va sozandalar, ustoz san`atkorlar va musiqiy olamning turli-tuman sohalarida o`zining iste`dodini namoyon eta olgan musiqa dunyosi yulduzlarining siymolari darhol yodga tushadi. «O`zbektelefilm» studiyasida yaratilgan ko`plab film-kontsertlar repertuari rang-baranglik tomonidan ham xilma-xildir. Alovida kontsert asarlaridan tortib, murakkab tasvirlarga boy bo`lgan, jiddiy musiqiy kamolot pillapoyalarini zabit etolgan arbob haqidagi «Dirijyor Dilbar Abdurahmonova» ajoyib va noyob iste`dodi bilan dunyoga tanilgan o`zbek yigit Alyosha Sultonov haqidagi «Muhabbatning mo`jizakor tovushlari» (rej. Shuhrat Xo`jaev) kabi filmlarni tilga olib o`tamiz.

Arziydigan mavzu bo`lsa, uni yoritishga kuch-quvvat va salohiyati bo`lsa - ana shu jarayonda mahorat ham, yangicha yechim ham topiladi. Misol izlab uzoqqa ketmay, «O`zbektelefilm» studiyasida suratga olingan «Orol ohanglari» va «Yangra, dutor!» film-kontsertlarining badiyatini qiyoslab ko`rsak, bunga ishonch hosil qilamiz. Ikkala asarda ham ijodkorlar o`zlari tanlagan mavzularning mohiyatiga

<sup>24</sup> TV вчера, сегодня, завтра –М.: Искусство, 1984. с.154.

chuqur nazar tashlay olganlar, film mazmunini ochishga xizmat qiladigan ifoda vositalarini topa olganlar, shuning uchun ham televizion san'at uchun juda xos va mos bo'lgan film yarata olganlar.

Musiqali film muallifi oldida ham har qanday hujjatli kinoasar yaratilganda paydo bo'ladigan vazifalar turadi. Materiallarning ahamiyatini, tadqiqot ob'ektining afzal tomonlarini ko'rsatadigan rejissyor va tasvirga olish guruhi a'zolari mavzuni yoritib berishning dramaturgik yo'llarini, ijodiy jarayon sir-asrorlarini ohib beradigan usullarni izlab topishi kerak. Aytaylik, haqiqatan ham yirik san'atkor yoki musiqa arbobining portretini yaratishda kinohujjatchi har gal avvalgi asarlarni takrorlab qo'ymasligi, shuning barobarida yangiliklar yaratishning uddasidan chiqishi lozim bo'ladi. Eng mohir stsenariychi ham asar qahramonlarini s'yomka (tasvir)ga olish paytidagi harakatlarini ikir-chikirlarigacha tasvirday olmasligi turgan gap.

Bulardan tashqari, hali muallif bilan asar qahramonlarining o'zaro munosabatlari degan gaplar ham bor. Bu xuddi buyurtma olgan rassomning ahvolini yodga solib yuboradi, ya'ni rassom nomi chiqqan mashhur bir lashkarboshidan uning portretini ishlash uchun buyurtma olsa-yu, portretda nafaqat harbiy sarkardaning tashqi ko'rinishi, balki uning tantanavor kiyimlariyu, shaqir-shuqur ordenlari ham aks etishi shart, deyilsa, rassom qanday ahvolga tushishi mumkin?! Xullas, bo'lajak kinoasarlarning barcha qahramonlari hali kinohujjatchilarning o'ziga xos mehnatlarini, kinopalitranning rang-barangligini tasavvur eta olarmidi?

Film-kontsert yaratuvchilar uchun asosiy muammo shundan iboratki, qahramonning iste'dodi, salohiyatining miqyosi uning shaxs sifatidagi xususiyatlarini ohib bera olishi, ekranda to'la aks ettira olish mahorati – mualliflarni boshqalardan ajratib turishi kerak. Mana shunday omillar sovet davridagi mashhur madaniyat va san'at arboblari – Leonid Utyosov, Solovyov-Sedoy, Galina Ulanovalar haqidagi filmlarda asar muvaffaqiyatlarini ta'minladi.

Kinoasar yaratish natijalari kartinaning dramaturgik vazni qanchalik tosh bosishi-bosolmasligiga ham bog'liq, albatta. Bu – asar muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy va universal uslub sanaladi. Mana shunga amal qilinmas ekan – stsenariy matni chiroyli yozilgаниyu, matnni suxandon sharillatib, risoladagidek o'qib bergani bilan hattoki qahramonning og'ziga eng zarur so'zlarni tashlagan bilan ham filmning muvaffaqiyatini hech kim va hech nima ta'minlab berolmaydi.

Umuman, hujjatli asar uchun eng zaif nuqtalardan biri – bu intervyu hisoblanadi. Ko'pincha, intervyu yoki suxandon matni – zaif yozilgan stsenariyning kamchiliginini to'ldirish uchun ishlataladi, qolaversa, intervyuni o'z o'rnida, o'z vaqtida ishlata bilish ham kerak. Filmda shunday bir vaziyat yaratish kerakki, qahramonning o'zi dolzarblik kasb etayotgan voqeа haqida gapi rayotganini sezmay ham qolsin. Buning uchun stsenariychi, rejissyor aynan qahramonni gapirtirish uchun voqealarni tanlay olishi, ya'ni intervyu uchun «zarurat»ni keltirib chiqarishlari kerak.

Ulkan iste'dod hayotiga chuqur kirib borish, ijodkorning o'ziga xos olamini, iste'dod qirralarini ohib berish borasida misol keltirish uchun dongdor zamondoshlarimizdan biri, noyob ovoz sohibi Botir Zokirov haqidagi filmni eslash kifoya (rej. T.Ahmadxo'jaev, stsenariychi M.Abdurasulova). Arxiv materiallarini tanlash, xalq sevgan xonandaning betakror iste'dodining turli qirralarini ohib

berishga intilish – filmning muvaffaqiyatli chiqishi uchun kafil bo'ldi, deyish mumkin. Ko'plab Yevropa mamlakatlariagi tomoshabin o'zbek zaminida yetishib chiqqan yorqin iste'dodga maftun bo'lib, qo'shiqlarini jonu dil ila berilib tinglagan, Botir Zokirovni misli ko'rilmagan hurmat-ehtirom ila olqishlaganlar.

Mualliflar asarning muvaffaqiyatli chiqishi, tomoshabinlarga ma'qul kelishi uchun turli xil usullardan, «mug'ombirlik»lardan qochmadilar. Agar ular ishni uddalab, «mo'ljalni nuqtaga ursalar», unda natija o'zini o'zi oqlaydi.

Mashhur balet raqqosasi Galina Ulanova haqida film-kontsert ishlanganida mualliflar uni bir paytlar o'zi yashagan uyga olib keladilar. O'zi azaldan kamgap bo'lgan raqqosa eski uyida ming yillik qadrdon qo'shnilar davrasida chunonam gapga tushib ketadiki, asti qo'yaverasiz. Yoki yana bir balet raqqosasi Bibisora Beyshenalieva haqida film ishlaganlarida, film ijodkorlari arxivlardan xronika-lavha topib olib, shuni filmga «yamab-yasqab» kiritib yuborishadi, bu lavhada yoshgina qizaloqning balet maktabidan chiqib kelayotib, onasi bilan uchrashgani tasvirlangan.

Filmga kiritilgan ushbu lavha o'zini to'la oqladi. Filmni tomosha qilgan tomoshabin o'sha qizni Bibisora Beyshenalivaning bolalik chog'idagi tasviri deb qabul qiladi. Vaholanki, tasvirdagi qizaloq Bibisora emas, unga butkul begona bo'lgan oddiy o'quvchi qiz edi, xolos.

O'zbek kinohujatchilari uchun sevimli bo'lib qolgan lavhalar – respublikamizdagi qadimiy shaharlar manzaralari, qadimiy osori atiqalar, binolar, hunarmandlar, xalq orasidan yetishib chiqqan ustalar haqidagi filmlar edi. Shunday filmlar sirasiga kirgan Xiva, Shahrisabz, O'tror, Chotqol yodgorliklari, islomiy inshootlar va qadamjolar, Toshkentning o'tmishi, Xiva gilamlari, chilangar-ustalar, naqqosh-duradgorlar haqida, Ibn Sino tug'ilib o'sgan Afshona qishlog'i, Zaripovlarning chavandoz yigitlari, Samarqandning moviy rangli maqbaralari, Chirchiq, Qo'qon, Buxoro shaharlari, Hisor qo'riqxonasi kabi noyob manzaralii joylar haqida filmlar ishlandi.

O'zbekistonimizning afsonaviy shaharlari va buyuk me'moriy namunalari xalq hunarmandchiligi, san'at asarlari va boshqa noyob, antiqa, ajoyibotlari haqida film yaratish istagida izlanayotgan rejissyorlarimizdan: A.Muhamedov, A.Qosimov, S.Ahmadxo'jaev, R.O'tkirov, T.Ahmadxo'jaev, N.Qo'ldoshev, G.Boboev va boshqalarni shu o'rinda tilga olib o'tishimiz joiz. Ushbu ijodkorlarning yaratgan kinoasarlarida ota-bobolarimizning shonli va zafarli hayotlarida bunyod qilingan inshootlarning yaratilish tarixi, takrorlanmas san'at namunalarini ko'rsata olgan me'morlarning iste'dod uchqunlarini namoyon qilish – asosiy maqsad edi. Rejissyor Sh.Junaydullaevning «Qadimiy qal'alar yoshligi», X.Ibrohimovning «Xiva», A.Qosimovning «Shahrisabz», R.O'tkirovning «Samarqand», N.Qo'ldoshevning «Xorazm», Sh.Bizaatovning «Toshkent», Sh.Mahbubovning «Farg'onanining zangori uzugi» filmlarida ana shunday yuksak professionalizm, noyob topilmalar, ajoyib manzaralarni ko'ramiz.

«O'zbektelefilm» studiyasi nishoni zarblangan kinotasmalar ko'pincha o'ziga xos takrorlanmas uslubda, standart bo'lmanan lavha-manzaralarga boy bo'lgan ko'rinishlarda tasvirga olinardi. Mana shunday nozik his-tuyg'uli, ilhombaxsh lavha-topilmalar kashfiyotchisi, qadimgi o'zbek zaminida yetishgan beqiyos va

mo`jizakor, tomoshabop sahnalarning targ`ibotchisi – rejissyor Eduard Davidov edi. Uning eng yaxshi asarlari («Buxoro ertaklari», «Boysunda qor eridi», «Xiva vaqt bilan roppa-rosa yettida», «Xivacha ajrim») ana shunday ezgu tuyg`u va xalqona iste`dodlarning yorqin namoyishiga aylandi. (Buni qarangki, bizning ushbu tadqiqotimizning o`zbekcha nusxasi kitob bo`lib sahifalarga muhrlana boshlagan bir paytda – 2007 yilning 23 avgust kuni «O`zbektelefilm» studiyasi faoliyati uchun ham nihoyatda ahamiyatli voqealar ro`y berdi: shu kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoniga muvofiq, studiya kinorejissori Eduard Rubenovich Davidov «O`zbekiston durdonalar» va «Xorazmning oltin xalqasi» filmlari uchun san`at va me`morchilik sohasida ikkinchi darajali Davlat mukofoti bilan taqdirlandi! Demak, studiyamiz xodimlari – rejissyorlarimiz, operatorlarimiz, stsenariychilarimiz kamolot cho`qqilarini zabit etib, tobora mahorat va salohiyatlarini charxlab borayotganidan darak bu! Agar, o`rni kelgani uchun, mukofot haqida aytadigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligi munosabati bilan, yana bir rejissyorimiz Shavkat Hamidullaevich Junaydullaev «O`zbekiston Respublikasida xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi» degan faxrli unvonga musharraf bo`ldi. Shundan salgina vaqt oldin «O`zbektelefilm» studiyasi «Eng ulug`, eng aziz» respublika tanlovida g`olib chiqib, diplom va mukofot bilan taqdirlangan edi. Shuning o`zi ko`p narsani anglatib turibdi.

Respublikamizda mashhur bo`lgan televizion kinematografchilar xalqimiz nomini jahon bo`ylab tarata olgan o`tmishdagi buyuk bobolarimizning, ulug` adib va shoirlarimiz, musavvir va fotihu sarkardalarimizning hayoti, faoliyatini yoritishda o`zlarining iste`dodlarini ayamay xizmat qildilar. Mualliflarimiz o`zlarining eng yaxshi asarlarida qahramonlarining ichki dunyosini ham, tashqi dunyosini ham mahorat va professionalizm nuqtai nazaridan eng yuksak, avj pardalarda kuylay oldilar.

Taniqli rejissyorimiz T.Ahmadxo`jaevning «Abdulla Qahhor» hujjatli filmida atoqli adib va so`z ustasining hayoti, ijodi, ijtimoiy faoliyati haqida haqqoniyligini qilinadi. Ocherk-filmda mualliflar atoqli adibni quruq maqtov va «ko`tar-ko`tar»lardan ataylab qochganlar, u haqida bor haqiqatni ro`y-rost aytish, jahonga tanilgan adibning shaxsini to`la yoritib berish, buning uchun esa xronika kadrlaridan, adibni ko`rgan, undan ta`lim olgan shogirdlarning xotiralaridan foydalanganlar. Film o`zagini adibning rafiqasi Kibriyo Qahhorova bilan suhbati tashkil etadi. Kibriyo Qahhorova ham - atoqli yozuvchining yonida yurib, ustoz Qahhor uchun eng qiyin, aziyatli davrlarda unga kuch-quvvat, qo`l-qanot bo`lib yashagan tabarruk inson. U Qahhorning shaxsi borasida, vatanparvar va shogirdparvar adib bo`lgani, xalq uchun eng qiyin bo`lgan davrlarda ham haqiqatni ayta olgani, ijtimoiy adolat va tenglik uchun kurashgani haqida gapirib beradi.

O`zbek kinohujjatchilari keyingi paytlarda haqiqatda ham tomoshabinlar tafakkurini yolqinlata oladigan, ko`pchilikka manzur bo`ladigan asarlar yaratishda tinmay izlandilar, yangicha tasvirlash va yoritish uslublarini kashf etdilar va shu bilan jahon kinohujjatchiliqi sohasida alohida maktab yaratdilar. Masalan, «Olim Xo`jaev, sahnaga marhamat!» filmining ijodkorlari asarning har bitta lavhasini ulug` san`atkorning iste`dodini, ijtimoiy faoliyati va insoniy xususiyatlarini ochib berishga

xizmat qildirganlar. Shuningdek, V.Mirazimovning «Salom, Zulfiya!» filmida xalq sevgan shoiraning taqdiri, dramatik voqeа va lavhalarga boy hayoti haqida hikoya qilib berilgan bo`lsa, yana bir ardoqli shoir, akademik G`afur G`ulom haqidagi asar «G`afur G`ulomning bog`i» (rej. H.Ibrohimov) filmida oddiy bog` manzaralari tomoshabin uchun ramziy ma`no kasb etib, ulug` shoir va insonning shaxsiyatini ochib berishda katta rol o`ynagan. Sh.Xo`jaevning yana bir asari - atoqli olim, jahonga tanilgan akademik Toshmuhammad Sarimsoqov haqidagi telefilm ham yana shunday xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Muallif fikrining yangiligi, o`ziga xosligi, hayotiy kuzatuvlarning hissiy-emotsional obrazlilikka suyanishi, sermazmun va o`quvchi uchun boy xotiralar - o`zbek televizion publisistikasining boshqa publisistik maktablardan ajralib turadigan xususiyatlaridir. «Hujjatli» kino va «kinopublisistika» tushunchalari bir-biriga yaqin tushunchalar bo`lgani bilan, ular bir narsa emas. Kinopublisistikada hujjatli kinoga xos bo`lgan unsurlar, mavzuni yoritish uslublari ishtirok etishi mumkin, ammo kinopublisistika mualliflari tanlagan mavzuni his-tuyg`ular, chuqur insoniy kechinmalar yordamida ochib berishni o`z oldilariga maqsad qilib qo`yadilar.

Shunisi quvonarliki, «O`zbektelefilm» studiyasi faoliyati va tarixida yuqorida tilga olingen filmlarga o`xhash asarlar, hayotiy voqealarga tezda javob-(otklik)lar ayta olish, mualliflarning asl insoniylik pozitsiyasida turib, atrofdagi hodisalarga munosabat bildirishi - o`sha asarlarning mavzusida, studiya tomonidan repertuar tarkibidagi, tavsiya qilingan reja-dasturlardan o`rin olgan asarlar ro`yxatida ham aks etgan. Masalan, R.O`tkirovning «Tashlandiq vaqt xronikasi» va «Baxshullonning achchiq kuzi» filmlarini, B.Ahmedovning «Ertangi vakantsiya», Sh.Mahbubovning «Pudratchilar safi», T.Ahmadxo`jaevning «Deniska qanday o`ldirildi?», Sh.Xo`jaevning «Hamma kutayotgan mashina», Sh.Junaydullaevning «Befarqlik balosi», N.Mahmudovning «Kosmogoniya» filmlarini va boshqa asarlarni aytib o`tishimiz lozim. Boshqa studiyalarda ishlangan ko`pgina filmlarni ham mana shu ro`yxatga tirkab, asarlardagi zamonaviylik, dolzarblik va xalqchillikni yoritishda yangiliklar yarata olgan filmlar safini to`ldirish mumkin. Masalan, X.Stoychev va S.Kulishlarning «So`nggi maktublar», G.Frankning «Afsonalarsiz», V.Lisakovichning «Katyusha», M.Goldovskayaning «Sinov» filmlarini yodga olamiz. Yonginamizdagi «Qirg`izfilm» studiyasida ham o`z ishining ustalari bo`lgan rejissyorlar mehnat va ijod qilib o`tdilar, ular qatorida Yu.Gershteyn («Katta Chu kanali», «Qo`sinqning tug`ilishi», «Rassom Chuykov» filmlarining rejissyori), I.Gershteyn, A.Vidugiris («Quyoshga yuzlanganlar»), M.Ubukeev («Tog`lar daryosi») kabi rejissyorlar nomini keltirib o`tamiz.

Shu bilan birga, aytib o`tish lozimki, o`zbek studiyasida yaratilgan asarlarning hammasiyam bir xilda badiyati yuksak, mazmunan boy deb bo`lmaydi, albatta. Studiyamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar orasida boshqa filmlarni mazmunan takrorlab qo`yan, zamon talablariga javob bera olmaydigan, zaif, shoshib qaror chiqarish tufayli «egasiga yetmay, yot qo`llarda» qolib, mavzusi yaxshi ochilmagan asarlar ham uchrab turganligini aytib o`tamiz.

Agar kinohujjatchining ishida ijodiy talpinish, yangilik yaratish uchun izlanishlar aks etib turmasa – ushbu film asar sifatida hech kimning e'tiborini

tortmaydi, ya’ni asar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Buning uchun esa, hujjatli kino - san’at asari ekanligini, har qanday tanqid, takror, jur’atsizlik bu sohada faqat ziyon keltirishini unutmaslik lozim. Ijodning boshqa turlarida bo`lgani kabi, bu sohada ham mualliflarning g`oyasi, o`ziga xosligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O`z ishining ustasi bo`lgan har bir ijodkor o`ziga xos til, alohida ish uslubini, o`zining stilistikasini yaratishga harakat qiladi. Shuning uchun ham biz jahon hujjatli kinosida o`chmas izlar qoldirgan Vertov, Shub, Ivens, Flaerti nomlarini hamon ardoqlab, ulardan o`rganamiz, asarlarini tomosha qilamiz, shuning barobarida hujjatli kino xodimlari dokumental kino olamida faqat o`zagina biladigan, o`zi amal qiladigan maktabni o`tab chiqadiki, bu jihatlardan hujjatli kino imtihonlari ham xuddi badiiy asarlarga qo`yiladigan talablar asosida shakllashadi.

Filmning yaxshi chiqishi, mazmunli, ko`rimli, shaklan barkamol yaratilishi uning mualliflariga bog`liq, dedik. Zero, film mualliflarining saviyasi tufayli film yo haqiqiy san’at asariga aylanadi, yoki oddiygina, zaif ishlangan, jo`ngina bir narsaga aylanadi.

O`zbek telekinematografchilari o`zlarining eng yaxshi asarlarida san’atning ana shu oltin qoidasiga amal qilmoqdalar. Negaki, hamma san’atlar uchun umumiy bo`lgan, universallik kasb qonunlarni o`zlari uchun qayta kashf etib, kameralar bilan hayot haqiqatini izlash, topish, uni tomoshabinlarga yetkazish va ma’qul qilishga intilmoqdalar. Shuning uchun ham ularning ko`pchiligi jahon kinochiligidagi olingan, e’tirof qilingan, ma’lum bir muvaffaqiyatlarga erishgan, kamolot cho`qqilarida o`z o`rnini egallagan san’atkorlardan deb ayta olamiz. Ayniqsa, S.Ahmadxo`jaevning «Usta Solijon», Sh.Junaydullaevning «Zargar», «Haykaltarosh Quttimurodov», «Sehrli loy», H.Ibrohimovning «G`urumsaroy kamalagi», F.Xo`jaevning «O`zbek madonnasi», «Men dunyoni ko`rayapman!», V.Mirazimovning «Sopol o`yinchoqlar tabassumi», F.Davletshinning «Musavvir Rahim Ahmedov», T.Ahmadxo`jaevning «Bahodir Jalolov», B.Ahmedovning «Rassom Malik Nabiev» filmlarida o`zbekistonliklarni jahonga tanitgan rassomlarning faoliyati izchil, qoniqarli yoritib berilgan. Ushbu ro`yxatga shakliy izlanishlar, badiiy stilistika, filmlarning o`ziga xos konstruktsiyasi (tuzilishi), murakkabligi, zamondoshlarimizning ajoyib va g`aroyib taqdirlari aks etgan yana ko`plab asarlarni kiritishimiz mumkin. Masalan, F.Xo`jaevning «O`zbek madonnasi» filmi iste’dodli fotoijodkor, yoshligidanoq Turkiston zaminini, Sharq xalqini sevib, shu zaminni asarlarida kuylab kelgan ulug` iste’dod - Maks Pensonga bag`ishlangan bo`lib, film muallifi tarixiy bir voqeaga, Maks Penson va film qahramonlarining hayotidagi bitta faktga suyanadi. Ya’ni, film mualliflari qachonlardir oddiy plyonkaga muhrlangan bitta suratdagi ayol va go`dakning taqdirini yoritish orqali ham zamon ruhini, yaqin ellik-oltmish yillik tarixni jonlantirib, muallif fikrini, asar g`oyasini ezgulik yo`lida, tarix va o`tmish voqealariga hurmat ruhida hikoya qiluvchi kinoqissaga aylantira olganlar.

Ikkinchi bir asar - «Akmal» filmi bor-yo`g`i 10 minutgina davom etadi, xolos. Rejissyor, operator va stsenariy muallifi Marat Soliev yosh rassom iste’dodini ochib berish uchun shundan ta’sirli, hissiy-emotsional lavhalarni topgan va tomoshabinlarga yetkaza olganki, garchi filmda hech qanaqa matn ishlatishmagan

bo`lsa-da, «gapiroayotgan» kamera va yangrayotgan musiqa orqali muallif aytmoqchi bo`lgan hamma fikrlarni uqib-anglash mumkin.

70-80-yillarda studiyamiz mahsulotlari orasida san'at mavzusini yoritgan filmlar repertuari orasida mustahkam o`rin egallay boshladi. Aslida bu tamoyil jahon hujjatli kino olamida ham asosiy yo`nalish hisoblanadi. Televidenieda san'at sohasidagi filmlar har qanday badiiy hodisalarning maxsus interpretatsiyasi sifatida muhim rol o`ynaydi. Filmlar tahlil va plastikaning transformatsiyasi sifatida yangi go`zal shakl kasb etmog`i, eng avvalo, o`zi yaratilgan muhitda tomoshabinlar e'tiborini qozona olmog`i kerak.

O`zbekistonda ishlangan san'at haqidagi telekino tasmalarini ikki guruhg'a ajratish mumkin. Biri - mazmunan didaktikaga tortadigan filmlar bo`lsa, ikkinchi guruh – she'riy tarbiyaga tortadigan filmlar deb hisoblash mumkin.

Ba`zi asarlar hayotdag'i u yoki bu xil badiiy voqealar mazmunini fakt sifatida qayd etib o`tsalar (masalan, T.Ahmadxo`jaevning «So`zana», N.Gerasimovning «Haykaltarosh D.Tureniyazov» kartinalari), ikkinchi bir xillari san'at ob'ektlarini romantik his-hayajon qo`zg`aydigan kayfiyat uyg`otadi (masalan, Lyudmila Garmashning «Kulol muhabbat», N.Qo`ldoshevning «Usta Abdug`ani», S.Ahmadxo`jaevning «Rassom Samig` Abdullaev», Sh.Junaydullaevning «O`yinchoq» filmlari va boshqa filmlar).

Studiyamizda yaratilgan filmlar orasida adabiyot va musiqiy madaniyat arboblariga bag`ishlangan asarlar ham borki, ularda hayotiy voqelik, pafos ko`pincha tuyg`ularga, romantik bo`yoqlarga o`rab beriladi. B.Ahmedovning «Men yurtimning pok istakli kuchiman» (Cho`lpon haqida) hamda «Abdurauf Fitrat», Sh.Bizaatovning «Pahlavon Mahmud» va «Qahramon Dadaev», N.Qo`ldoshevning «Dilafro`z Jabborova raqsga tushadi» va «Sehrli nay» filmlarini shular sirasiga kiritish mumkin.

Qizig`i shundaki, sanab o`tilgan ishlarning ko`pchiligi texnik qo`llanma va apparatura vositalarisiz, oddiy usulda suratga olingan. Ulardagi asosiy fazilatlar - haqqoniylilik, vatanparvarlik, milliy madaniyat his-tuyg`ularini yuksak darajada tarannum etishga bag`ishlanadi. Kartinalarni boshqa asarlardan ajratib ko`rsatadigan xususiyat – filmning «xo`jako`rsin»ga yaratilmaganligi, balki muallifning yuksak iste`dodi hamda savyasidir. Darhaqiqat, iste`dodli, saviyasi baland bo`lgan insonlargina shoshma-shosharlikka yo`l qo`ymasdan, havoyi va mag`zi puch gaplarga berilmasdan, boshlagan ishini puxta holda davom ettirib, hayotbaxsh ruhda yakunlay oladi. O`tgan yillar mobaynida tomoshabinlar turli xil zamонави, texnik va texnologik yangiliklarga, kino san'atida paydo bo`lgan apparaturaviy tryuk (hiyla)larga berilib qolgan yoki tovush bilan, yashirin kamera bilan, intervyu va diktör (suxandon) matnidagi gaplarga «aldanib» qolgan paytlari ham bo`lgan edi. Lekin, baribir, texnika o`yinlari emas, balki yuksak saviyadagi fikr, g`oyalar dinamikasi, insonni ezgulikka, o`sishga, taraqqiyotga da`vat etuvchi tafakkur hamisha g`olib chiqishini mana shu filmlar ham isbotlab turganday go`yo.

Mutaxassislar ko`pincha filmlarni sharhlarsiz, matnlarsiz yaratolmaydigan mualliflarni tajribasizlikda ayblashadi. Umuman olganda, bunday ayblash to`g`ri. Tajriba shuni ko`rsatadiki, sharh, izoh, gaplar, tushuntirishlar qanchalar kam bo`lsa, asar sermazmun, ko`rkam bo`lib chiqadi. Bu gap portret janrida yaratilgan asarlarga

ham tegishli. Boshqa bir payt asar mualliflari film uchun to`plangan faktik materiallar yetishmayotganday tuyulganda, shu kamchilikni bekitish uchun kadrlarni fotosuratlar bilan to`ldirib yuboradilar (bu ayniqsa, memuar xarakteridagi filmlarga tegishli).

Bularning hujjatli kinoga qanchalik aloqasi bor? Umuman, «sof dokumental kino» tushunchasi – nima o`zi? Hujjatli (dokumental) kino ko`pincha janrlarga bo`linadi. Xronika, reportaj, kinoplakatdan tortib psixologik (ma`naviy) portretgacha, ilmiy ocherk, badiiy ko`rinishdagi kinolar, yo`l manzaralari qayd etilgan kinokundalikdan tortib – pamphlet va publitsistik biografiyagacha bo`lgan janrlarda kartinalar yaratish mumkin. Har bir janrda yaratilgan filmning o`ziga xos fazilatlari ham, kamchiliklari ham bo`ladi. Ularga qo`yiladigan talablar ham turlicha. Ba`zan kartinalardagi janr xususiyatlari bir-biriga aralashib ketishi ham mumkin.

Ba`zan mualliflar kinomaterialni «tiriltirish» uchun o`zlaricha instsenirovka (sahnnaviy harakat)larni kartinaga kiritmoqchi bo`ladilar va bularning uddasidan chiqadilar ham. Mana shunday yorqin iste`dodli rejissyorlardan biri ko`plab qiziqarli filmlar yarata olgan ijodkor – T.Ahmadxo`jaevdir. U – izlanuvchan ijodkor, doim yangi-yangi mavzu, yangi ifoda usullarini tavsiya qilib yuradigan rejissyor. Uning yaratgan «Alisher Navoiy» filmi badiiy asarlarga yaqin bo`lgan betakror uslubi shoirona ruhda tasvirlangan o`tmish davr manzaralari bilan e`tiborni tortadi. Umuman, bu muallifning tarixiy mavzulardagi asarlari ancha ta`sirli: tarixiy shaxslar biografiyasini ishonchli va to`la yoritish bo`yicha bunday izlanishlarni olqishlash lozim.

T.Ahmadxo`jaevning uslubiyati qirg`izistonlik yana bir ijodkor Bolotbek Shamshiev uslubiga ancha yaqin. B.Shamshiev ham o`zining «Manaschi» filmini ekranga chiqarganda, yangi film atrofida ko`plab bahs va munozaralar bo`lib o`tgani edi. Gap shundaki, Shamshiev bu filmda dokumental-biografik mavzu doirasidan chiqib ketgan, film xalq oqini haqida mualliflik hikoyasidan tashqari, 1916 yilgi qo`zg`olonga oid kino va fotokadrlar bilan to`ldirilgan edi. Ushbu «qo`shimcha»lar filmdagi bosh mavzuni to`laligicha yoritishga ko`maklashishdan tashqari, filmning tomoshabinga ta`sirini bir necha bor oshirgan, voqealarga ishonchlilik, davr ruhini singdirishda beqiyos xizmatlar qilgan edi. Yana bir e`tiborli tomoni shundaki, ba`zi bir mualliflar voqealiga ta`sirini oshirish uchun badiiy lavhalar orasida hujjatli kinonining ifoda usullarini ishlatgan paytlari ham bo`lgan. Masalan, turkman rejissyori Bulat Mansurovning «Bellashuv» filmidagi usul o`zbek rejissyori Toshxo`ja Akramovni «Shoshmaqom» telefilmidagi usuliga yaqin.

Bizningcha, janrlar orasida bunday «olish-berish»lar, tajriba uchun amalga oshiriladimi, boshqa maqsadlardami, «chegaradan oshib ketmasligi», qolaversa mualliflarning maqsad-niyatlarini oqlab chiqa olishi kerak. Mana shunday eksperiment-lavhalar atoqli rus kinohujjatchilari Fradkin va Tyapkinlar ishlagan Pushkining oxirgi kunlari haqidagi filmda mavjud. Unda jonsiz narsani filmda «jonlantirish» usuli ishlatilgan va bu o`zini oqlagan. Pushkin hayotining oxirgi kunlaridagi qo`lyozmalari sharhlanadi va mahorat bilan ishlangan filmda malakali sharhlar ulug` shoirning ijod qilish jarayonini yorqin va jonli lavhalarda yoritib beradi.

Dokumental filmlarda ishonchlilik, haqiqat, tarix va voqelik faktlarini obrazli qabul qilish, «kinohaqiqat»larning mohiyati borasida bahs-munozaralar, asosan, o'tgan asrning 70-80-yillarida bo'lib o'tgan edi. Filmda rejissyor va operatorlar tomonidan sahnalashtirilgan voqeа emas, balki hayotdagi real voqeaning o'zini tasvirlashni talab etadigan maqolalar vaqtı-vaqtı bilan matbuotda hamon chop etilib turadi.

O'zbekistonlik ijodkorlar biror-bir atoqli odam, olim, yozuvchi, xo'jalik rahbari haqida yangi asar yaratganlarida shunga o'xshash savollar matbuotda, uchrashuvlardagi bahs-munozaralarda eshitilib turadi.

O'zbekiston kinohujjatchilar yaratgan asarlar orasida portret janri – eng ko'p yaratilgan va ekranga ko'p chiqariladigan sevimli janrlardandir. Bunday filmlar respublika studiyasining javonlarida eng ko'p o'rinni band etib, ular asosan fan va madaniyat, san'at, adabiyot va jamoat arboblariga bag'ishlangan. Masalan, «13 qaldirg'och» milliy Fan maktablarini yaratish maqsadida ilm yo'lini tanlagan ilk qaldirg'ochlar haqida hikoya qiladi. Bu qatorda yana «Muallim», «Lyuba, Roza, Abdulla», «Tojixon bilan uchrashuv» filmlarini ham tilga olib o'tish mumkin. Estetik nuqtai nazardan hamma asarlar bir xil saviyada chiqmaydi. Agar M.Qayumovning «Tojixon» asarida stilistikaga ko'p mashaqqatlar bilan erishilgan, ko'pchilikka tanish bo'lган kadrarda inqilobdan keyingi sovet davri dastlabki yillarining nafasi kelib turadi. «13 qaldirg'och» kartinası – bu asar haqida maqtov so'zlar va e'tiroflar ko'p aytilgan. Film aslida ancha siyqalangan, «akademiklashgan» va biroz «sovuz» asarlardan.

Nimayam derdik, izlanishda ham izlanish bor, har qanday ijodkor, san'atning qaysi janrida ijod qilmasin – u izlanadi, o'rganadi, o'qiydi, o'ylab topadi va hokazo. Hayoti boshqalarga o'xshamagan, o'ziga xos bo'lgan, material-voqealarga boy, faktlarga to'lib-toshgan odam haqida hikoya qilinganda ham, oddiy bir odam, o'rtamiyona san'atkor haqida asar yaratilganda ham ana shu qoidalarga amal qilinadi. Bu yerda hamma gap – muallifning materialga qay tomondan yondashganligiga bog'liq. San'atda inson taqdiri, shaxs kechinmalari tadqiq qilinar ekan, bunda eng avvalo, insoniylikning o'zidan kelib chiqib harakat qilinadi. Bir paytlar respublika studiyasida yosh rejissyor Bahodir Muzaffarovning Sh.Rashidov, A.Qodiriy, Nodirabegim haqidagi asarlari xuddi bomba portlagan paytlardagiday o'ta effektli bir holatni vujudga keltirgan edi.

Ba'zan shunday bo'ladiki, bitta stsenariychining asarlarining o'zida turli xil stilistik qarama-qarshiliklar uchrab qoladi. J.Teshaboevning ikki asarini –«Ne'mat Qo'ziboev», «Ilhom» nomli filmlarini tahlil qilib ko'raylik. Birinchi asarda muallif biografik ocherk-asar yaratish uchun siyqasi chiqqan eski yo'ldan borgan bo'lsa, ikkinchi asarida yoshlik shijoati, kuchi, g'ururini ko'rsatish uchun navqiron avlod vakillari -Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Damir Ro'ziboevlarning fikrmulohazalariga boy bo'lgan, ta'sirli kechinmalari asosida filmning emotSIONALLIGINI oshira olganini ko'ramiz.

Sirasini aytganda, dokumental kinoda, xudi boshqa ijod turlarida ham bo'lgani kabi, ikki xil tendentsiyaga duch kelish mumkin: biri – u yoki bu hodisa haqida axborot berish, vaqt qoldirgan izlarni ekranda muhrlash niyatidagi xronikal

asarlar bo`lsa, ikkinchisi s`yomkalar ob`ektini chuqur o`rganishga asoslangan, qahramonning ichki kechinmalarini, xarakterini, dunyoqarashini tushunib yetish va tomoshabinga yetkazib berish yo`li. Filmlar uchun mana shu yo`llardan qay biri tanlanmasin, har biri ham «yashashga haqli». Demak, bitta hodisaning o`zi haqida turli nuqtalardan turib, turlicha gapirish mumkin.

S.Muratov o`zining kitobida «Atom olovi» nomli o`zbek kinosi (telefilmi) haqida fikr yuritadi. Film yosh olim hayotiga bag`ishlangan. Muallif uning kundalik hayoti «oddiy»ligini e`lon qiladi. Yosh olim kuniga ikki marotaba shaharni «kezib» chiqadi: ertalab ishga borayotganida va kechqurun ishdan qaytib ota uyiga kelayotganida. Olim ishlaydigan muassasa – Toshkentdagি 30 ta mana shunday muassasalardan biri.

Kitob muallifi, taniqli tanqidchi ekranda tirik insonni - o`z taqdiriga, xarakteriga, o`ziga xos hayotiy faoliyatga ega bo`lgan insonni ko`rish istagi qanoatlantirilmaganligi haqida gapiradi. «Yigirma daqiqa davomida biz olimning nima bilan band ekanini bilib olamiz, u fizik olim ekan, uning tajriba laboratoriyasida sirli asbob-uskunalar ko`zga tashlanadi. «Lekin, - deb izoh beradi muallif, - olimning qalbida qanday ijodiy olov yonayotganini o`lchovchi hisoblagichlar hali o`ylab topolganicha yo`q.» Muallif o`zining fikrini kinoyaomuz mulohazalari bilan tugatadi: xuddi uning xarakteri va taqdiri ham ochilmay, sirliligicha qolgani kabi, olimning ijodiy shaxsi haqiqatan ham biz uchun noma'lumligicha qoladi.<sup>25</sup>

Muallif S.Muratovning zaharxandali, achchiq-tizziq gaplari shu tariqa ancha davom etadi. Odamni o`ylantirib qo`yadigan, xafa qiladigan tomoni shundaki, uning nazariga ilinib, tanqidga uchragan film – «O`zbektelefilm» studiyasi tamg`asi ostida 70-yillarda ekranga chiqqan emish (?!). To`g`risini aytganda, biz studiya mahsulotlari ro`yxatidan izlay-izlay, qidira-qidira, bu nomdagi filmni topolmadik. Ba`zi bir parametr o`lchamlariga ko`ra taxmin qilib ko`radigan bo`lsak, bu rejissyor S.Ahmadxo`jaevning «Rustam Rahimov. Intilgan nur» nomli filmi emasmikan? Gap shu haqida ketmayaptimi? deb ham o`yladik. Ammo S.Ahmadxo`jaevning asari bunchalik tepkilab tanqid qilishdan baland turadigan asar. Ikkinchidan, uning asari 90-yillar oxirida ekranlarga chiqqan. Muallif bu filmida zamonaviy o`zbek olimining obrazini yaratib bergen-ku!...

Umuman olganda, «O`zbektelefilm» studiyasi mahsulotlari orasida hayotiy voqealarni to`la qamrab ololmagan, bugungi kunning to`la ma`nodagi qahramonlari yetishmayotgan yoki qahramonning ichki dunyosini to`la ochib berolmagan filmlar hozir ham uchrashi mumkin. Studiya rahbariyatining vazifasi o`tmishdagi yo`l qo`yib kelingan xatolarni takrorlamaslikdir.

Mahoratni oshirish, «rasmiy» dokumentalistikaning dogmatik ko`nikish maydonlarini yurib o`tish jarayonida, o`sha yillarda qisman respublika xronika studiyasida va endi ish boshlagan telekinematografchilar ko`pqatlamlı hayotiy materiallarni tahlil qilishning ma'lum chegaralarini tomoshabinlarning bevosita kuzatuvi va ishtirokida izlanishga va topishga muvaffaq bo`ldilar.

Atoqli rus shoiri Aleksandr Blokning bir fikri bor, unda shunday deyiladi: «Tasodifiy chiziqlarni o`chir, dunyo go`zalligini shunda ko`rasan...» Rasmiy

<sup>25</sup> Муратов С. Пристрастная камера. с.127.

dokumentalistika har qanday tasodifni yo`qqa chiqarib, real hayotiy materialni o`rtamiyona narsaga aylantirib bera olsa, haqiqiy dokumental san'at hech qanaqa tasodifiy narsalardan o`zini olib qochmaydi, aksincha, uni mustahkam qayd etgan holda, uning qonuniyliginining asl mohiyatini namoyon eta oladi.

## 2. Niyatdan - ijroga

Hujjatli kino rivojlana boshlagan yillardan buyon bir masala- stsenariyning zarurligi masalasi bo`yicha bahs-munozara tinmaydi. Ba`zi rejissyorlarning aytishicha, stsenariy bo`yicha asar yaratish o`ta murakkab ish, sababi, hayot - tirik jarayon, u bir nuqtada tinch to`xtab turmaydi, voqealar ketma-ketiga ro`y berib turgan bir paytda, ularni tasvirga olishning o`zi bo`lmaydi. Boshqa bir rejissyorlar dramaturgiyasiz hujjatli film yaratish mumkin emas, deb hisoblashadi. Stsenariyni asarning bosh g`oyaviy-ijodiy tayanchlari deb izohlovchilarni ham yoqlamasdan bo`lmaydi, albatta. Muallif niyati ham, mavzu ham stsenariyda o`z ifodasini topadi, umuman, film mohiyatini mana shu stsenariydan izlash lozim. Studiyada bu kabi nazariy munozaralar amaliy ahamiyat kasb etadi. Xullas, iste'dodli va malakali rejissyor yetuk va qiziqarli asar yaratish niyatida ekan, uni hamisha bitta masala bezovta qilib turishi kerak, deb o`ylaymiz, bu - zamon talablariga mos, mahorat bilan yozilgan dramaturgiya masalasidir.

Albatta, yechimi qog`ozdagina bo`lgan yasama mavzular bor, qani, shulardan asar yaratib ko`ring-chi, chiqarmikan?!

Voqeа bo`ladigan asar (film) – bir necha iste'dodlarning yoki iste'dodli insonlardan tashkil topgan guruhlarning birga ishlash, bir maqsad yo`lida bosh qo`shishlaridan yaraladi. Masalan, rejissyor N.Mahmudovning «Uloq», rejissyor-operator B.Narzullaevning «Tulporim», E.Davidovning «Bu - kurash» filmlari ana shunday vaziyatlarda yaratildi. Shunday ekan, jarayonning eng kerakli zarur lahzalarida ishtirok etishi lozim bo`lgan g`oya muallifining xizmatlaridan ko`z yumib bo`ladimi axir?

Ijodiy jarayonda ba`zan shunday bo`ladiki, stsenariychining fikri rejissyornikidan ustun bo`lib chiqadi va u faktlarni qanday qilib asarga aylantirish, voqealar shiddatini oshirish borasida rejissyorga o`rgata tashlaydi. Masalan, sovet kinosida turli yillarda K.Simonov, K.Slavin, Yu.Xanyutin, M.Turovskaya, V.Goroxov, Yu.Karavkin, A.Strelyanniy, S.Zelikin kabi mualliflar - mashhur ideologlar bo`lib sanalardi. Ularning bevosita ishtiroki natijasida yaratilgan «Jangchi borardi», «Jangchi xotiralari», «Oddiy fashizm», «Arxangellik erkak», «Shinov va boshqalar» filmlari o`z zamonasining dolzarb mavzulariga bag`ishlangan bo`lib, filmlar belgilangan voqealarning qachon yuz berishini rejalashtirish, voqealar rivojining turli variantlarini taqdim etish, shu bilan birga, stsenariyda mo`ljal qilib olingan yo`nalishdan chetga og`maslik kerakligini ham ko`rsatib turar edilar.

Hujjatli film yaratishda stsenariy muallifining umumiy ishga ta'siri qanday bo`lishi kerakligini quyidagi bir voqeа ham ko`rsatib bera oladi. Rejissyor E.Shubning «Ispaniya» filmiga matnni atoqli yozuvchi V.Vishnevskiy yozib bergen edi. Mahoratli adibning qalami ostidan chiqqan so`zlar eshitganlarning vujudini shu

qadar junbushga keltirar ediki, muallifga qoyil qolmaslikning iloji yo`q edi. Har bir gapdagi ko`tarinki ruh butun filmni zabit etib, tomoshabinni qimirlatmay qo`yardi.

90-yillarda respublikamizda televizion kino rivojining o`ziga xos xususiyati tahlil qilinayotgan materialga nisbatan ijodiy novatorona munosabatlar kurashida vazifa yechimiga standart yondashuvlar topish kerak edi.

Umuman olganda, ko`pgina kinotelevizion tasmalar biror-bir mazmunga ega emasligi, illyustrativligi bilan ajralib turadi. Asarda aniq va original maqsad yo`qligi uni o`zligidan (qiyoferidan) ayirib qo`yadi. Endi, «illyustrativ (ko`rgazmali) uslub nega buncha keng yoyilgan?» degan savolga javob izlab ko`raylik. Gap shundaki, avvalo bu uslubda asar yaratish oson ko`chadi, ya`ni bu uslubda hammayam film yarataverilishi mumkin. Ikkinci tomondan, bu uslub haqiqat borasida ham illyuziya (xayol) yaratib qo`yadi, ya`ni muallif «hayotdagi aniq faktlarni bayon qilayapman» deb o`yaydi. Turli xil dalil-guvohlar topib keltiradi va shu bilan haqiqatga erishdim, u mana, yonimda turibdi, deb o`yaydi. Bu ko`pincha stsenariyni yozish jarayonida bo`lib o`tadi. Yoki stsenariychiga biror mavzu haqida yozish taklif qilinadi, stsenariychi yozishga kirishadi, keyinroq borib esa, muallifning bu mavzu bilan tanishligi ma'lum bo`lib qoladi. Ana endi ko`ring, stsenariychi faktlarni sanab tashlayveradi, ob`ekt tevaragida maqtovlarni yog`diraveradi-yu, ammo mavzuning asl mohiyatini oshib berolmaydi.

Illyustrativ uslub muallif uchun faktlardan xulosa yaratish, ularni boshqa faktlar bilan solishtirish, asl haqiqatning tagiga yetish imkonini bermaydi. Masalan, stsenariy shunday uslubda yozilgan bo`lsa, u ob`ektni ta`rif qilib berishi mumkin xolos, «teranlikda yotgan haqiqatgacha yetib borish» imkonini yaratolmaydi, u tomoshabinga ham faqat shu so`zlarga ishonishni taklif qiladi, ammo ongli, idrokli, ta`sirchan ravishda ishontira olmaydi. Tomoshabin ham ekranda bo`lib o`tayotgan voqealarga befarq qarab o`tiraveradi.

Fikrni obrazli qilib ifodalab berishdan ko`ra, u yoki bu xilda illyustratsiyalab berish oson. Lekin ayni vaqtida bu uslub mazmunli bir natija ko`rsatish uchun tirishayotgan rejissyorning imkonini ham «toraytirib» tashlaydi. «Obraz» tushunchasi illyustratsiyaga nisbatan hamisha «hajmliroq» bo`ladi. U bizga qahramonni tanishtiribgina qo`ymasdan, tomoshabinni fikrlashga undashi, uning his-tuyg`ularini uyg`otishi, assotsiatsiya keltirib chiqarishi lozim. Obraz – kuzatilayotgan material doiralarini kengaytirib yuboradi, tasavvurlarimizni yangi bir umumlashgan saviyaga ko`taradi.

«Hujjatli kinematografchilar, - deb yozadi Yu.Martinenko, - inson obrazini yaratishda asosan, ikki xil uslubdan foydalanadi, birinchisi – insonni to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatish, ikkinchisi – uni aks ettirish. Kinohujjatchilar asar qahramonining o`zini ko`rsatmoqchi bo`lganlarida, birinchi uslubni qo`llaydilar. Mabodo, qandaydir sabablarga ko`ra qahramonni ko`rsatishning iloji bo`lmasa, bunday holda ikkinchi uslubdan foydalaniladi»<sup>26</sup>.

Misol uchun o`zbek kinohujjatchilarining asarlarini olib ko`raylik. Ulug` ajdodlarimiz, dunyodan ko`z yumgan fan, texnika, san`at arboblari haqidagi filmlar ikkinchi guruhga mansub deb qaraladi. S.Ahmadxo`jaevning «Zahiriddin Muhammad

<sup>26</sup> Мартыненко Ю. Документальное киноискусство. –М.: Знание, 1979, с.32.

Bobur» va «Xoja Ahror Vali», T.Ahmadxo'jaevning «Abdulla Qahhor», Sh.Bizaatovning «Abdulla Qodiriy», B.Ahmedovning «Unutmas meni bog'im» (Usmon Nosir) va «Shayxzoda», M.Solievning «At-Termiziy», N.Qo'ldoshevning «Al-Buxoriy», Sh.Xo'jaevning «Kamoliddin Behzod» asarlarini mana shu guruhga qo'shish mumkin.

Ushbu guruh mualliflari mavzuga tegishli faktlar yo'qligidan, amal-taqal qilib, «obraz»larni o'zлari yaratishlari kerak. O'tmishdagi Navoiy, Bobur kabi ulug' shaxslar bundan besh yuz yillar ilgari yashab o'tdilar, ularning asarlaridan boshqa zamondosh kishilarning ular haqidagi xotiralaridan boshqa hech narsa yo'q. Mana shunday paytda filmning vujudga kelishda muallifning o'ylab topgan to'qimalari, taklif va mulohazalari asosiy o'rinn tutadi. Endi shunday paytda obrazni tomoshabin ko'zi oldida gavdalantira oluvchi narsalar - qo'lyozma kitoblar, miniatyura rasmlari, me'morchilik namunalari, boshqa filmlardan «qarz»ga olingan fragmentlar yordamga keladi. Endi mualliflar qo'li yetguday joydagi har bir materialdan har bir faktdan unumli foydalanishi, faktlarni ochiq-sochiq, tarqoq holatda emas, balki bitta kompozitsion yo'nalishga solishi kerak bo'ladi.

Ba'zi bir rejissyorlar esa izlanishlarni davom ettirib, yana boshqacha bir yangiliklarni izlab topish uchun harakat qila boshlaydilar. Masalan, rejissyor T.Ahmadxo'jaev filmning tuzilishiga badiylashtirilgan sahna ko'rinishlarini ham aralashtirib, qo'shib yuboradi. Agar asar syujetida aktyorlarning rol o'ynashi ko'zda tutilayotgan bo'lsa, hujjatli asardagi obraz darhol yangicha yondashuvlarni «talab eta boshlaydi». Bunday uslublar ijodda qanday qonuniyatlarni taqozo qiladi? Badiylashtirilgan kadrlar asarda faktning muayyanligiga dahl qilmaydimi? Film mazmuniga-chi? Qarama-qarshilik kelib chiqmaydimi ikki o'rtada?

Boshqa taniqli hujjatli filmlardan keltirilgan misollar ham faktlardan chekinish vaziyatlarida ehtiyyotkor bo'lish kerakligini talab etadi. Hayotiy materialga haqqoniy yondashilar ekan, qo'llaniladigan har bir uslub, har bir xatti-harakat asarning hujjatli film ekanligini «ta'kidlab turganday», o'zlashib-singishib ketishi lozim.

Atoqli kinematografchi Roman Karmen «Kaspiy neftchilari haqida qissa» filmini yaratish chog`ida hujjatli asarning syujet oqimiga bir nechta badiylashtirilgan lavhalardan ham qo'shdi. U o'z filmida neft toshlarining yaratilish tarixini tiklamoqchi bo'ldi va hatto asarida dengizdagi to'fon kadrlarini namoyish qildi, vaholanki ushbu kadrlar studiyaning o'zida, kombinatsion usulda yaratilgan sun'iy to'lqinlardan iborat edi.

Xo'sh, «filmni asosiy baholovchilar-tomoshabinlar qanday qabul qildi?» dersiz. Tomoshabinlar filmni qizg'in kutib oldilar, ataylab «uyushtirilgan» kadrlar film maqsadini ochib berishda chunonam yarashib tushdiki, natijada barcha epizodlar muallifning maqsad-niyatlarini tarannum etishga yordam berayotgani ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston studiylarida yaratilgan asarlar ham turli xil stilistik uslublardagi epizodlardan foydalanishda boy tajribalar toplashga turtki berdilar. Portret-filmlar talablari asosida yaratilgan «Ismoil Jalilov kuylaydi», «Olmaxon Hayitova kuylaydi» singari asarlar qatorida, «Botir Zokirov. Tugallanmagan qo'shiq», «Mirzo Ulug'bek»,

«Amir Temur» kabi va boshqa asarlarni erkinroq uslublardagi filmlar deb aytish mumkin.

Umuman olganda, «O'zbektelefilm» studiyasi rejissyorlarining ko'pchiligi qandaydir bir «temir» qoidalarga asoslanib, dogmatik uslublarda faoliyat olib boradigan ijodkorlar emas, balki hujjatli asarlarda ham o'zlarini ko'proq erkin tutadigan, yangilik va kashfiyotlar qilish yo'lida mehnat qiladigan, izlanuvchan, tirishqoq xodimlardan iborat. Ular fakt va hayot haqiqatlarini o'z holicha ko'rsatish, ularga hiyonat qilmaslik borasida, fakt mohiyatini to'la ochib berishga xizmat qiladigan har qanday imkoniyatdan filmni boyitish uchun foydalanish yo'lida tinimsiz mehnat qilaveradilar.

Mabodo kadrlarda shuhratparastlik maqsadida, g'arazli lavhalardan, hayot haqiqatini bezab-bo'yab ko'rsatadigan ko'rinishlardan foydalanilsa – asardagi bosh maqsad - hujjatlilik boy beriladi. Yana Vertovning bir fikrini qayd etib o'tishga to'g'ri keladi, uning mulohazasiga ko'ra, «hayotni bor-boricha, asl holicha tasvirlash – bu maqsad emas, balki vositadir. Shunday ekan, «rost ko'rsatyapman» deydigan har bir hujjatli filmda «badiylyashgan sahna o'yinlari» aralashadigan lahzalar bo'ladi. Dziga Vertov va butun dunyo kinodokumentalistikasi tajribalari shundan darak beradiki, hayot haqiqati va badiiy haqiqat bir-birlarini to'ldirgan chog'da hujjatli kinodagi kashfiyotlar yuzaga chiqadi.

Studiyamiz ochilgan ish boshlagan kunlardan to bugungi kungacha yaratilgan filmlar orasida ana shu jihatlari tufayli tilga tushgan asarlar ishonarli va qiziqarliligi bilan e'tiborni tortib keladi.

Masalan, rejissyorlar H.Ibrohimov, Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo'jaev, B.Ahmedov, R.O'tkirov, Sh.Bizaatov, T.Ahmadxo'jaev, V.Mirazimov, N.Qo'ldoshev, N.Mahmudov, I.Mirzaev, F.Davletshin, Sh.Xo'jaev va boshqa rejissyordarning asarlarini mutaxassislar ko'pincha «hayot haqiqatiga yaqinligi va qiziqarliligi bilan e'tiborni tortadi», deb baholaydilar. Ushbu nomlarning har birining asarlarida o'zlariga xos bo'lgan fazilatlar, o't-olov, bilim va boy tajriba aks etib turadi. Ularning faoliyatida ham ba'zi nuqsonlar uchrashi mumkin, bu ham tabiiy, albatta, ammo filmlardagi yangiliklarga, uslub, shiddat, izlanish sur'atiga qarab, har birining o'ziga xosligini aniq belgilash mumkin.

Yosh rejissyorlar ularning safiga kirib, qo'l-qanot bo'lib, asar yaratishga kirishar ekanlar, albatta, o'zlaridan ko'ra tajribaliroq bo'lgan salaflarining ish uslublaridan foydalanar ekanlar, hujjatli filmlar hayotiy fakt va manzaralardan iborat bo'luvchi san'atga daxldor ekanini anglab yetadilar.

Bugungi o'zbek kinohujjatchilarining bosib o'tgan tajriba va mahorat yo'li - hujjatli kinodagi har qanday yangilanish jarayoni, kinochilarining o'zлari uchun ham, tomoshabinlar uchun ham beta'sir o'tmaganligidan darak beradi.

Hujjatli kinoning zaxira imkoniyatlari ko'pchilik hollarda asarning dramaturgik asosiga bog'liq bo'ladi. Ustiga ustak, stsenariy muammosi hujjatli kino dunyosida eng bahstalab masalalardan ekanligini yodda tutsak, muammoning qanchalik jiddiy ekanligi yaxshi anglashiladi. Endi, hujjatli kino uchun hech qanaqa stsenariyning keragi yo'q, deydigan mutaxassislarning ham gap-so'zlarini tinglab ko'rish kerakki, balki ularning mulohazalarida ham jon bordir? Real hayot

voqealariga asoslangan mavzuning u yoki bu tomonning biriga aylanib ketishining imkonlarini qanday qilib oldindan sezish mumkin? Umuman, dokumental asar bo`lgandan keyin, bu asarga syujet zarurmi yo yo`qmi? Hujjatli kino borasida bunday jo`yali gaplar ta`kidlangach, filmlarning ekranga chiqishi uchun stsenariy yozishning zarur ekanligini maslahat beradigan studiyachilarning tajribadan o`tgan ish uslublari bilan kelishmaslikning iloji yo`q. Nega shunday, dersiz? Gap shundaki, filmning mavzusidan tortib, uning tuzilishi, g`oyaviy hamda obrazlar yechimigacha barchabarchasi aynan stsenariy yoziladigan pallalarda hal bo`lib bo`ladi. Ya`ni film ijodkorlarining niyati tasvir ob`ektini tanlashdan tashqari, mo`ljal qilinayotgan mavzuni yoritib berish vositalrigacha, hamma-hammasini oldindan belgilab beradi. Oldindan belgilash haqida gap ketar ekan, yana shu faktni ham hisobga olib qo`yish lozim – u yoki bu asarni yaratishni studiyaning ish rejasida oldin mo`ljallab qo`yilgan bo`ladi. Ya`ni «Chekingga tushsa - chekchayma» degan maqol mazmuni mana shunday vaziyatlarda aniq namoyon bo`ladi. Oldindan rejalashtirib qo`yilgan asarning muvaffaqiyatli chiqishi yoki chiqmasligi qo`lga olinayotgan mavzuning yangiligi, dolzarbliji, material qiymatining mazmun-mohiyati, qolaversa, muallifning ana shu mavzuni yoritishga qay darajada tayyor yoki tayyor emasligiga ham bog`liq bo`ladi.

Yana bir gap: hujjatli kino dramaturgiysi o`z xususiyatiga ko`ra, badiiy asardan tubdan farq qiladi. «Hujjatli kinosan`at stsenariychisining vazifasi, - deb yozadi Yu.Martinenko, - ma`lum voqealarni tahlil qilish, fikrlab ko`rish, xarakterli jihatlarini baholay olishdan iborat».

Mazkur muallif yana shunday yozadi: «Stsenariy hayotiy faktlarga dramatik shakl bag`ishlaydi, voqelikdan kelib chiqadigan mantiq taqozosiga ko`ra, hodisalarini yanada reallashtiradi, ekranga moslaydi».<sup>27</sup>

Bu borada nazariyotchi I.Strekovning quydagi aytgan mulohazasini ham o`rinli ta`kid deb hisoblash mumkin: «Stsenariyni – tasvirga olinadigan ob`ektlar to`plami, deb o`ylash xato bo`lur edi. Stsenariylarning asosiy vazifasi – u yoki bu hodisalarining mohiyatini, hayotning u yoki bu tomonini aks ettirishdan iborat. Voqelikning mohiyati esa, o`sha hayotning o`zidan orqada qolishi mumkin emas».<sup>28</sup>

Shu bilan bir vaqtda, asarda stsenariychining ishtirokini rejissyorning ishtirokidan ko`ra ahamiyatliroq, deb qarash ham to`g`ri emas. Bu mulohazani adib K.Simonovning quydagi fikri ham isbotlaydi. Asarda muallif (stsenariychi)ning ishtiroki ahamiyatini zarracha kamsitmagan holda, atoqli adib film taqdiri uchun ko`proq rejissyor, uning qo`li ostidagi jamoa - operator, assisententlar, montajchilar ishtiroki - hal qiluvchi ish-harakatlar ekanligini ta`kidlaydi.<sup>29</sup>

Atoqli adibning ushbu fikri yana shuniyam anglatadiki, hujjatli asar stsenariysi – bir marta yoziladi, ammo ishning borishi davomida u son-sanoqsiz marotaba o`zgarishlarga uchraydi, ya`ni tasvirga olish jarayonidagi barcha bosqichlarda stsenariy bir necha marta o`zgartiriladi, to`ldiriladi, takomillashtiriladi. Bir paytlar o`zi yozgan «Jangchi borar edi» filmi orqali jahonga tanilgan bu adibning

<sup>27</sup> Мартыненко Ю. Документальное киноискусство. –М.: Знание, 1979. с.36.

<sup>28</sup> Стреков И. Документальный фильм –М.: Искусство, 1960, с.56.

<sup>29</sup> Искусство кино, 1975. №7, с.176.

asardagi stsenariychi ishtiroki borasida aytgan gaplari juda muhim va halol mulohazalardir. Albatta, bunday ta'kidlarning kim tomonidan qanday maqsadlarda aytilganidan qat'iy nazar, bu ta'kid stsenariyning film taqdiridagi mas'uliyatini zarracha pastga tushirmaydi. Zero, filmda ko`p sonli dramaturgiya vositalari- syujet, fabula, kompozitsiya, obraz xulq-atvori, muallif izohi kabi janrga oid usullarning boy zahirasini ishlatish, eng avvalo, muallifning zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

Ammo bundagi boy imkoniyatlar ham hujjatli asardagi tahlil mohiyatini, ro`y berayotgan voqelikning mazmunini buzib talqin etmasligi kerak.

«O`zbektelefilm» studiyasida ham hujjatli kino dramaturgiyasi masalasiga, stsenariychilarga juda katta hurmat bilan munosabatda bo`ladilar. Buning sababi shundaki, turli yillar va turli xil filmlarning yaratilishida ko`plab iste`dodli va tajribali dramaturglar: Sh.Zayniddinov, G`Rasulov, J.Teshaboev, E.Dubrovskiy, V.Niyozmatov, Ye.Taubenshlag, O.Xmelnitskaya, H.G`ulom, L.Kamarovskiy, L.Gurevich, A.Sheynefeld va boshqalarning samarali faoliyatini yaxshi eslaymiz. Ana shu stsenariychilar izlanishlar, yangiliklar tufayli o`zbek dokumentalistikasida o`ziga xos iz qoldirdilar, samarali faoliyat ko`rsatdilar. Ular, eng avvalo, dolzarb mavzularda qiziqarli va original stsenariy yozib, rejissyorlarimizga tavsiya qilar, syujetni yanada mukammallashtirish borasida studiya xodimlari bilan maslahatlashar edilar. Hayotiy tajribalar va adabiy mahoratdan misol keltirib, qiziq-qiziq voqealarни gapirib berar edilar. San`at haqidagi bahs-munozaralar tufayli, ekranga chiqqan hujjatli asarlar obrazli tuzilmalar, fikr tiniqligiga, ya`ni haqiqiy san`at asarida mavjud bo`lishi kerak bo`lgan fazilatlarga ega bo`lardi. Quyida badiiy jihatdan ijobiy baholangan hujjatli teleasarlar ro`yxatini keltirib o`taylik: «Muvaffaqiyat formulasi» (muallif I.Abduxoliquov, rej. B.Ahmedov), «Katta poyga» (F.Rashidov, T.Ahmadxo`jaev), «Qadimgi shaharning yosharishi» (O.Xmelnitskaya, Sh.Junaydullaev), «Umidni asrang» (M.Olimov, R.O`tkirov), «Hamid Qoraboev» (S.Blagov, S.Ahmadxo`jaev), «Rassom Ro`zi Choriev» (J.Teshaboev, A.Ahmadxo`jaev), «Bir umr davom etgan raqs» (G.Sutyagin, E.Davidov), «Bir ariza tarixi» (Otboqarlar) (M.Olimov, N.Mahmudov), «Uzun yo`ldagi uchrashuv» (F.Xo`jaev, N.Qo`ldoshev), «Orol tevaragida» (M.Chernova, Sh.Mahbubov), «Vaqtga bo`ysunmaydi» (L.Gurevich, N.Qo`ldoshev), «Senga shahar hadya etaman» (A.Esin, R.O`tkirov).

Tajribalar shuni ko`rsatadiki, tasvirga olish jarayonida stsenariy shunchalik o`zgarib ketadiki, bu hujjatli asarning dramaturgiyasiga ham ta`sir etadi, mavzuning yangi-yangi qirralarini ochib yuboradi. Aynan rejissyor asarning u yoki bu joyini, voqealar oqimini o`zgartirib yubora oladi. Buning o`ziga xos sabablaridan biri shundaki, rejissyor tasvirga olayotgan olam - turg`un va harakatsiz, qotib qolgan bir narsa emas, balki doimo harakatda bo`lgan, ko`pqirrali xilqatdirki, tomoshabin dunyonи, voqealarни qanday holatlarda qabul qilayotganini ko`pincha muallif anglamasligi ham mumkin. Stsenariy bo`yicha asar suratga olinayotgan paytda vaziyat taqozosiga ko`ra stsenariy voqealarini o`zgartirilganligiga mashhur rejissyor Mixail Romm yaratgan «Oddiy fashizm» filmini misol qilib ko`rsatishimiz mumkin.

Germaniyada natsistlar hukmronlik qilgan davrda fashist operatorlari tomonidan minglab plyonkalar orasida oddiy odamlar taqdirini, turmush tarzini

tasvirlab bera oladigan birortayam kadrni rejissyor topa olmagan. Barcha kadrlarda shahar ko'chalari bo'y lab shahdam qadamlar bilan yurib borayotgan fashist askarlari yoki ularni fashistlarcha qiliqlar bilan qutlayotgan ko'cha odamlarinigina suratlari mavjud edi. Mana shu kadrlardagi suratlarning barchasini to'plab ko'zdan kechirib chiqqach, Romm shuni aniq tushunib yetdiki, fashizmning qiyofasi, uning qiliqlari, atvori – bari mana shu basharalarda edi. Ya'ni, ushbu kadrlar fashizmning asl basharasini, totalitarizm balosining falsafasini fosh qilib berayotgan edi, ammo minglab kadrlarning birortasida ham oddiy insonnnig o'z taqdiriga, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan tirik insonlar tasvirlangan kadr qo'l harakatlari ila bir-birlarini tabriklayotgan, paradga tizilgan jangchilar orasida nutq so'zlayotgan fashist sarkardalarining millatchilik bobida nutqlari orqasida qolib ketgan edi. To'plangan hamma suratlar bitta qo'lga yig'ilib, ko'zdan kechirilganda, fashizm obrazi butun mohiyati ila namoyon bo'ldi. Shunday qilib, butun material filmning ijodiy lahzalarini, siyosiy ahamiyatini belgiladi-qo'ydi.

Bo'lajak kinoasarning tuzilishini o'ylab chiqqan stsenariychi ba'zan suratga olish maydonchasida yangiliklar, original xatti-harakatlar dunyoga kelib qolishi mumkin deya, improvizatsiyadan umid qilib, kadrlar orasida qandaydir bir ochiq joylarga o'xshash joylar qoldiradi. Bu kamera oldidagi qahramonning xatti-harakatlarini bilib bo'lmaslik, bashorat qilib bo'lmaslikdan kelib chiqadi. Qahramonning xarakterini, uning inson sifatidagi mohiyatini anglash-anglatish uchun hujjatli kinochilar turli xil usullarni qo'llaydilar. Masalan, intervyu olish, provokatsiya (yolg'on tahdid uyuştirish), yashirin kamerada suratga olish usullari – ana shunday yo'llardir. Syujet orqali faqat voqealarnigina emas, balki xarakterni ham shakllantirish mumkin. «Katyusha» obrazini yoritish uchun rejissyor Viktor Lisakovich o'ylab topgan turli xil yondashuvlarini eslab ko'raylik. «Kulayotgan odam» filmida mualliflar qahramonga nozik, mohirona savollar berish orqali uning xarakterini ham ochib bergenlar.

Hujjatli kinematografiyadagi o'zgarishlar jarayoni ko'pincha darrov namoyon bo'lavermaydi. Bu esa, nafaqat kinoijodkorlar uchun, balki tomoshabinlar uchun ham og'irlik qiladi, toliqtiradi. Ammo bu yo'l - baribir o'tiladigan yo'ldir. Ijodiy izlanishlar bilan band bo'lgan o'zbek kinohujjatchilarining asarlarida ham buni ochiq-oydin ko'rish mumkin. Ularning ijodidagi izlanishlar, topilmalar va yutuqlarning hammasi haqidayam gapiravermasdan, ijodlaridagi xarakterli, umumiy tomonlar haqida qayd qilib o'tish joiz. Hujjatli kino uchun zarur bo'lgan qonuniy xususiyatlar – ishonchlilik va hujjatlilik endilikda kinodokumentalistika ishida qaytadan o'z mavqeini tiklab olayotir. Kinohujjatchilar 70-80 yillardagi faoliyat davrida hayotni tadqiq qilish yuzasidan erishgan usullar: yashirin kamera, tovushni sinxron yozib olish, shuningdek, «kinohaqiqat» deb ataluvchi boshqa usullardan muvaffaqiyat bilan foydalaniib keldilar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, hujjatli kino sohasidagi yangiliklar katta ekranga tomon yo'l olganlarida ba'zi qiyinchiliklar, mashaqqatlar, sarf-xarajatlar kelib chiqishi ma'lum. Har qanday studiyada, shu jumladan, respublika xronika studiyasi va «O'zbektelefilm»da ham «chiroyli» va «tarashlangan» kinoning muxlislari, g'ayritabiyy rakurslar va xush yoqadigan kompozitsiyalarning

ishtiyoqmandlari bo`lgan odamlar bor edi. Bunday kinoarboblar iflos ko`chalaru, soqoli o`sib ketgan erkaklarni suratga olishga «uyalishar», lekin ipak-parchadan chophonlar kiygan, velosiped minib, shahar ko`chalarini to`ldirganicha saf tortib borayotgan mo`ysafidlar - dehqon qariyalarni zavq-shavq bilan kinoga olar edilar. Albatta, bunday ololyanob usullar umumiyl ishga hujjatli kinoning rivojiga hissa qo`sholgani yo`q.

«Nima bo`lishidan qat’iy nazar, - deb yozadi stsenariychi K.Slavin, - kinohujjatchi haqiqiy hayotdagi haqiqiy faktlar, yasama bo`lmagan faktlar bilan uchrashish uchun o`zini chog`lab boradi. Kinohujjatchi faktlardan qo`rqmasligi, birinchi bor ko`rishda ular qanday bo`lsalar, shu holatda tasvirga olishi lozim. Kinohujjatchi hayot bilan yuzma-yuz uchrashuvdan qochmasligi, hayotdagi noxush manzaralarni oldindan tayyorlab qo`yilgan «xush kayfiyat uyg`otuvchi» kadrlar bilan almashmasligi lozim». <sup>30</sup>

Iste’dodli dramaturg so`zlarining isbotini biz «O’zbektelefilm» studiyasida yaratilgan ko`plab filmlar timsolida ham ko`rib chiqishimiz mumkin. Rejissyor S.Ahmadxo`jaevning «Hayot qonuniyati», «Rassom Samig` Abdullaev» kartinalari, T.Ahmadxo`jaevning «Portret», N.Mahmudovning «Yilqichilar», Sh.Xo`jaevning «Muhabbatning sehrli navolari», F.Davletshinning «Rassom Rahim Ahmedov» va boshqa bir qator filmlarda faol harakatda bo`lganliklarini, zamonaviy mavzularda jonli, hayotiy asarlar yaratganligini ko`rishimiz mumkin.

Mazmun va uslubiy jihatdan rang-barang bo`lgan bu ishlar shuni ko`rsatmoqdaki, hozirgi zamonda hujjatli kinematografiya amaliyotida jamoat orasiga ham, inson faoliyatining turli-tuman sohalariga ham kirib boraverishi mumkin ekan.

Ishga tushib, faoliyat ko`rsata boshlaganidan keyin, qisqagina vaqt ichida «O’zbektelefilm» studiyasida iste’dodli yoshlar, ekran qadriyatlarini yaratishda, yangiliklar kashf etishda izlanishlardan va mashaqqatlardan cho`chimaydigan hujjatli kino sohasiga sodiq xodimlar, o`z ishining chinakam fidoyilari bo`lgan kishilar yig`ilgan edi.

Sohaning tirishqoq tashabbuskorlari, rahbarlari, bular - rejissyorlar edi, albatta. Rejissyorlarimiz muallifning taklif qilgan stsenariylarining dastlabki xomaki nusxasidan boshlaboq, asarning shakllanishi, so`nggi ishlarigacha ishtirok qilishib, maslahatlarini ayamasdan, film yaxshi chiqishi uchun chinakamiga jon kuydirishar edi. Ko`pincha stsenariychilar ham barcha ishni rejissyorning zimmasiga yuklab, «endi bu yog`iga men ozodman, o`zlarining tugatib qo`yaveringlar» deb qarab turmas, aksincha, ular ham rejissyor, assistent va boshqa xodimlar qatori filmning ohangi, ritmini, falsafasini yaratish, yangiliklar topib qo`shish ishlarida birgalashib ishlardilar. Respublikamizda taniqli dramaturglar: E.Dubrovskiy, G.Gurkov, Yu.Korovkinlar mana shunday ijodkorlar edi.

90-yillardan va shundan keyingi davrlardan boshlab «O’zbektelefilm» studiyasi dokumental kinematografiya taraqqiyotidagi yangi yanada yuksakroq bosqichga chiqdi.

<sup>30</sup> Современный документальный фильм. –М.: Искусство, 1970, с.48.

Bu davrga xos bo`lgan xususiyat shundan iborat ediki, hayotiy voqelik va faktlarni aks ettirish bo`yicha sohadagi ifoda vositalarini yangilash va o`zgartirish, badiiy jarayonning shiddatini, zamonaviylikni anglash, uni tomoshabinlarga yetkaza bilish, professional-ijodkor xodimlar va mualliflar, operatorlar, montajchilar, assisentlar, ovoz yozib oluvchilar safini turli xil kasb egalari, mahoratli mutaxassislar bilan to`ldirib borish davom etdi.

Natijada esa, rejissyorlardan tortib, barcha xodimlarimiz hujjatli filmlarda xarakter yaratish, yangi qahramonlarning ichki dunyosini chuqur tahlil qilish bo`yicha xarakterlarni tipizatsiyalash va individuallashtirish tiplarga va shaxslarga ajratish yuzasidan qilingan ishlari yaxshi samaralar berdi.

Mana shunday samarali ishlagan, televideniemiz obro`sini baland ko`tarishga hissa qo`shgan, televizion kinematografiya sohasida uzoq yillar xizmat qilib, san`atimizda o`chmas izlar qoldirgan iste`dodli rejissyorlardan bir nechtasini shu o`rinda eslab o`tish joiz deb bilaman.

Iste`dodli ijodkor, taraqqiyparvar rejissyorlarimizdan biri - Abror Qosimov edi. Bu rejissyor turmush voqeliklariga nisbatan hozirjavob, ijodiy izlanishlarda ziyrak, kinodokumentalistika sir-asrorlarini mukammal egallagan mutaxassislardan bo`lib, u 70-yillardayoq o`z ishining mohir ustasi, studiyamizning eng faol rejissyorlaridir biri, bilimdon va mahoratli xodim sifatida tanilgan edi. Uning yaratib qoldirgan eng yaxshi kinoasarlari quyidagilardir: «Sharq mo`ysafidlari» (Buxorodagi qadimiylar inshootlar haqida), «Uyg`ur oilasi» (Musiqiy asboblar yasaydigan oila haqida), «Ajoyib qorabayirlar» (Nasldor otlar haqida), «Iste`dod chashmasi» (Ulug` kinoaktyor Asad Ismatov hayoti haqida), «Chotqol qo`riqxonasida», «G`ilon» (shu nomli qishloqda yashovchi odamlar haqida lirik asar), «Denov g`aroyibotlari» va hokazolar.

Afsuski, bu izlanuvchan ijodkor hayotni erta tark etib ketdi, taqdir unga yana ozgina umr qo`shib berganda bormi, rejissyor sifatida ijodkor inson sifatida ko`plab yaxshi asarlar yaratib bergen bo`lardi...

O`zbek kinodokumentistikasi tarixida yorqin iz qoldirgan yana bir iste`dodli rejissyorlardan biri Nizomiy Mahmudovdir. Ming afsuski, bu ijodkor xodimimiz ham kinodokumentalistika sohasini erta tark etib, ma`muriy ishlarga o`tib ketdi. Mahmudov – VGIK (Moskva)da o`qib kelgan, ko`proq badiiy filmlar yaratishga ixtisoslashgan edi. U inson va tabiat munosabatlari bag`ishlab «Kosmogoniya», sayyoramizning flora va faunasi haqida «Hujum», O`zbekiston poytaxtining inshootlari, qadamjolari haqida «Toshkentga xush kelibsiz!», xalq o`yinlari haqidagi «Uloq», Andijonlik o`qituvchi haqida yaratgan «O`z yo`lingni top!», «Yilqichilar» («Bir ariza tarixi») kabi asarlar yaratdi. Bularidan tashqari, u bir qancha badiiy asarlarga ham rejissyorlik qildi.

Studiyamizda faoliyat ko`rsatgan ko`pgina rejissyorlarni sof ma`nodagi «hujjatli kino xodimi» deb atab bo`lmashdi, ular turli yillarda badiiy asarlar yaratish ishlariha ham bosh qo`shgan iste`dodli insonlardir. L.Boboxonov, Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo`jaev, B.Ahmedov, A.Qosimov, Sh.Bizaatov, R.O`tkirov, E.Davidov, N.Mahmudov va boshqalarni ana shunday turli kino sohalarida xizmat qilib, tajriba orttirgan mutaxassislar sifatida e`tirop qilishimiz kerak. Ularning ijodida ko`proq

badiiylikka yon bosish, hujjatli kino olamida ham badiiy filmlar, rol o`ynaladigan sahnalarbop o`rinlar mavjud bo`lganligini aytib o`tish lozim. Ammo rejissyorlarimiz o`zlaridagi bu xil «nuqson va kamchiliklarni» ko`pam namoyon qilavemaslikka tirishar, xronikal-hujjatli kino yaratishda ular o`z ishlariga o`ta jiddiy munosabatda bo`lar edilar.

Masalan, ekran sohasida o`zining noyob iste`dodini to`la namoyon etib, betakror ajoyib filmlar yaratayotgan rejissyor Eduard Davidovning ijodiy faoliyatini olaylik. Haqiqiy ekran ijodkori sifatida tanilgan bu rejissyor avvalambor o`ziga xos va sho`x-o`ynoqi hujjatli kinolari bilan mashhur bo`ldi. «Buxoro ertaklari», «Boysunda qor eridi», «Xivacha ajrim», «Toshkent navolari», «Arxeologlar», «Bukurash» va boshqa shu kabi asarlarida O`zbekistonimizning mashhur va muqaddas qadamjolarini, ota-bobolarimizdan meros bo`lib qolgan noyob kasb-hunar va me`morchilik inshootlarini, Buxoro, Samarcand, Xiva singari qadimiy shaharlarimiz haqida yorqin, jonli, esdan chiqmas, go`zal manzaralarni tasvirga oldi. Keyinchalik bu iste`dodli rejissyorimiz milliy sportimizning atoqli vakillari – Vladimir Shin («G`oliblar»), Artur Grigoryan («Ring ustidagi bayroq»), Muhammadqodir Abdullaev, Namanganda bo`lib o`tgan spartakiada musobaqalari haqida («Kelajak yulduzları») qiziqarli filmlar yaratdi.

«O`zbektelefilm» studiyasi tarixida o`ziga xos yorqin iz qoldirgan yana bir ajoyib ijodkorimiz – Farid Davletshindir. «Naqqosh Madalievlar sulolasi», «Haykaltarosh Ilhom Jabborov», «Musavvir Rahim Ahmedov» singari asarlarda u noyob rejissyorlik qobiliyatini namoyon eta oldi va asar qahramonlarining tashqi qiyofasini namoyish etishda ham, ichki qiyofasini, kechinmalarini yoritib berishda ham o`ziga xos mahorat egasi ekanligini ko`rsatdi.

Tilga olib o`tilgan filmlar - o`zbekistonlik rejissyorlarning o`z kasblarida kamol topib, tobora yuksak cho`qqilarni ko`zlay boshlaganidan darak berar, ular yaratgan asarlar dunyoga mashhur hujjatli filmlar ijodkorlarining ishlaridan aslo qolishmasliklarini dunyo miqyosida isbotlagan asarlardan.

Hujjatli kinoda ijodkorlarning chinakam iqtidorini namoyon qiladigan qirralardan biri – ijodkorning hayotidagi real voqealarga qanchalik yaqin yashashi, o`tib borayotgan jarayonlarga aralashib-kirishib ketishiga daxldor qobiliyatidir. «Kino hujjatchi, - deb yozadi taniqli mutaxassis Yoris Ivens, - o`zini o`rab turgan olamdan uzoqlashar ekan, shu orada u albatta, o`zini ham yo`qotadi». Ushbu ta`kid barcha ijodkor rejissyorlar ijodiga tegishli bo`lgan umumiy qonuniyatdir. Ammo, shunga qaramasdan, kinoijodkorlarning iste`dodi, dunyoqarashi, tushunchalari turlicha bo`lgani sabab, ba`zi rejissyorlar kuzatib turgan manzarasidan o`ta real ma`no-mazmun chiqara olsalar, ikkinchi bir xillari shu manzaralarga oid fakt va vogeliklardan poetik ma`no chiqarishga, reallikni she`riy nafosat va kechinmalarga o`rab berishga moyil bo`lishadi.

Shu o`rinda qayd etib o`tish zarurki, keyingi paytlarda hujjatli kino olamida muallifning o`rni nihoyatda yuksalib ketdi. Studiyalarda yangicha dunyoqarash, hayotni va ijodni boshqacha tushunish, badiiy o`ziga xoslik, qahramon obrazini mukammal tarzda ochib berishda zamonaviy yondashuvlar namoyon bo`layotgan

hozirgi davrda kinohujjatchilar yaratayotgan asarlar matbuotda ham hozirjavoblik bilan, professional saviyada tahlil qilib borilayotgani ham bejiz emas.

Teledokumentalistika sohasida 80-90 yillarda zavq-shavq, tashabbuskorlik ko`rsatib ishlagan rejissyorlardan biri - Ravshan O`tkirov bo`ldi. Ajoyib iste'dod sohibi, yangilikparvar, syujet yaratish ishlarining ustasi, obrazli vositalarni o`z asarlarida keng qo`llovchi bu ijodkorning kinohujjatchi sifatida to`plagan tajribasi ham boy bo`lib, u lirik va romantik ruhdagi kayfiyatdan muammoli lahzalar tasviriga darrov, ustalik bilan o`tib keta olar, yoki har qanday epizoddagi manzaradan zamonaviy muammolarga o`ziga xos yechim topib beradigan mutaxassis edi. «Sizga noma'lum Buxoro», «Kun tartibida», «Bog`imga kiring», «Umidni asrang!», «Uyimiz shu yerda», «Kelajakka qarab uch qadam» filmlari uning ijodida eng yaxshi, namunali asarlar hisoblanadi. Rejissyor sifatida u o`z niyatlarini samarali amalga oshirish maqsadida hujjatlari kinodagi juda ko`plab tasviriy vositalardan, jumladan, kuzatuv, reportaj, intervyu, «voqealarni qayta tiklash» usullaridan foydalanishni juda yaxshi o`zlashtirib oldi.

O`tgan yillar mobaynida Bahodir Ahmedov, Shuhrat Bizaatov, Nodir Qo`ldoshev, Rustam Shermatov, Shavkat Mahbubov singari rejissyorlarimiz ham samarali mehnat qilib keldilar. Ularning izlanishlar doirasi keng, turli-tuman. Ular televizion san'at asarlarining o`ziga xosliklari hisobga olingan holda film yarata olishlarini ko`p marotaba isbotlaganlar. Sh.Mahbubochning «Zomin», N.Qo`ldoshevning «Bizning uylar Qizilqumda», «O`g`lim haqida», B.Ahmedovning «Olis kelajak», G`Boboevning «Ehtiyyot bo`ling, traktor!» asarlari, Sh.Xo`jaevning «Dirijyor Dilbar Abdurahmonova» va ko`plab shularga o`xshash filmlar qisqa, obrazli shaklda, dokumental ocherk janri talablari asosida yaratilgan. Mazkur rejissyorlar xalqimiz tarixi va madaniyatiga doir mavzularda talaygina filmlar yaratgan bo`lib («Asrlar navolari», «Assalomu alaykum, Utsav», «To`xtang, lahzalar», «Yangra, dutor», «Feruza», «Keksa jirovning qo`shiqlari», «Zaydanachining siri»), ularda qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizning, momolarimizning ming yillik san'ati, kasb-hunarlari, musiqiy zakosi tarannum etiladi.

Shu o`rinda, «O`zbektelefilm» studiyasidagi ijodim samarasi o`laroq, uzoq tajriba to`plab, «Muvaffaqiyatlar garovi», «Taqdir chorrahaları», «Ostonadan hatlab o`t», «Bekajon», «Izlanish sari yo`l», «Rahima Rajabovaning shaxsiy fikri», «Doktor Gelios» kabi asarlar kinodokumentistikamizda dolzarb muammolarga bag`ishlangan, davrimizning jiddiy masalalari ko`tarilgan filmlar yaratilishiga hissa qo`shishga tuyassar bo`ldim.

O`tgan yillar mobaynida F.Xo`jaev, Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo`jaev, T.Ahmadxo`jaev kabi rejissyorlar ham jiddiy va keng miqyosli ijodkor ekanliklarini o`zlarining filmlari orqali namoyish eta oldilar. Ular kinodokumentalistika sohasining boy imkoniyatlari: turli xil janr shakllaridan, filmning badiiylashtirilgan stilistikasidan, yashirin kamera, muallifning kadr ortidan ovoz berishi, hujjatlari kinoning boshqa original usullaridan foydalanish kabi samarali ishlarni amalga oshirdilar.

Ular ijodkor-rejissyor sifatida film qahramonlarining hayotini, faoliyatini ulkan ijtimoiy voqeliklar fonida yoritib berishni ancha mukammal o`zlashtirib oldilar.

Ushbu yillar orasida rejissyor H.Ibrohimovning «Har doim bo`lsin quyosh», rejissyor R.Shermatovning «Bo`zsuv marjoni», rejissyor V.Leshtaevning «To`quvchi» filmlari hujjatlari asarlarning turli xil katta-kichik tanlovlardida mukofot va diplomlar bilan taqdirlandilar.

Ko`pgina rejissyorlarimiz telefilmni o`ziga xos nozik jihatlarini, tashqi o`xshashliklarini batafsil va chuqur o`rganib chiqib va bir-birlariga payvastlab, yangi ko`rinishdagi musiqiy telefilmlar namunalarini yaratdilar. Masalan, rejissyor L.Inozemtseva «Menga qo`shiq suratini chizib ber», rejissyor N.Qo`ldoshev «Qalbda asra xalqning navolarini», Sh.Xo`jaevning «Nasiba» filmlari ana shunday asarlardandir. «O`zbektelefilm» studiyasida yaratilib, teleekranlar orqali tomoshabinlarga yetkazilgan ushbu asarlarda tavsirga olishning televizion-kinematografiya usullari, «jonli televidenie» xususiyatlari bo`rtib turganligiga qaramay, sezilar-sezilmas nuqsonlar filmlarning umumiy badiiy saviyasiga, jamoa haqidagi ijobiy fikr-mulohazalarga ta`sir o`tkaza olmadilar.

O`zbek hujjatlari kinochilarining ko`pchilik tan olib, e`tirof etadigan bo`lsa ham, yutuqlari asosan, quyidagilardan iborat: so`zda namoyon bo`ladigan hujjatlifodaviylik, ya`ni muallif yoki film ishtirokchilarining nutqi orqali anglashiladigan hujjatlilik -bunda xarakterlar ekranida asosan, muallif sharhi, dialog va monologlar orqali ochib beriladi.

Hozirgi zamon milliy telekino sohasidagi taraqqiyotning o`ziga xosliklari, filmlarning omma tarafidan e`tirof qilinadigan ijobiy qirralari ko`pincha mavzu va janr rang-barangligi bilan bog`liq. Hozir ham, xuddi avvalgi yillarda ro`y berib kelgani kabi, TV dasturlarida publitsistik ohang kuchli jaranglayotgan asarlarga ehtiyoj katta. Zamonaviy talab va ehtiyojlar aynan mana shunday asarlarni tomoshabinlar diqqatiga havola etishni ma`qul ko`rishi, umuman, olganda tushunarli, albatta. Lekin bu yerda filmlar saviyasi, mahsulotlar sifati, badiiyat borasida ham fikr-mulohaza qilish joiz bo`ladi.

Studiyada yaratilgan ba`zi lentalarda film syujetidagi ichki dinamika (sur`at, shiddat) yetishmayotgani, filmlarning plastik usullardan ko`ra, mualliflik matnidagi gaplarning ustunlik qilayotgani sezilib qoladi. Shu bilan birga ba`zi hollarda film bosh-oyoq tasvirdan iborat bo`lib, hech qanaqa gap-so`z, nutq, muallif sharhi ishlatsilmaydigan asarlar ham tajribada yaxshi baholangan, tomoshabinlarga ma`qul kelganini ham unutmaslik lozim. Avvalgi sahifalarda tilga olib o`tganimiz – rejissyor M.Solievning «Akmal» telefilmida hech qanday so`z, gap ishlatmasdan, film qahramonining xarakterini faqat tasvirlar, manzaralar, epizodlar orqaligina ifodalab berilganini bilamiz.

Telehujjatchi-kinoustalar o`z ijodida ba`zan filmotekadagi asarlardan material to`plab, shular asosida ishonchli kinopublitsistika yaratib, muallif g`oyasini asar hajmini belgilashda, tomoshabinlarga ma`qul tushadigan yangi bir asarni jozibali, diqqatga sazovor asar darajasiga yetkazish uchun mehnat qilishlari ham studiyamizda tajribadan o`tgan usullardan hisoblanadi. Masalan, S.Ahmadxo`jaevning «Shayxontoxur» va «Daniil Demutskiy», N.Qo`ldoshevning «Shuhrat Abbosov» va

«Shukrullo», B.Narzullaevning «Lutfulla Nazrullaev», B.Ahmedovning «Latif Fayziev», «Shayxzoda» va «Oybek» filmlari anna shunday kinoasarlardandir. Bunday «montaj»li mizan-sahnani tashkil qilish, filmni boshqa asarlardan ko`chirib olingan materiallar bilan boyitish, unda matbuot xabarlaridan, boshqa xil matnlardan, intervyulardan foydalanish uchun ham rejissyor ma'lum bir malaka oshirish amaliyotini o'tashi, ya'ni o'z ishidagi ma'lum tajribalarni «o'zlashtirgan» bo'lishi kerak.

Arxiv va filmoteka materialalaridan foydalangan holda kino yaratish sohasida hozirgi kunda ham samarali mehnat qilib kelayotgan kinoijodkorlardan Nodir Qo`ldoshev («Mening Toshkentim» telefilmi), Irkin Mirzaev («Sarg`aygan maktublar»), Bahodir Ahmedov («Bunyodkorlik» va «Muqaddas ziyoratgoh») filmlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Ko`pgina rejissyorlarimiz esa, insonning jonli obrazini yoritishda to`g`ridan-to`g`ri reportaj, sinxron yozuvdan faol foydalanish, intervyu kabi janr usullarini qo'llagan holda, qahramonlarning ichki kechinmalarini tabiiy sharoitlarda yorqin, ishonchli ochib berishni niyat qilganlar. Iste'dodli kinohujjatchi sifatida tanilgan Sh.Bizaatov san'atimiz va madaniyatimizning o'lmas qadriyatları, shu qadriyatları yillar va asrlar osha avaylab-asrab kelayotgan xalq iste'dodlari haqida ko`pgina asarlar yaratdi. Uning «Qiziqchi», «Askiya», «Maqom» va boshqa filmlari xalq orasidan chiqqan nodir iste'dodlar, ularning iqtidoriga bo`lgan munosabatlar haqida hikoya qiladi, tomoshabinlarni ana shunday nodir iste'dodlarga avaylab munosabatda bo`lish kayfiyatiga da'vat etadi. O`z personajlarining ma'naviyatini, jismoniy imkoniyatlarini tadqiq qilishda, tomoshabinlar kadrlardagi voqelikka ishonch bilan qarashlarini ta'minlash uchun bu rejissyor ekran san'atiga ko`pgina yangiliklarni olib kirdi, kinoning tasviriy imkoniyatlarini kengaytirdi.

Hujjatli kino nazariyasida janr masalasi ko`plab bahs-munozaralarga sabab bo`lib kelayotir. Hozirgi zamон kinodokumentistikasida to`plangan tajriba shundan darak beradiki, bu boradagi yangi-yangi fikr-mulohazalar vaqtı-vaqtı bilan matbuotda muhokama qilinib, film yaratishdagi turli xil izlanishlar, usullar masalalari soha mutaxassislari nazariga yetkazib turiladi. Jahon hujjatli kino san'atida o`chmas iz qoldirgan «Aranlik odam», «Turksib», «Kaspiy neftchilari», «Katyusha» kabi shedevr-asarlar, Torndayklar kartinalari, E.Moren, K.Marker, J.Rush yaratgan filmlar, shuningdek, o'zimizning Bahodir Muzaffarov, Shuhrat Mahmudov, Damir Salimov, Ravshan O'tkirov, Nizomiy Mahmudov va boshqalarning telefilmlari ham hujjatli kino uchun janr chegaralari, «begona» hududlar yo'qligini necha marotaba isbotlab berdi.

2000 yillar boshida «O'zbektelefilm» studiyasi zamonaviy texnika vositalari, yangi-yangi kinoapparaturalar bilan ta'minlanib, «ochiq kamera»da ishslash mashaqqatlari ortda qolib ketdi. Yangi apparaturalar juda ixcham va ishslash uchun qulay bo`lib, hujjatli kino namunalarini yaratishda, ishchi muhit imkoniyatlarini yaxshilashda, mikrofonlarni avvalgidek u yer - bu yerkarta yashirib yurmasdan, ixchamgina qilib, xohlagan joyga ilib qo'yish uchun imkoniyatlar yaratdi. Natijada esa, kinotadqiqotlarning asosiy ob'ekti bo`lgan film personajlari avvalgidek «mikrofondan qo`rqish» illatidan ozod bo`lib, o'zlarini butunday emin-erkin

sezadigan, xohlaganicha gapiradigan, xohlagan xatti-harakatlarini qiladigan erkinliklarga erishdi.

Ammo tajriba shuni yana bir bor isbotladiki, agar kamera ko'tarib, tasvirga olayotgan odam ichki madaniyatdan, zakovat va fahm-farosatdan, ijodiy o'y-xayollardan, bir so'z bilan aytganda, iste'doddan mahrum ekan - har qanday yangi apparatura ham, zamonaviy asbob-uskunalar ham a'lo darajadagi mukammal film yaratish uchun imkon yarata olmaydi. Bungayam misollar yetarli miqdorda.

Kinorejissyorlarimiz to'qima voqealarni rad qilib, o'tgan yillarda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan endilikda xoli bo'lishga tirishib asar yaratishga kirishar ekanlar, hujjatli kinotelemahsulot yaratishning yangi badiiy imkoniyatlarini o'zlashtirishda sira charchash bilmay, malaka orttirmoqdalar.

Studiyamizning yuksak professionallar doirasiga oid tajribali kadrlari mana shunday, filmdan-filmga malaka, tajriba oshira borib, o'z sohalarining mahoratli ustasi, betakror usullar kashfiyotchilari, ijodiy tafakkur sohiblari sifatida kamolga yetdilar.

Hujjatli kinochilar safida (oxiratlari obod bo'lsin) katta iste'dod sohibi Shuhrat Bizaatov o'ta qobiliyatli rejissyorlarimizdan edi. U chin ma'noda milliy telekinoning rivojlanishiga yillar mobaynida katta hissa qo'shib ketdi. Uning eng zavqli asarlari o'zbek xalq musiqiy janriga san'at sohalariga bag'ishlanib, ushbu san'at namoyondalari haqida publitsistik his-hayajonlarga boy asarlar qoldirdi. U yaratgan «O'zbek sirk», «Dorbozchi Toshkentboevlar», «Og'a-inilar», «Tamaraxonim» va boshqa filmlar – ana shunday asarlardandir.

Studianing juda ko'plab xodimlari faqat o'z ishining ustalari bo'lib qolmasdan, barcha barmoqlaridan hunar tomchilab turadigan serqirra iste'dod sohiblaridir. Ular asardan-asarga o'sib borib, endilikda turli xil mutaxassisliklarni ham egallab, o'z sohasida yuksak malakalarga ega bo'lib olayotganliklarini aytib o'tish - har tomonlama ibratli bo'la oladigan voqealardir. Masalan, rejissyor Lyudmila Garmashning ijodiy faoliyat yo'lini olib ko'raylik. U o'ziga topshirilgan har qanday vazifani a'lo darajada yakunlashga tirishadi. L.Garmash yaratgan «Kamolot yo'llari», «Talabalik - oltin davrim», «Ona yurt jamoli», «Terrorchi basharasi» kabi filmlar - hujjatli teleasarlar orasida garmonikasi, yangi fikr-mazmuni, malakali montaj ishlari, o'ziga xos manzara tasvirlari bilan yodda qoladi.

Adabiyot sohasida bo'lgani kabi syujet masalasi kinoda ham ko'plab bahsmunozaralarga sabab bo'lib kelayotgan masalalardan hisoblanadi. Mumtoz ma'nodagi syujet yo'nalishi har bitta filmda bo'lishi shartmi? Masalan, Mixail Rommning «Oddiy fashizm», Roman Karmenning «Kaspiy neftchilari», Malik Qayumovning «O'zbekistonimizga keling!» kabi filmlarida asar syujetining mustahkam asosga ega bo'lganligi garmonik jihatdan film badiyatini ta'minlagan. Filmdagi xabar yuksak badiiyatni ta'minlashga yoki biron-bir maqsadga qaratilgan bo'lsa, reportaj asarlarda ham syujet bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu borada o'zbek kinodokumentalistikasi taraqqiyoti tarixida yorqin iz qoldirgan syujetli filmlar – «O'zbek madonnasi» (rejissyor F.Xo'jaev), «Boychechak» (rejissyor S.Boboev) kabi filmlarni ko'rsata olamiz. Umuman, san'atning ushbu yo'nalishida yirik mutaxassis,

malakali rejissyor bo`lib yetishgan S.Ahmadxo`jaev, ayniqsa, havas qilsa arziguлик yutuqlarga erishdi. VGIKda o`qib yurgan vaqtidayoq rejissyorlik va operatorlik mahoratini mukammal o`zlashtirgan bu hamkasbimiz studiyada ish boshlagach, o`nlab qisqa va mazmunli, original asarlarni teletomoshabinlar diqqatiga havola etdiki, biri-biridan ajoyib «Andijon – Bobur vatanı», «Imom at-Termiziy», «Rassom Samig` Abdullaev» kino-portret filmlari, kasb-hunar sohiblari haqidagi «Aka-uka Bo`rievlar», «Osmonga yo`l» kabi filmlarini aytib o`tish mumkin.

Asardan-asarga o`tib ortib borayotgan malaka, zamonaviy apparaturalar bilan jihozlangan ish sharoiti, yangicha faoliyat ko`rsatishga imkon yaratadigan qulay maydonchalar qahramonlar bilan muloqotdagi to`sinqarni olib tashlash, asarlardagi «jonli» obrazlarning xarakterlarini to`laqonli yoritilishi uchun sabab bo`ldi. Asarlarda dramatik ko`rinishlar, xarakterlar tadqiqi, shu tariqa filmlar mazmuniga ham ta`sir qilib, eng yaxshi filmlarimizni jahon miqyosida tan olingen namunalar darajasiga ko`tardi. Mana shunday katta kino yo`liga chiqqan elga tanilgan rejissyorlarimiz Ahror Akbarxo`jaev, Jasur Ishoqov, Shuhrat Mahmudov, Nozim Abbosov «O`zbektelefilm» rejissyorlari Shavkat Junaydullaev, Saidbotir Ahmadxo`jaev, Shuhrat Bizaatov, Eduard Davidov, Irkin Mirzaev asarlarida murakkab taqdirli qahramonlarning hayot yo`li, mehnati, ish faoliyatları, orzu-umidlari va kechinmalari o`z aksini topdi.

O`zbek kinodokumentistikasining so`nggi yillar tajribalarida obrazlarni tasvirlashning murakkab tizimli vositalaridan keng foydalanilayotganini ko`ramiz. S.Ahmadxo`jaevning «Moshtabib», «G`ani A`zamov» filmlarida, N.Qo`ldoshevning «Yunus Rajabiy» va «Shukrullo» asarlarida, E.Davidovning «Akademik Galina Pugachenkova», «Toshkentlik uchuvchi», «Sayyora Qo`zieva kuylaydi» filmlarida, shuningdek, studiyamiz rejissyorlari – B.Ahmedov, Sh.Mahbubov, Q.Karimov, N.Gerasimov ishlarida mana shunday ish tajribalari yaqqol ko`zga tashlanadi.

Albatta, hayot bir joyda qotib turavermaydi, zamon o`zgarishlari, ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o`zgarish va yangilanishlar ba`zan o`z vaqtida, ba`zan esa astasekinlik bilan bo`lsa-da, real voqelik tasvirlarini ekranga olib chiqish imkonini yaratadi. Kino san`ati sohasidagi yana bir illat – ishga «kosiblarcha» munosabatda bo`lish tufayli, filmlarga shablon va stereotiplar kirib kelishi bilan bog`liq. Bu illat ko`pincha ishda yangiliklarga intilmaslik, kashfiyot va yangi topilmalarga diqqat qilmaslik oqibatida kelib chiqadi. Bunday nuqsonlardan qutilib olish ham oson kechadigan ish emas. Faqat haqiqiy iste`dodli mutaxassisgina san`at muammolarinig yechimini topish, mayda-chuyda nuqsonlardan xoli bo`lish yo`lida chinakam harakat qilsagina, maqsadga erisha oladi.

Dokumental kinoda ham dramaturgiya janridagiga o`xshash qonun-qoidalar amal qiladi. «Katyusha» filmidagi eng yaxshi epizodlarning birini tahlil qilar ekan, kinotanqidchi Yu.Martinenko shularni qayd etib o`tgan edi: «Filmdagi psixologik tiniqlik, o`ta haqqoniylig shu darajadaki, bu borada film eng mashhur klassik asarlardagi sahnalar bilan raqobatlasha oladi».<sup>31</sup>

Biz bu yerda faqat rossiyalik kinematografchilarni emas, balki qirg`iz (B.Shamshiev), arman (A.Peleshyan), latish (Yu.Podnieks) filmlarini, shuningdek,

<sup>31</sup> Мартыненко Ю. Документальное киноискусство. –М.: Знание, 1979, с. 60.

o'zbek hujjatli film ustalari yaratgan bir qancha asarlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin.

Aytaylik, detektiv janridagi filmda lirik ohang, romantik yo'nalishdagi voqealar uchrab turgani, yoki bo'lmasa epik asarning o'zida ham dramaturgik, ham fojeaviy, ham komediya unsurlari ishtirok qilgani kabi, dokumental kinoda ham syujet, fabula, kompozitsiya kabi asar qismlari o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi. Ko'pgina filmlarimiz, aynan shu rang-baranglik nimalarda ko'proq namoyon bo'ladi?

O'zbek kinomahsulotlari janr xususiyatlari ko'ra rang-baranglik kasb etgan asarlar qatoriga quyidagi filmlarni ham kiritish mumkin. Masalan: «To'quvchi qiz», «Abdulla Qahhor», «Zarafshon qizlari» kabi film-portretlar, «Ra'no Sharipova kuylaydi», «Tamaraning qo'shiqlari» kabi musiqiy telefilmlar, «Trener» («Murabbiy»), «Shoxsupaga yo'l» kabi sport mavzusidagi asarlar, «Emansipatsiya», «Mardikor», «Orol – mening taqdirim», «Deniskani kim o'lirdi?» kabi dolzarb mavzulardagi publisistik asarlar, «Xivacha ajrim», «Xiva vaqt bilan roppa-rosa soat yettida» kabi musiqiy-yumoristik filmlarni, shuningdek, turli xil mavzularga bag'ishlangan manzarali filmlar, ishlab chiqarishga oid asarlarni, sayohat mavzusidagi filmlarni kiritish mumkin.

O'zbek hujjatli telekinosi o'z taraqqiyoti bosqichlarida ko'pgina maqtanishga arzigulik natijalarni qo'lga kiritdi. Ba'zi parametrlarga ko'ra, janr ko'rsatkichlari hajmiga qaraganda telefilmlar studiyasi hatto hozirgi zamonda respublika studiyalari mahsulotlaridan ham ko'proq mahsulot bera boshladi. «O'zbektelefilm» studiyasidagi ijodkorlar anchagina tashabbuskor, yangilikparvar, xilma-xillikka intiluvchanliklari seziladi. Turli xil kinofestivallarda, tanlovlarda qo'lga kiritilgan diplomlar, filmlarimiz haqida fikr bildirgan matbuotdagi maqolalar ushbu baholarni tasdiqlaydi. Studiyaning kinodokumentistika tarixida ahil, hamjips jamoa sifatida, har xil ijodiy muhitda ham ishlab keta oladigan, talabchan, tirishqoq xodimlardan tashkil topganligi nur ustiga a'lo nur bo'lib, bu filmlarimiz saviyasining ancha yuksak bo'lishini ta'minlab turadi. Ko'pchilik rejissyorlarimiz o'zlarining ish faoliyati mobaynida hamma vaqt mana shunday talabchanlikka, ekran materiallarini professionallarcha, joy-joyida foydalanish, stsenariyni kadrma-kadr o'rin-o'rni qo'yishdan tortib, oxirgi montaj lahzalarigacha ijodiy jarayonda to'la ishtirok etish ma'suliyati ularning ishga bo'lgan munosabatlaridan darak beradi. Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo'jaev, Sh.Bizaatov, E.Davidov kabi ko'plab rejissyorlarimiz ekranga uzatgan asarlarini tomoshabinga ma'qul qila olish yo'lida juda ibratli ustoz-shogirdlik, navqiron ijodkorlik pillapoyasidan o'tib kelganliklari bugungi kundagi yoshlarimizga, sohada endi ish boshlayotgan mutaxassislarga ibrat bo'la oladi.

O'zbek televizion dramaturgiyasi o'z faoliyatida turli xil sinov mashaqqatlarini yengib o'tib, tajriba va malaka to'plagan jamoalardan hisoblanadi. Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy hayoti, islohotlarning borishi, atrof-muhitning chuqur poetik his qilinishi, jonajon yurtimiz dalalarida, mehnat jamoalarida ulug' bunyodkorlik ruhining kezib yurishi va buning ekran orqali tomoshabinlarga «uqtirilishi»da hujjatli filmlar o'rni va roli alohida e'tiborni talab qiladi. Operator A.Avazxo'jaevning xalqaro miqyosdagi ish faoliyati, mavzu doiralari, saviyasi uni hozirgi zamon kinodokumentistikasining tan olingan

arboblari qatoriga olib chiqdi, desak xato qilmaymiz. Anvar Avazxo`jaevning xalqaro mavzulardagi filmlari – «Naganoda bir kun», «Atlanta - 96», «Okean ortidan salom!» sarlavhali ajoyib asarlari, Marat Solievning muallif va rejissyor-operator sifatida yaratgan «Alla», «Oyijon» va operator sifatida «Askiya» va «Latif Fayziev» filmlari, rejissyor-portretchi Temur Ahmadxo`jaevning nozik, shoirona nafosatli asarlarini boshqalarga ham namuna qilib ko`rsatishni joiz deb bilamiz.

Keyingi paytlarda operatorlik sohasida tajriba to`plib, ba`zi filmlarga mualliflik ham qilayotgan Qo`chqor Karimovning filmlari («Kumush Razzoqova», «Galereyada bir oqshom», «Bahor», «Yoz», «Murabbiy») mazkur iste`dodli mutaxassisning atrof-muhit jilolarini o`ziga xos ranglarda ko`ra olishini, telefilmlarimiz kelajagi ishonchli qo`llarda ekanini ham namoyon qilmoqda.

Yana shunday izlanuvchan hujjatli kinochilar safiga Nodir Qo`ldoshev, Irkin Mirzaev, Shuhrat Xo`jaev, Nikolay Gerasimov, Rustevan Islomov, Zoir Hamidov, Rustam Hakimov, Mirvohid Hamidov, Alisher Usmonov va boshqalarni ham qo`shib qo`yish mumkin.

Yuqorida aytib o`tilgan ijobiy fikrlarga qaramay, yangi asr boshlarida o`zbek kinodokumentalistikasi faoliyatida ozgina loqaydlik, ijodiy ruhning sokinlashayotgani sezila boshlandi. Bizningcha, buning ham o`ziga xos sabablari mavjud.

Buning ob`ektiv sabablaridan biri shuki, keyingi paytlarda jahon televideniesi faoliyati va tajribasida o`tgan muhim va «kutilmagan» voqealar - teleserialarning g`olibona yurishi boshlandi. Bunday holatni hozir dunyodagi barcha kattayu kichik telekanallar boshdan kechirayotir. Natijada esa, eng tajribali va malakali xodimlar o`zlarini xohlagan yoki xohlamagan holda «uzun» seriallar yaratish ishtiyoqida boshqa studiyalarga o`tib, ter to`kmoqdalar. Sh.Junaydullaev, B.Ahmedov, S.Boboev, ularga izma-iz esa Sh.Bizaatov, E.Normurodov kabi telefilmda suyagi qotgan mutaxassislar ana shunday “uzun” serialarga berilib ketdilar.

Bu nimani anglatadi? O`zbek televizion filmi ham avvalgi o`ttiz-qirq yillar mobaynida to`plagan tajribalari, yutuqlaridan asta-sekin voz kechib, yoki ularni boy berib borayotganini bildiradimi? Aslo yo`q! Aksincha, studiyada o`z faoliyatlarini davom ettirayotgan navqiron avlod vakillarimiz yangi kuch-g`ayrat bilan ishga kirishib, quvonchli yutuqlarni qo`lga kiritmoqdalar. Biz bu yerda ajoyib iste`dod sohiblarini - L.Garmash, E.Davidov, T.Ahmadxo`jaev nomlarini aytib o`tishni faxr deb bilamiz. L.Garmash o`ziga xos tajriba to`play olgan malakali rejissyorlardan. E.Davidovning har bir asari – tomoshabinlar xotirasida o`chmas iz qoldirib, yangi-yangi asarlarni izlab yurib tomosha qilishga majburlaydigan, har qanday kinotelefestivallarda yoki ko`rik-tanlovlardan maqtov va e`tiroflarga sazovor bo`ladigan filmlardir. Studiyaning yana bir veteran-mutaxassislaridan biri – T.Ahmadxo`jaev mo`ysafid yoshiga qaramasdan, yoshlarga xos kuch-g`ayrat, izlanish va ishtiyoq ila faoliyatini davom ettirayotir. Qolaversa, keyingi paytlarda aynan yoshi anchaga borib qolgan veteran xodimlarimiz xalqaro tanlov va festivallarda turli xil yorliqlarga, mukofotlarga sazovor bo`lib qaytmoqdalar. Asr boshlarida (2000 yilda) E.Davidov asarlarining bir necha xalqaro festivallarda faxriy o`rinlarga sazovor bo`lib kelganligi studiyamiz obro`siga chet ellarda ham ko`tarilib

borayotganini ko`rsatadi. E.Davidov 2000 yilda o`tkazilgan «Uchinchi yevroosiyo teleforumi» tanlovida «Javohir shaharlar» filmi uchun diplom bilan taqdirlangan bo`lsa, o`sha yilning o`zida Yalta shahrida o`tkazilgan teleforumda «Muqaddas daraxtning ildizlari va butoqlari» filmi uchun yana bir faxrli diplomga sazovor bo`ldi. Xuddi shu yili iste'dodli rejissyorlarimizdan yana biri Irkin Mirzaev esa sport jurnalistlari tanlaydigan ro`yxatga ko`ra, sport mavzusini yoritish bo`yicha respublikamizdagi eng yaxshi rejissyor degan e'tirofga erishdi va faxriy diplom bilan mukofotlandi. 2001 yilda B.Ahmedov va L.Garmashlar 4-EvroOsiyo teleforumida maxsus diplom va mukofotlarga sazovor bo`ldilar. 2003 yilda S.Ahmadxo`jaev «O`rmonchi» filmi uchun, Irkin Mirzaev «Gimnastika» filmi uchun turli xil kinoko`riklarda mukofot sohiblari bo`ldilar. Shuningdek, Sh.Junaydullaev, Q.Karimov kabi rejissyorlarimiz turli festivallarda sport mavzusini yoritishdagi eng yaxshi filmlari uchun diplom bilan taqdirlandilar.

Shunday qilib, o`zbek televizion hujjatli kinosi qisqagina vaqt – bor-yo`g`i 45 yilcha vaqt ichida katta va murakkab taraqqiyot yo`lini bosib o`tdi. Ular orasida soddagina teledasturlar uchun yozilgan syujetlardan tortib, film-kontsert va ishlab chiqarish ocherklarigacha, ko`ngilochar badiiy filmlardan tortib, ulkan masshtabli voqealar tasvirigacha, respublikamizdagi turli xalq xo`jaligi sohalari mehnatkashlarining faoliyatidan tortib, milliy iqtisod, madaniyat va sport voqealarini qamrab olingan filmlargacha bor.

Studiyada ishlab chiqarilgan eng yaxshi filmlarda («Zarafshonlik qizlar», «Har doim bo`lsin quyosh», «O`zingni yengish», «Asriy tosh», «Qo`qonlik usta», «Qanday shirin, qanday achchiq bu nektar», «Ko`rinmas dalalar», «Baxtli yashanglar!», «Meni quvib yet, shamol!», «Jo`rovoz», «Murabbiy», «Gimnastika», «Raqs tushishni istayman», «Orol atrofida», «Bir ariza tarixi», «Shayxzoda», «Galereyada bir oqshom», «Integratsiya qirralari» va hokazo) hujjatli tasvirlarning barcha ulkan imkoniyatlaridan kelib chiqib, o`tkir kuzatuv, yashirin kamera bilan tasvirga olish, ovozni sinxron yozish, reportaj, filmoteka va arxiv materiallaridan foydalanish va shular negizida kuchli, dolzarb, publisistik filmlar ishlab chiqarish tajribalariga ega bo`ldi. Ushbu kinodokumentalistika xazinasidan olib, o`zbek mutaxassislarini tomonidan voqealarni qayd etish uchungina emas, balki inson taqdirining tirik chizgilarini ekranda yoritish va shu orqali tomoshabinga ta'sir qilish yo'llari izlab topildi.

Haqiqatga sadoqat bo`lishi uchun, studiyaning ko`pgina xodimlari voqealarni sahnalashtirishdan, yasamaliklardan voz kechib, bu boradagi barcha qiyinchiliklarni yengib o`tib, tasvirga olishning eng zamonaviy usullarini qo`llamoqdalar.

Hujjatli kino - ko`pgina rejissyor va operatorlar uchun dastlabki qadam tashlashda tajriba maydoni bo`lib xizmat qildi, dokumental asarning eng yaxshi an'analari sohada erishiladigan yutuqlarga poydevor bo`lib, ta'mal toshi vazifasini o`tadi.

**UChINChI BOB.  
BADIY KINODA ShAKL VA JANRLARNING  
VUJUDGA KELISHI**

«O'zbektelefilm» studiyasida yaratilgan badiiy kinomahsulotlarning dastlabki bosqichlardagi namunalarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, ko'pchilik sahnalashtiruvchi-rejissyor va stsenariy mualliflari kino san'atining, teatrning tajribalaridan voz kechib, ko'proq televizion film xususiyatlaridan foydalanishga harakat qilganliklarini ko'ramiz. Natijada esa, asar dramaturgiyasi ham, ovoz, tasvir vositalari televideniega yanada moyillashgan, asarda ishtirok qiladigan qahramonlar soni iloji boricha kamaytirilgan.

Ittifoq miqyosida olib ko'radian bo'lsak, bu – televideenie uchun badiiy filmlar yaratish tajribalari endi-endi boshlanayotgan bir davr edi. Masalan, bu vaqtga kelib, M.Boginning «Ikkovlon», V.Orlovning «Natasha», gruzin kinoustalarining «Serenada», «Ko'za» va boshqa filmlarigina ekran yuzini ko'rgan edi. Ushbu filmlarning o'ziyoq televideenie uchun ishlanadigan filmlar o'ziga xos usulda tasvirga olinishi zarurligini isbotlab berdi. Masalan, teleekranga mo'ljallangan badiiy filmlarda hikoya va tasvirda lakonizm (qisqalik), kompozitsiyaning mag'zi to'q bo'lishi, tasvirga olish ishlari yirik planda olib borilishini, ijro borasida ham aktyorlardan anchagini bosiq-vazminlik talab etilishini taqozo qiladi.

O'zbek telekinochilar ham o'z ijodlari mobaynida aynan mana shu bosqichdan o'tishlariga, telekino tajribalarini zarrama-zarra yig'ib, malaka oshirishlariga to'g'ri keldi.

Ilk qarashda, kichkinagini telestudiya o'tirib, eng ko'p sonli filmlarni tomoshabinlar e'tiboriga havola qila olganliklari uchun, zahmatkash o'zbek kinochilarining mashaqqatli mehnatdan qochmay, son-sanoqsiz asarlar yaratganiga qoyil qolmasdan ilojingiz yo'q. O'zbek kinoijodkorlari o'sha paytlarda yaratgan badiiy filmlarni yodga olib o'taylik: «Qo'g'irchoqboz», «Kuz novellasi», «Osmonning eng tepasida», «Tanish siymo», «Uchish maydoni», «Shashmaqom», «Jadvaldan tashqaridagi o'yin», «Gulka», «Ertangi kunga ketaman», «Komsomollar yo'lga tushdilar», «Eski traktor», «Siyohdon-odam», «Uch kun va ikki yil», «Oq yol haqida ballada», «Aziz», «Muhabbat izlab», «Mishka - telepat», «Eshmat – ezgulik farishtasi». Bu filmlar mavzu va tematikasi, stilistika va tasviriy ifoda madaniyatiga ko'ra turli-tuman yo'naliishlarda yaratilgan.

Telekinematografchilarning (ayniqsa, yoshlarning) badiiy kinoga bunchalik shiddat bilan intilishlarini nima deb izohlash mumkin? Umuman, izohlash mumkinmi?

Mumkin! Buni izohlash uchun studiya xodimlari jamoasining kadrlar tarkibiga bir bor nazar solish kerak. Gap shundaki, studiyamiz tashkil etilgan kundan boshlab ishga kelgan yoshlar orasida «katta kinostudiya»larda ish topilmasdan, yoki u yerdagi faoliyatga singishib ketolmagan yoshlar o'zlarini albatta bir ko'rsatib qo'yish uchunoq televideenie bag'riga yangi ijodiy muhitning o'ti bilan kirib, kuli bilan chiqib mehnat qilishga ko'nikkan iste'dodlar edi.

Mana shunday iste'doddardan biri – Leonard Boboxonov u («Qo'g'irchoqboz», «Siyohdon-odam», «Uchish maydoni» kabi filmlarning muallifi edi) – aslida estrada artisti bo'lib, hikmat-(pritcha)lar janrida ijod qilishni xush ko'rardi. U kinomaterialga nostandard munosabat asosida yondashar, xalq san'atidagi uyg'unlik bilan eski teatr usullarini birga qo'shib foydalanish, qo'g'irchoqlar yordamida asar syujetidagi tarixiy voqealar mohiyatini izohlash, tomoshabin ongiga yetkazishda unga yetadigan mutaxassis kamdan-kam edi.

Masalan, uning «Qo'g'irchoqboz» filmini olib ko'raylik. Filmni sahnalashtiruvchi (u film stsenariysining muallifi ham edi) sifatida tarixiy voqeza zamiriga o'tmishdagi reallikni ham, hozirgi zamon hodisalariga allegoriyaviy (ramziy-kinoyaviy) ma'noni ham singdirib yuboradi. Tomoshabin zulm-jafodan qutulmoqchi bo'lgan xalqning ozodlik uchun boshlagan har qanday xatti-harakatini shafqatsizlarcha bostirib kelayotgan hukmdorning yovuzliklarini anglab o'tiradi. Mana, ochiqdan-ochiq qo'zg'olon ko'tarishga imkon topolmagan qo'g'irchoq aktyorlar xon hokimiyati ustidan kulish uchun allegorik sahna o'yinlarini o'ylab topadilar. Shu tariqa spektakl voqealar real-hayotiy voqealarga ulanib ketadi, oddiy tomoshabin ongida zulmdan qutulish uchun xalq ommasi birgalashib harakatlanishi zarur, degan fikrni paydo qiladi.

«Qo'g'irchoqboz» asari – 70-yillarning telemahsulotlari orasida o'ziga xos o'rin tutadigan kartina. Film muallifi o'zining o'tkir shoirona mushohada sohibi ekanini namoyish etdi, boshqalarning ham ana shunday dadil va tafakkur bilan izlanishlar olib borishi uchun da'vat qildi.

Leonard Boboxonov «O'zbektelefilm» studiyasida oz muddat ishlagan bo'lsada, uning ijodi o'zbek televideniesi tarixida badiiy va hujjatli kinomizda o'ziga xos romantik iz qoldirdi. Original tafakkur, kompozitsion tuzilish, ritmika, tasvir madaniyati, manzaralarni nostandard kuzatuv ostida ko'ra olish qobiliyati Boboxonovning «Siyohdon-odam», «Uchish maydoni» kabi kartinalarida ham namoyon bo'ladi.

«Uchish maydoni» filmi osmon haqida orzu qilayotgan bolakayning ichki ma'naviyati, tomoshabin e'tiborini jalb qiladigan ruhiy ibtido haqida hikoya qiladi. Rejissyor o'zining samo haqidagi fikr-mulohazalarini yana bir asari – «Osmonning eng yuksak nuqtasida» filmida ham davom ettiradi. Film tomoshabinni avvalo, fikrlashga undashi bilan jalb qiladi. Rus bolakayi Igoring, o'zbek Iskandarining otasini ham urush o'z komiga tortib ketgan. Otasiz o'sgan bolalar yomon yo'llarga kirib ketmadilar, ular haqiqiy mehnat yo'lini tanlab oldilar. Bolalikning go'zal orzulari-yu, og'ir kechinmalari haqida bu film! Eng muhimi -qahramonlarning beg'ubor qalblarida qaror topayotgan mardona his-tuyg'ular, ulg'ayish pillapoyasi, bolalarda haqiqiy mardlik tuyg'ularining tarbiyalanishi – filmning asosini tashkil etadi.

70-80-yillarda televideniemizda shuhrat qozongan filmlarning eng mashhuri – «Shashmaqom» film-kontserti bo'ldi. Taniqli madaniyat arbobi Turob To'la stsenariysi negizida rejissyor Toshxo'ja Akromov tasvirga olgan bu film badiiy umumlashmalarning, romantik kayfiyatning, tasviriy simvolikaning miqyosiyligi va g'oyaviy yetukligi bilan tomoshabinni hayajonga soladi. Mualliflar filmda insoniy

kechinmalarning nozik torlarini topib tebratishga, o'z fikrini tiniq shoirona ruh bilan birgalikda namoyon etishga muvaffaq bo`la oldilar. Asarning kompozitsion-syujet jihatidan qurilishi, xalqning epik musiqiy merosidagi shedevr ijod namunalari muhabbat mavzulari ila chambarchas bog`lanib ketishi tomoshabinni haqiqiy badiiy kashfiyat kabi hayajonlantiradi, filmni qayta-qayta tomosha qilishga majbur etadi.

«Shashmaqom» filmining g`oyasi 1965 yilda ekranga chiqqan «Manaschi» filmi (rejissyor Bolotbek Shamshiev) ga ohangdosh, ya`ni har ikkala asar ham xalq xotirasida asrlar bo`yi ardoqlab kelinayotgan qadriyatlarni, afsona va rivoyatlarni badiylashtirgan holda telekinotasmalarga muhrlagan. Mualliflar bu asarlarda «katta kino»ning badiiy tasvir vositalaridan, o`ynaladigan sahnalaridan foydalanganlar. Qadimiy qirg`iz xalq rivoyatlarining sehrli sadolari, xalq oqini ijro etayotgan ta`sirli musiqiy xonishlari uchib borayotgan qushlarning qanot qoqishiga, yonayotgan olovga, yoyib tashlangan ayol sochlariga, mo`ysafid qirg`iz tog`lariga uyg`un bir tarzda filmda namoyon bo`lishi va tomoshabinga yetkazilishi asarda qo`llanilgan badiiy-tasviriy vositalarni to`la oqlab chiqqan.

Afsonaviy mavzularning filmlarda qayta jonlanishi, navqiron kuchlarning kadrlarda namoyon bo`lishi, jonajon musiqa sadolari, insoniy mehr-muhabbat, uning tuyg`ularga, kechinmalarga muvofiq tarzda ekranda tasvirlanishi - har ikkala filmning xalqona qadr-qimmatini oshirib yuborgan, filmlarning badiiy yetukligiga xizmat qilgan.

Badiylashtirilgan film yaratish yo`lida operator va rejissyor Shavkat Junaydullaev ham bir necha bor o`zining ijodiy imkoniyatlarini sanab ko`rdi. U rejissyor sifatida «Kuz novellasi», «Muhabbat izlab», «Menga olmangdan tashla» filmlarini va «Afandining besh xotini», «Xotinlar gapidan chiqqan hangoma» film-spektakllarini ekranga olib chiqdi.

Umuman olganda, televizion kinojarayonda «katta kino»dan kelib, telefilmlar yaratiladigan sharoitda ishlashga «qasd» qiladiganlar ham topilib qolar ekan. Misol uchun mashhur kinorejissyor Latif Fayzievning zangori ekran uchun maxsus yaratgan «Taqdir eshigi» (Sharof Boshbekov stsenariysi asosida), Muxtor Og`amirzaevning sportchilar hayotidan olingan «Jadvaldan tashqari o`yin» filmlarini ko`rsatishimiz mumkin. Ayniqsa, Farid Davletshin xonandalar hayotidan olib yaratgan «Yulduzingni ber, osmon!» lirik kinoqissasi haqida iliq gaplar aytish joiz. Shu bilan birga, o`zimizning studiyada ishlab yurib, «katta ekran» uchun asar yaratishga intilgan rejissyorlardan S.Ahmadxo`jaev, B.Ahmedov, R.O`tkirov va boshqa rejissyorlarning nomlarini sanab o`tish lozim.

Bunday almashib ishslash namunalarini nima deb atash mumkin - o`z iste`dodi-yu iqtidorini yana bir jozibali sohada sinab ko`rish desa, to`g`riroq bo`ladimi yoki buni to`lib-toshib borayotgan jo`shqin ijodiy kuch-g`ayratni sinab ko`rish, «baxt-tavakkal» deb, yangi sohaning ulkan imkoniyatlaridan foydalinishga intilish deb baholash kerakmi – bu masalani mana endi, oradan o`ttiz-qirq yillik vaqt o`tganidan keyin bat afsil izohlash o`rinli bo`lar, deb o`ylaymiz.

Dunyodagi barcha televidenielarning «boshidan o`tib», bugungi kunda o`ziga alohida yo`l topib ketgan «ko`pseriyali film» deb atalmish yangi janr ham dastlabki paytlarda, eng avvalo, qisqa metrajli, bir seriyali badiylashtirilgan, rol o`ynaladigan

kinodan «o'sib» chiqqanini va bu janr bora-bora barcha televidenie studiyalari tajribasida eng ahamiyatli yo'nalishga tushib olganligini shu o'rinda eslash o'rinnlidir.

Ko`pseriyaviylikning badiiy shakllari muammosi – televideniening ichki xususiyatlari, tabiatan televidenie turli xil maqsadlarga xizmat qilib kelayotgani bilan bog'liq jarayondir. Axir TV bir paytning o'zida ham aloqa vositasi, ham axborot yetkazish vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u – san'atning rivojlanib kelayotgan mustaqil turi hisoblanadi.

«Ko`pseriyali televizion film yangi badiiy yo'nalish sifatida shakllanib kelayotgan sharoitda, - deb yozadi A.Vartanov, - bu janrning estetik qirralari va tajribalari muntazam ravishda o'zgarishlarga uchrab turadi, hikoya qilish va ifodalab berish xususiyatlari yangi-yangi sinovlardan o'tadi. Bunday sharoitda esa, ifoda imkoniyatlari, xarakteri - san'at tili, uning tasviriy vositalarining ramzi, sinonimi sifatida namoyon bo'ladi». <sup>32</sup>

Kinotanqidchilarning ta'kidlashiga ko`ra, TV – badiiy-ifodaviy tizim sifatida shakllanar ekan, televizion san'at tilining paydo bo'lishi va tasdiqlanishida ko`pseriyali filmning ham o`ziga xos roli bor. Agar televideniening kinematograf bilan o'zaro munosabatlari tarixidan kelib chiqib gapiradigan bo`lsak, bunda televidenie tilining taraqqiy topishida uchta muhim bosqich mavjud bo`lganligini ko`ramiz:

**Birinchi bosqich.** Kinofilmarning TVda namoyish qilinishi;

**Ikkinchi bosqich.** TVda ko`rsatish uchun filmni sozlash;

**Uchinchi bosqich.** Eng muhim bosqich - televizion filmni yaratish bosqichi.

Ko`pseriyali televizion asarning vujudga kelishi esa, televizion ijod tili va shakllarining vujudga kelishida yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi.

TV tarixida har bir yangi kun televizion ko`pseriyali filmdagi jiddiy ijodiy imkoniyatlarni kashf qilib bermoqda. Yana, bu tizimning o`ziga xos tili, ifoda uslublari ham vaqt o`tgani sayin boyib, takomillashib borayotir.

Shunday qilib, ko`pseriyali film estetik jihatdan barqaror telekinematografik shaklga ega bo'lib borar ekan, ushbu janr o'z tizimi ichida –xuddi o`ziga o`xhash, egizak desa ham bo`laveradigan yana bir shakldosh janrni – televizion serial janrining kelib chiqishiga sababchi bo`ldi. Bu ikki xil janrlar o`zlarining taraqqiyoti yo'lida bir-birlariga sira xalaqit qilmadilar. «Trest operatsiyasi», «Leonardo da Vinci hayoti», «Bahorning 17 lahzasi» kabi katta shov-shuvlarga sabab bo`lgan televizion qissalar bilan bir qatorda, xalqqa nihoyatda sevimli bo`lgan «Qovoqxona», «Izquvar bilimdonlar» filmlari ishlandi, keyinchalik esa, ayni shu yillarda paydo bo`lgan «Mening ajoyib enagam», «Kamenskaya», «Advokat», «Chilparchin chiroqlar ko`chasi» kabi va hokazo son-sanoqsiz filmlar nomini tilga olib o'tish mumkin.

60-70 yillarda Sovet Ittifoqi televidenielarida keng tomoshabinlar auditoriyasiga mo'ljallangan kartinalar ishlab chiqarishda bu soha janr va mavzu jihatdan o'ta tez taraqqiy etayotgani sezilayotgan edi. Xuddi kelishib olganday, aynan o'sha vaqtdan boshlab Markaziy TVda telekino taraqqiyotining muhim bir yo'nalishi sifatida mumtoz asarlarni ekranlashtirish ishlari avj oldi (bu an'ana keyinchalik qardosh respublikalar TVlarida ham davom ettirildi). Shu bilan birga, televidenie

<sup>32</sup> Вартанов А. Многосерийный фильм. Истоки. Практика. Перспектива. –М.: Искусство, 1979, с. 94.

kanallarining ehtiyojlariga ko`ra, tarixiy mavzulardagi, detektiv janrlardagi, komediya yo`nalishidagi kinoqissalarning paydo bo`lishi tabiiy deb qabul qilindi.

“Ko`pseriyali film dunyo efirida shunchalik keng maydonga ega bo`ldi, kundalik teledasturlarda shunchalik keng o`rin egalladiki, endilikda bu filmlar zamonaviy insonning vaqtini shunchalik «ko`p o`g`irlaydigan» bo`ldi. Endilikda seriallar masalasini madaniy hayotimizdagi eng ahamiyatli voqeа sifatida alohida o`rganishga to`g`ri keladi”, - deb yozadi yana bir kinotanqidchi N.Zorkaya.<sup>33</sup>

Seriavli filmlarning mexanizmi nimalardan iborat? Bu yangi hodisaning vujudga kelishida qanday alohida rol o`ynadi? Kinotanqidchi N.Zorkaya ko`pseriyali kartinalarning tuzilishi, ma`lum bir sistema (tizim) hosil qilishida quyidagi tamoyillarni ajratib ko`rsatadi:

1. Hikoya qilib (tasvirlab) berishning uzoq vaqt davom etishi;
2. Voqealarni xohlagancha uzib, xohlagancha cho`zib davom ettirish mumkinligi;
3. Asarni qismlarga – seriyalarga bo`lib hikoya qilish;
4. Asarda muntazam ravishda ishtirok etadigan qahramonlarning soni.

Sanab o`tilgan omillar ichida kinotanqidchi ko`pseriyali telefilmning televizion san`atning bosh belgilari hisoblangan «ishontirish samarasi» yoki “lahzada ishontira olish” fenomenini ham qo`shib sanab o`tadi.

Ko`pseriyali filmning uzoq vaqt davom etishi, ishtirokchilar sonining ko`pligi – bunday asarlarning eng ijobiy tomonlaridan deb aytal olamiz.

«Kino qahramonlarining Siz bilan birga, sizning uyingizda yashaganday tuyulishini shunday tasavvur qilish mumkin, - deb yozadi V.Mixalkovich, - har kuni, har haftada, belgilangan soatda kelaman deb va`da berib, aldamaydigan sadoqatli do`shti tasavvur qiling. Bunday do`shti sizga faqat televideniegina topib berishi mumkin, yangi do`shti, sadoqatli va muntazam kelib turadigan mehmonlar bu – televideniedan berilayotgan ko`pseriyali film qahramonlaridir». <sup>34</sup>

Bu – muntazam bitta personaj yaratishga intilib kelgan kinematografiyaning dastlabki faoliyat yillaridan boshlab namoyon etib kelayotgan tendentsiyalaridan edi.

60-yillarning boshida televideenie ko`pseriyali asarlarni muntazam ravishda ishlab chiqarish uchun moddiy va ijodiy imkoniyatlar bilan hali to`la ta`minlanmagan edi. Teleekranlarda namoyish etilayotgan ba`zi qisqa metrajli filmlar ham telekompaniyalar byurtmasi bilan, «katta» kinostudiyalarda («Mosfilm», «O`zbekfilm», Sverdlovskdagi studiya, Kiev shahridagi A.P.Dovjenko nomidagi studiya va boshqalarga) buyurtma asosida, suratga olinardi. Markaziy televidenieda birinchi bo`lib namoyish etilgan «Hujumni biz bartaraf qilamiz» nomli ko`pseriyali film ham (rej. S.Kolosov) «Mosfilm» kinostudiyasining «Telefilm» ijodiy uyushmasida yaratilgan edi.

Televideenie sohasida paydo bo`lgan yangi yo`nalish - ko`pseriyali filmlar ishlab chiqarishga ana o`sha vaqtlardan boshlab «muk tushib» kirishildi. Mamlakatning turli studiyalarida «Trest» operatsiyasi» (rej. S.Kolosov), «Janobi oliylarining ad`yutanti» (E.Tashkov), «Mayor Bo`ron», «Injener Pronchatov» asarlari

<sup>33</sup> Зоркая Н. Многосерийный фильм. –М.: Искусство, с.21.

<sup>34</sup> Михалкович В. Там же, с.37.

ishlandi. Keyinchalik, «uzun» kartinalar ishlab chiqarish faoliyati bilan respublikalardagi studiyalar ham shug`ullana boshlaydilar. Tallinda «Qoraytirilgan derazalar», Sverdlovskda «Ugryum-reka», Kievda «Bonivurning qalbi» ko`pseriyali filmlari ekranlarga chiqarildi.

«O`zbekfilm» kinostudiyasida ham shu yillarda aynan ana shunday tartibda faoliyat ko`rsatib, o`n yillar mobaynida bir nechta «uzun» filmlar televideneda namoyish etish uchun yaratildi. Rejissyor Yuriy Stepchukning «Keksa ustanning vasiyati», Uchqun Nazarovning «Qo`qondagi voqeа», Shuhrat Abbosovning «Olovli yo`llar» (17 seriyali) asarlari ana shu davr samaralari edi.

«Eng o`tkir nigohli tahlilchilar televidenie bilan adabiyotning o`ziga xos «oshiq-ma`shuqlar» ekanligini allaqachonlar qayd etib, sinovdan o`tkazib olganlar», - deb yozadi A.Plaxov.<sup>35</sup>

Agar ba`zi kinematografchilarning muvaffaqiyatsiz qadamlarini hisobga olmaganda, asosan, televidenie adabiyotning eng noyob asarlarini ekranda jonlantirish, ularni badiiy filmlarga aylantirishning katta imkoniyatlarini kashf etib berdi. Shu tariqa, Pushkin, Stendal, Dostoevskiy, Tolstoy, Chexov, Tomas Mannlar yaratgan o`lmas obrazlarning ekrandagi «hayoti» boshlandi. «Forsaytlar haqida qissa (saga)» filmi ham teleekran faoliyati tilida hali televizion-zahiraviy imkoniyatlar ko`pligidan amaliy darak berdi. «Saga»ga o`xshash boshqa televizion badiiy filmlar: «Qora non», «Soyalar choshgohda yo`qoladilar», «Sarson-sargardonlikda» kabi filmlar ham inson xarakteri va taqdir qiyinchiliklarini, murakkabliklarini yoritishda ko`pseriyali filmlar imkoniyatlari mo`l-ko`lligini namoyon etdilar. Televizion tomoshabinlar ko`zi oldida film qahramonlari hayot, yashash, turmush sharoitlarini yanada ravshanroq, ishonchliroq tasvirlashida, film voqealari bo`lib o`tgan davr ruhini, insonlarning kayfiyatini, tafakkuri, faoliyati, orzu-niyatlarini mahorat bilan yoritishda namuna bo`ldilar.

Televizion ko`pseriyali filmlar shu tariqa boshqa san`at turlari bilan birga, hayotiy, bat afsil, ko`p planli, keng ko`lamli tasvirlay olish yo`llarini yanada yangi imkoniyatlar ila boyitib bordi.

Adabiy asardan televidenie uchun film yaratishning yaxshi bir namunasini rejissyor Mahkam Muhammedov namoyish etdi. U atoqli adib Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani asosida televidenie uchun moslab yangi film yaratdi. Yangi film deyayotganimizning sababi – tomoshabinlarning yodida bor, bundan 30 yillar muqaddam, 1970 yillarda mazkur asarni rejissyor Yo`ldosh A`zamov «O`zbekfilm» studiyasida katta ekranga olib chiqqan edi. M.Muhammedovning ushbu televizion varianti – teleekranlashtirishning tasviriy vositalaridan foydalanishdagi imkoniyatlar kinematografiyadagi imkoniyatlardan kam emasligini, hali zangori ekran zahiralarida juda ko`plab ijodiy imkoniyatlar mavjudligini isbotladi.

Filmni televidenie uchun ekranlashtirishda yozuvchi Xayriddin Sulton amalgaloshirgan xayrli bir xizmatini ham aytib o`tish zarur. 70-yillarda Yo`ldosh A`zamov asarni ekranlashtirishda filmni ixchamlash uchun kitobdagи ba`zi voqealarni filmga kiritmay, kesib tashlangan edi. Xayriddin Sulton film stsenariysini yozishda o`sha voqelarni stsenariyga olib kirdi.

<sup>35</sup> Plaxov A. «TV va adabiyot». –M.: 1983. 91-b.

Asarning yangi varianti «zangori ekran»da namoyish etilgach, kinotanqidchilar, Qodiriyning avlodlari filmdagi pauza holatlari juda ko`payib ketganligiga e'tibor qaratishdi. Bu bejiz emas. Qodiri - nihoyatda ulkan so`z san'atkori, u o`zining «Mehrobdan chayon» romanida ham asardagi ichki voqealar ritmini tasvirlashda dialoglar mazmuniga juda ulkan vazifalar yuklaydi. Bulardan tashqari, asarda voqeliklarni bir-biriga ulashda shoirona ruh bor, hatto o`ziga xos vazminlikni ham muallif nutqi orqali his qilib turamizki, o`quvchi asarni mutolaa qilish chog`ida bularni his qilmasligi mumkin. Bu vaziyat rejissyor M.Muhamedov e'tiboridan qochmagan, albatta.

Rejissyor film uchun aktyorlarni tanlashda ham tavakkalchilik qildi va bunda ham yutib chiqdi. Muhamedov «katta ekran» uchun rol o`ynayverib, tanilib qolgan aktyorlar siyemosidan voz kechdi va asosiy rollarga ham, ikkinchi darajali rollar ijrosiga ham tanilmagan ijrochilarini taklif etdi. Bosh rollar ijrochilari - Farg`onadagi litsey o`quvchisi Islombek Mannopov (Anvar) va O`zbekiston davlat san`at institutining talabasi Dildora Rustamova (Ra`no)lar shu tariqa kino olamiga kirib keldilar. Shuningdek, filmda tajribali aktyorlar Muhammadsoli Yusupov, Ra`no Yarasheva, Farhod Aminovlar ham mahorat ila rol ijro qildilar.

Mabodo, insoniyat madaniyatining taraqqiyoti jarayonida ko`pseriyali film kashf qilinmaganida edi, baribir kinochilarimiz bu san`at turini qaytadan o`ylab topgan bo`lardilar. Shu fikr aytulganda, ba`zi kinotadqiqotchilar istehzo bilan arablarning mashhur «Ming bir kecha» asarini yodga olib, “ko`pseriyalilikning asl ildizlari mana shu asarga borib taqalmaydimi?” – deb qo`yishadi. Axir Shahrizoda ertakning davomini keyinga qoldirmay, podshoga gapirib bergenida edi, podshoh ertasiga tong otishi bilanoq kanizak qiz Shahrizodani dorga osishi turgan gap edi. Shuningdek, o`tgan asrning boshlarida ham kinochilar tomoshatalab olomonni «Nyu-York sirlari», «Vampirlar», «Fantomas» kabi asarlarning parcha-parchalari bilan “boqib kelgan” edilar-ku. Televizion badiiy filmlarning bunday shov-shuvli, g`olibona “yurishi”ning sabablari TV fenomenining o`zidan izlash kerak. Tomoshabinlar ko`rsatuвлar dasturini qo`lga olishlari bilanoq yangi seriallarni izlaydigan bo`lib qolishgan edi. Televideniening auditoriya bilan o`zar munosabatlari muntazam ravishda davom etayotganidan bir darak edi serial filmlar. Ko`pseriyali film yaratish televidenie uchun ham yana bir muammoni hal qilib berdi – film yaratilsa bas, uni ko`radigan tomoshabinlar hamisha topiladi, negaki uyda hamma vaqt odam bo`ladi-da. Televideniening taraqqiyoti davom etayotgan ilk bosqichlarda «ko`pseriyali» degan tushunchaning o`zi «sarguzasht» degan tushunchaga juda yaqin turardi (60-yillarda Markaziy TVda namoyish qilingan «Hayotdan ham qadrliroq», «Shaytonni ta`qib qilish» va boshqa filmlar atrofida ko`tarilgan shov-shuvlarni yodga olaylik).

O`zbek televideniesi ijodkorlari ham o`z tomoshabinlarining talab-istikclarini inobatga olib, melodrama (maishiy mavzuda), tarixiy va rivoyat mavzulariga xos bo`lgan filmlar yaratishga kirishdilar. Bunda ko`pincha ana shunday mavzularni yoritishgan romanlarga murojaat qilish kuchaydi («Mehrobdan chayon» romanining teleekran uchun qayta yaratish tarixini eslang). Bunday voqealarni nazarda tutib, kinotanqidchi S.Muratov yozadi: «Teleekranda qayta jonlanayotgan voqea butun

tafsilotlari ila hafta kunlari bo`ylab, hattoki oylab va yillab ham davom etaverish mumkin.»<sup>36</sup> Oilaviy turmush mashmashalari, qaysidir bir zavod jamoasining shakllanish tarixi, murakkab voqealarning chigalliklaridan iborat bo`lgan detektiv syujet yoki biror-bir mashhur adibning nomi chiqqan asarini ekranlashtirish orqali tomoshabinlar diqqatini jalg eta olish mumkin.

«O`zbekfilm» studiyasida suratga olingan ba`zi bir ko`pseriyali asarlar ham («Keksa ustanning vasiyati», «Chinor», “Olovli yo`llar”) stilistika jihatidan katta kinematografiya shakllaridan kam farq qiladi. Garchi bu filmlar milliy kinomiz uchun unchalik katta obro`-e`tibor keltirmagani bilan, yaqin kelajak yillarda ko`p seriyali mahsulotlarning to`lqin kabi ko`payib kirib kelishi uchun zamin yaratdi. «O`zbektelefilm»da shu yillarda yaratilgan “Akbarning sarguzashtlari” (rejissyor A.Qosimov), «Diqqat, motor!» (F.Davletshin), «Adolat manzili» F.Haydarov, «Qabohatga qo`yilgan tuzoq» (B.Ahmedov) va boshqa filmlarni esga olib o`tish mumkin.

Shu o`rinda paydo bo`ladigan ba`zi savollarga izoh berib o`tish zarurati bor shekilli. Keling, «O`zbek kinochilarini seriyali asarlar yaratishga undagan asosiy sabablar nimalardan iborat? Katta ekranga mo`ljallangan asarlar bilan televidenie filmlarining o`rtasidagi asosiy farq yoki o`xhashliklar nimalardan iborat?” degan savollar atrofida mulohaza yuritib ko`raylik.

Telefilmning o`ziga xos xususiyatlari haqidagi bahslarga aralashmagan holda, faqat amaliy tomonlaridan gap ochganda ham, san`atning bu ikki turi – badiiy filmlar ham, hayot voqeliklarini ekranda jonlantirish uchun xizmat qiladi. Yana bir o`xhashlik tomoni – rejissyor yoki operatorning talabiga binoan badiiy obraz yaratayotgan aktyordan «katta ekran» filmlarida ham, telefilmlarda ham bor mahoratni ishga solib rol o`ynash kerak edi.

«Televizion kinoda ham, - deb yozadi rejissyor I.Seleznyova, - kinematografiyada mavjud bo`lgan ifoda vositalaridan foydalanib asar yaratiladi. Kameraning harakatlari, chuqur mizansahna, ikkinchi planning faol ishlashi shu va boshqa usullar «kata ekran» uchun ishlangan filmlarda qanday samara bersa, «kichik», ya`ni zangori ekranda ham xuddi shunday samara berishi shart». <sup>37</sup>

Albatta, televizion filmlar yaratishda televideniening o`zigagina xos bo`lgan texnikaviy imkoniyatlar, kompyuter imkoniyatlari mavjud. Televidenie uchun asar yaratayotgan rejissyor ko`p kamerali tasvirlarning ulkan imkoniyatlaridan to`la foydalanishga harakat qilishadi. Televizion apparatlar ancha ixcham, harakatlari yengil ko`chadi, shuning natijasida aktyor siymosida, xatti-harakatlaridagi qanday o`zgarishlar, evrilishlar ro`y berayotgan bo`lsa, dekoratsiya qismlaridan va hokazo tasvir vositalaridan foydalanib, bularning barini zangori ekranda namoyish etish uchun tasmalarga muhrlab olish imkoniyatlari mavjud.

Qolaversa, bugungi kunda san`at turlari (katta ekranning badiiy filmlari bilan teleasarlar) o`rtasidagi munosabatlar bir-biriga ta`sir etish, bir-birlarining imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni shunchalik faollashib borayotirki, televidenie

<sup>36</sup> Муратов С. Пристрастная камера. –М., 2004. с.66.

<sup>37</sup> Селезнева И. Режиссёр на ТВ. –М.: Искусство, 1978. с.168.

kinematografiya tajribalaridan, kinematografiya televidenie sohasidan ham bemalol o`ziga kerakli bo`lgan manfaatlarni topayotir.

O`zbekistonda televidenie uchun yaratilgan eng yaxshi filmlar ham televizion kino namunalarining ijodiy tajribalaridan foydalangan holda yaratildi. Romanlarni ekranlashtirish bilan bir qatorda, mahalliy mualliflar bиринчи navbatda sarguzasht janri talablaridan kelib chiqib ish olib bordilar. O`sha yillari (o`tgan asrning 70-80 yillarda) sarguzasht mavzusidagi filmlar barcha respublikalar televideniesida asosiy o`rin tutayotgan edi («Qilich va qalqon», «Trest» operatsiyasi», «Hayot qadar qadarli tavakkal», «Mayor Bo`ron», «Hujumni o`zimiz daf qilamiz» va boshqa filmlarni yodga oling).

Bir qancha «uzun» telefilmlarimiz detektiv mavzu asosida suratga olindi. 90-yillar oxirida rejissyor A.Qosimov «Akbarning sarguzashtlari» nomli 6-seriyali asarni suratga oldi. Dokumentalistika sohasida ter to`kib ishlab tajriba orttirgan A.Qosimov oddiy sahnalashtiruvchi rejissyor vazifasida ishlab yurib, tirishqoqligi, jur`ati tufayli asta-sekin mana, ko`pseriyali asarlar yaratib bera oladigan rejissyorga aylanganligi hammamiz uchun namuna bo`ldi, albatta.

Film moziy voqealariga bag`ishlangan. Syujet asosini tikuv mashinasini ishlab chiqarayotgan yevropalik sanoatchilar bilan iqtisodiy aloqa o`rnatgan milliy tadbirdor insonning boshidan o`tgan voqealar tashkil etadi. Sahnalashtiruvchi rejissyorni gapiga qaraganda, filmning bosh qahramoni Akbar aslida hayotda, uning qarindoshi bo`lib, o`sha voqealarda to`la ishtirok qilgan. Nimalar bo`lganidan qat`iy nazar, tomoshabin uchun juda qiziqarli bo`lgan, uni hayajonda ushlab turadigan film dunyoga keldi, rejissyor va operator o`sha davr ruhini beradigan kolorit, kiyimlar, marosim va etikelar orqali, davr turmushini aks ettiruvchi o`zaro insoniy munosabatlarni yoritib bera oldi. Umuman, A.Qosimov yaratgan Ushbu ko`p seriyali film o`tmish voqealarini milliy koloritlarga, ta`sirli musiqa bilan boyitib chiqarishga muvofiq bo`ldi. Bu rejissyor rollarga aktyorlarni tanlashda yanglishmasdi. Uning «Gulobod va xon Feruz», «Uvaysiy» (6 seriyali) filmlari ham tomoshabinlarda yaxshi taassurot uyg`otdi.

«Uvaysiy» filmiga shu taxallus bilan she`rlar yozgan shoiraning hayoti asos qilib olingan Jahon Otin Uvaysiy (1779-1845) xon zamonlarida Qo`qonda yashab ijod etgan iste`dod sohibalaridan. Filmdagi ishlab chiqilgan o`tkir syujet, fitnali voqealar, iroda va xarakterlar to`qnashuvi tomoshabinni befarq qoldirmasligi aniq.

Film mualliflari xon saroyidagi tartib-qoidalarni turmush tarzini, iste`dod sohibalari bo`lmish ayol-qizlarning davrning dolg`ali voqealari bois mashaqqatlarga duchor bo`lishi tarixini juda ishonarli tarzda tasvirlay olganlar. Bundan tashqari, Uvaysiy she`rlari, g`azallari asosidagi yangragan qo`shiqlar ham filmga hayotiylik olib kirgan desa bo`ladi. Xalqimiz, Jahon otin Uvaysiy kabi ayol-qizlardan yetishib chiqqan olimayu shoira, oqilayu bilimdon shaxslar bilan hamisha faxrlanib kelgan. Filmning iliq qarshi olinishi - xalqimizning ma`naviyatida mana shunday filmlarga ehtiyoj kattaligidan ham bo`lsa, ajab emas.

Zangori ekran orqali batafsil hikoya qilib berish imkoniyatining yarata oladigan ko`p seriyali film, shubhasiz, har bir muayyan vaziyatning ifodaviy shaklini aniq belgilab beradi. Ekrandagi voqelik real hayotdagi hodisa kabi ko`rinadi, kishilar

xarakterini olib beradi, tomoshabinlar ham, o`zlarining intellektual saviyalari, hayotiy tajribalariga muvofiq, filmni qarshi olishlari turgan gap.

Ko`pgina “O`zbekteofilm” studiyasi rejissyorlari shu tariqa kinematografiyada ham, televidenie sohasida ham yaxshigina tajriba to`pladilar, ularning asarlari nafaqat syujet qiziqarligi, qahramonlar xarakteriga ko`ra, balki tasvirga olishdagi san`atkorliklari bilan ham tomoshabinlarni jalg` eta oldilar. VGIKni bitirib, kelgan iste`dodli rejissyorlardan biri Sanjar Boboev mana shunday mutaxassislardan. Uning tabiat bergen o`ziga xos iqtidori bolalarga atalgan “Boychechak” filmini yaratishda yanada kamol topdi, kino tili, yorqin obrazlar, bolalarning pokiza qalb dunyosini ta`sirli tasvirlar orqali mahorat bilan olib berishda musiqadan foydalanishda maqtovga loyiq ishlar qildi.

S.Boboev nafaqat shu filmda, balki bolalar mavzusidan yiroq bo`lgan boshqa hikoyalarida ham o`zining sahnalashtirish, kino-hikoya usullaridan keng foydalana olish iqtidorini ko`rsatdi. Uning vijdon va or-nomusni, insoniylikni ulug`lovchi “Zanjir” kabi teleseriali, yoshlarning hayotda o`z o`rinlarini topib olishida qat`iyat ko`rsatishlari zarurligi haqidagi “Beshovlon” to`la metrajli filmi va zamonaviy dolzarb ahloqiy muammolariga bag`ishlangan “Muzaffar” 2 seriyali filmi ana shunday asarlardan bo`ldi. Rejissyor yaratgan “Tuhmat” filmi uning sarguzasht asarlar yaratishda ham qobiliyatli ekanini ko`rsatdi. S.Boboev keyinchalik “Soliq nazoratchisi” deb atalgan ko`p seriyali film yaratdi. Uning bu ijodi moliya sohadagi jinoyatlarga qarshi kurashayotgan davlat xodimlari haqidagi yana bir yangi asari edi. S.Boboev so`nggi yillarda tijorat asosida filmlar yaratish bilan ko`proq shug`ullanib, turli janrlarda xilma-xil asarlarni ekranlashtirmoqda.

“O`zbekteofilm” studiyasida avval hujjatli filmlar yaratish, so`ngra tajriba oshirib, keyinchalik televizion badiiy filmlar yaratish sohasiga o`tilgan ijtimoiy holdir. Bu sohada samarali ish boshlagan iste`dod egali rejissyor Shavkat Junaydullaev. 1997 yilda ikkita film-spektakl (“Afandining besh xotini” va “Xotinlar gapidan chiqqan hangoma”), zangori ekran yuzini ko`rgan bo`lsa, 1998 yilda Sh.Junaydullaev o`zbek filmlari ichida eng “uzuni” bo`lgan “Charxpalak” asarini suratga olishga kirishdi (20-seriyali).

O`zbek mualliflari ko`pseriyali telefilm yaratish uchun syujet izlab yurishlariga hech hojat yo`q - adabiyotimizning har bir yaxshi asari ichida turmush voqeliklari orasida bir qahramonning yoki ko`plab ishtirokchilarning butun hayotini qamrab oladigan “qissalar” hamisha topiladi. Tajribali adib, ko`plab pesalar muallifi Sharof Boshbekov televidenie “tili”ga juda mos tushadigan, uzoq davom etadigan mana shunday qiziqarli syujetni “Charxpalak” filmiga moslab, stsenariy yozib berdi. Sh.Junaydullaev Sh.Boshbekovning stsenariysida tomoshabinlarga ibrat bo`ladigan, ularga yaxshilik va yomonlik haqida saboq beradigan asar yaratish uchun yetarli voqealar borligiga ishondi va film tasvirga olish ishlarini boshlab yubordi.

Stsenariyda bir-birlariga sira o`xshamaydigan, murosaga kelolmaydigan ammo taqdir taqozosiga ko`ra yonma-yon yashashga majbur bo`lgan ikkita odam obrazi bor. Yoshlik davridagi ishonuvchanlik xatosi uchun, boshqa yaqin insonlarning qilgan ikki yuzlamachiliklari uchun qamoqda o`tirib chiqqan navqiron Egamqul oilasi bag`riga qaytadi. Endi u nima sabab bilan qamalganligini, kimning

qilgan jinoyati uchun o'zi jazo o'tab kelganligini bilmoqchi. Egamqul qaytib kelayotib yo'lda Maryam ismli lo'li qiz bilan tanishib qoladi va uni ham ergashtirib uyiga keladi. Shu tariqa lo'li qiz Maryam Egamqulning hayotiga kirib qoladi.

Filmida asosiy qahramon hayotining melodramatik tafsilotlari, uning haqiqat izlab sarson-sargardon sang'ishlari tasvirlanadi, voqealar birin-ketin janr talablarining didaktik xususiyatlariga muvofiq, bir muncha epik shaklga yaqinlashtirib tasvirlanadi. Har bitta seriya davomida yangi bir personaj (ishtirokchi) film voqealariga kirib keladi, o'tmishda bo'lib o'tgan Egamqulning hayotiga qaysi tomondandir aloqador bo'lган voqealarning qayta hikoya qilinishiga sababchi bo'ladi. Endi voqealar girdobi Egamqulning oila a'zolarini - uning farzandlarini, aldangan rafiqasini ham qamrab ola boshlaydi. Jinoyat olamining vakili, yomonliklar uyasi sanaladigan Fatxulla paydo bo'ladi. Shu o'rinda aytib ketaylik: lo'li qiz Maryam obrazining film voqealariga kiritilishi – asarning yanada qiziqarli bo'lishini oshirgan, filmga ekzotik joziba bag'ishlagan. Lo'li qiz obrazini yaratgan artist qizlar (avvaliga N.Rahimjonova o'ynab boshlab, keyingi seriyalarda M.Nurmatova davom etirgan)ning har biri ekranda tomoshabinlar sevib qoladigan darajada rolni ijro qildilar.

Karim Mirxodiev ijrosidagi Egamqul obrazi ekranda kuchli, irodali, ko'zlangan maqsadi sari shaxt bilan intiladigan odam, oilasi, o'zining sha'nini himoya qilish uchun tayyor turadi. U dushmanlaridan o'ch olish uchun boshqalardan yordam so'ramaydi, balki bitta o'zi jimgina kurashga kirishadi. Kartinaning yakunlovchi qismida lo'li qiz rolining ahamiyati o'ta oshirilib, bo'rttirib yuborilgani, allaqanday ramzga aylantirilishi asarga singishmay turgani seziladi.

Umuman, oilaviy qissalar, ayniqsa, ko'p seriyali kinolarga syujet yetkazib beradigan voqealar xalq turmushida ko'plab topiladi. Ba'zan esa, xuddi Shuhrat Abbosov ishlagan 17 seriyali «Olovli yo'llar» kartinasida ro'y bergani kabi maishiy mavzudan oshib o'tib, epik miqyos, keng maydon talab etilayotgani seziladi. Ushbu asardagi Hamza Hakimzodani - xalqqa sevimli, adolat uchun kurashchi, inqilobchi qilib ko'rsatish uchun mualliflar anchagina ter to'kkani.

Kinoqissalarni cho'zib-cho'zib, uzundan-uzoq serialarga aylantirishga bo'lgan ishtiyyoq o'zbek televizion kinosi uchun yutuqlarga ham yo'l ochdi, tanqidlarga ham. Ko'pseriyali filmlarning xususiyatlarini yaxshi tushunmagan, yoki bu sohada yetarlicha tajriba to'plamagan mutaxassis ko'p seriyali film yaratishga ishqil tushib qo'l ursa, bu mashaqqatli mehnatni uddalab chiqa olsa xo'p-xo'p, mabodo, uddalay olmasa-chi? Atoqli adib Asqad Muxtorning «Chinor» nomli romanining zangori ekranga moslab, «O'zbekfilm» kinostudiyasida ko'pseriyali film yaratmoqchi bo'lgan taniqli rejissyorimiz Zohid Sobitov faoliyatida aynan shunga o'xshash voqealro'biy berdi. Natijada esa, ko'pseriyali film yaratish bo'yicha tajribasi kamroq bo'lgan rejissyor «Chinor» romanini asosida xom-xatala bir asarni o'rtaga qo'ydi va film tanqidga uchradi.

Rejissyor adabiy asarning ahamiyatini romantik ruhini, oliyjanob g'oyasini to'g'ri anglagan. Film syujeti mo'ysafid inson va nabirasining turli shahar va qishloqlarga qilgan sayohatlari haqidagi hikoyalardan iborat. Bu qishloq va shaharlarda qariyaningg qadrdonlari, qarindosh-urug'lari va farzandlari yashaydi.

Qariya qaysi farzandini, yaqinini so`rab, qaysi bir xonadonga tashrif buyurmasin – u har bir xonodonning yashashi, turmushi, oilaning tashvishu quvonchlari haqida bilgisi keladi, so`rab-surishtiradi, sabablarini so`raydi. Asarda kompozitsiya jihatdan voqealarни kinoromanning u yer-bu yeriga tiqishtirib berilishi o`zini oqlamagan.

Yana bir misol, rejissyor Shuhrat Bizaatov yaratgan ko`p seriyali filmi «Qaytmas» asariga bir nazar tashlaylik. Shuhrat Bizaatov uzoq yillar mobaynida hujjatli telekinematograf sohasida mehnat qildi. «Qaytmas» ko`pseriyali filmida qishloqi yigitning katta shahardagi sarguzashtlari, turli xil aholi qatlamlari vakillari bilan duch kelishlari shu uchrashuvlarda insonlarning taqdiri, hayot manzaralari yoritib beriladi. Yozuvchi Anvar Obidjon o`zining stsenariysida Sharq mamlakatlarida juda mashhur bo`lib ketgan «Janob 420» (Raj Kapur ijrosida) deb nomlanuvchi hind filmdagi quvnoq va mug`ombir yigitchaning zamonasining alg`ov-dalg`ovli, po`rtanali bo`ronlarda o`ziga yo`l ochib yura olgani, yomon va ochko`z odamlarning ta`zirini bergani haqidagi kinokomediyadagi voqealarни esga solib turadi.

Tasvirdagi, uslubdagi topqirliklari, taniqli aktyorlarning rol o`ynashi, yangi musiqa sabab bo`ldimi, har holda ushbu film tanqidchilar ham kutmagan bir paytda tomoshabinlar orasida shov-shuvli muvaffaqiyat qozondi, ekranlarda oylab qo`yilib turdi.

“O`zbektelefilm” studiyasida ishlangan filmlar janriga ko`ra turli-tuman bo`lib ajralib turadi. Detektiv, siyosiy mavzularda ikki seriyadan ortiq bo`lgan filmlar yaratila boshlandi.

Rejissyor Ergash Normurodov suratga olgan «Qismat» filmi (stsenariy mualliflari Muhammad Ismoil va Erkin Usmonovlar) – inson sha`ni, or-nomusi borasida hikoya qiladi. Asar bugungi kunning dolzarb ahloqiy muammolari haqida bo`lib, begona va zararli mafkura ta`siriga tushib qolgan, yot odamlar qurgan qopqonlarga ilinib qoladigan yoshlarni ogohlantirish maqsadida yaratildi.

“O`zbektelefilm” studiyasi repertuarida komediya kinolari ham oz emas. Komediya holatlarini tashkillashtirish, ularni zangori ekran uchun moslab ishlash borasida rejissyor F.Davletshin V.Gusev bilan hamkorlikda kinostudiyaning ichki faoliyati bilan bog`liq bo`lgan «Diqqat, motor!» nomli 6 seriyali komediya teleasarini yaratdi. Afsuski, kinochilar mehnatining mohiyatini yaxshi tushunmaslik, ular faoliyatida haqiqatan ham yuz berishi mumkin bo`lgan holatlarni, shoshma-shosharliklarni, shular orasida chiqib turadigan komik voqealar, vaziyatlarni tanlash va ulardan kulgili asar yarata olishning uddasidan mualliflar chiqolmadilar.

Rejissyor asar voqealarini xuddi studiyani eslatuvchi boshqa bir o`ringa ko`chirib o`tkazdi, kinochilar hayotidan yaxshi bir kulgi asar niyatida bor kuch-qudratini berib ishladiyu, ammo ko`ngilochar teledasturlar bilan bog`liq chindan kulgili holatlarni yaratishda, ularni tomoshabinga kulgili qilib yetkazib berishda sal shoshilib qoldi. Vaholanki, bir paytlar Markaziy televidenieda tajriba qilib ko`rilgan bir qancha komediya asarlari (rejissyor Ye.Ginzburgning «Benefis», M.Zaxarovning «12 stul», «Sehrli fonar» va boshqa filmlar)ning sabog`i bizning kulgisevar xodimlarimizga unchalik o`tirishmagan bo`lsa kerakda. Har holda F.Davletshinning

filmida to`g`ri tanlangan kulgi qo`zg`atuvchi parodiyali syujetga, balki Moskvadagi L.Golubkina, S.Kramarov darajasidagi komik aktyorlar yetishmayotganidandir?

“O`zbektelefilm” studiyasidagi ijodiy imkoniyatlar yangi-yangi g`oyalarni tavsiya etish yoki amalga oshirish ishtiyobi boshqa korxonalarda ijod qilayotgan mualliflarmizni: stsenariychilar, rejissyorlar, operatorlar, aktyorlarni televideenie ishiga jalg etish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ammo, bizning ishimizda faqat ishtiyoqning o`zi bilangina ish bitmaydida, yaxshi asar yaratish uchun original g`oya, uylab topilgan ajoyib niyatlar bo`lmog`i lozim. Ana shundan keyin bu g`oyalarni amalga oshiradigan iste`dod, mahoratlari jamoa bo`lishi talab etiladi. Aks holda, ko`ngildagidek asar yarata olmaslik, tomoshabinning hafsalasini so`ndirib qo`yish, kino xodimlarini kelajakdagisi ishlariga ham ziyon yetkazib qo`yishi hech gap emas. Yaxshi niyatda ish boshlab, ishni chala qilish, studiya mahsulotlarining estetik saviyasini tushirib qo`yish, filmini chala o`ylangan voqeа-syujetlar asosida yaratish – san`atni o`stirmaydi, tomoshabinga ma`naviy oziqa bermaydi, mualliflar esa xomxatala ishlari bilan studiya bildirgan ishonchini suiste`mol qilib qo`yadilar. Shuning uchun bo`lsa kerak, studiyamizda yaratilgan «Yusuf va Zulayho», «G`izg`izon», «Quyoshi botmaydigan yurt» filmlari tomoshabinlarda kutilganchalik taassurot qoldirdi, deb aytolmaymiz. Asar, eng avvalo, tomoshabin uchun yaratiladi. Shunday ekan, tomoshabinni hurmat qilish shart.

Agar dramaturg va rejissyorlar, garchi o`z asarlarida jamiyatning ma`naviy hayotiga bog`liq bo`lgan xilma-xil materiallarini ekranga ko`tarib chiqishga harakat qilganlari bilan o`z oldilariga qo`yilgan eng asosiy vazifalarni to`la bajarilishiga intilmasalar, niyatlar niyat holida qolib ketaverishi aniq.

Aslida, zamонавији telekinoni taraqqiy toptirish muammoси, asosan, ko`tarilgan mavzu dolzarbligi, ijro va tasvirga olish mahorati, tomoshabinning g`ashiga tegadigan lavhalarning kamroq bo`lishidir. Muallif niyati bilan tomoshabinlar ehtiyoji bir-birlariga intilib, kelishadigan nuqtadan barchaga ma`qul tushadigan tomoshabinlarning intellektual va ma`naviy talablariga javob bera oladigan asar yaratilishi kerak.

Mana shunday xalqona humor bilan bezalgan asarlardan biri 2 seriyali «Tog`lik kuyov» komediysi bo`ladi. Asar bugungi yoshlari, ularning orzu niyatlarini, sevgilari, ma`naviyati haqida. Filmning teletomoshabinlarga ma`qul kelgan jihatlarini sanaydigan bo`lsak, shularning o`ziyoq telekinematografchilarning film janrini to`g`ri tanlaganlardan darak beradi.

Kulgili holatlar, yaxshi aktyorlar ijrosi (Madina Muxtorova, Yo`lchi Ortiqov) – filmning yutuqlarini oshirgan.

Ko`pgina o`zbek ko`pseriyali filmlariga asos bo`lgan syujetlarda «nafas», kenglik, mazmunning originalligi yetishmaydi. Unchalik kuchli, ta`sirli bo`Imagan dramatik usulni qo`llayverish ham filmda takrorlarga yo`l ochib beradi. «Mening shotlandiyalik do`stim», «Erkatoy», «Taqdir yo`llari» kabi filmlar shunday nuqsonlardan xoli bo`lgani uchun tomoshabinlarda iliq taassurot qoldira olmadi.

Yuqorida sanab o`tilgan filmlarda syujetlar hayotdan olingan, muhim mavzularga bag`ishlangan, qahramonlar zamondoshlarimiz. Temir yo`l qurilishi, insonlar taqdiri, sevgan kasbini ardoqlagan mutaxassislar, temir yo`l rahbarlaridan

birining ibratli va mashaqqatli umri - «Taqdir yo'llari» filmining asosini tashkil etadi. Ammo filmning siyqasi chiqqan uslubda yaratilishi, voqealarning sust davom etishi, buning ustiga ustak, ijrochi aktyorlarning bo'shangligi – asar saviyasini tushirib yuborgan.

Afsuski, ba'zi telekinoijodkorlar tashabbus ko'rsatmasdan, ko'pincha eskicha usul va stereotiplar asosida ish olib borishlari tufayli film zaif chiqib qoladi. Ba'zan esa, bularning teskarisi yuz berib, rejissyor o'zi anglagan syujetni chinakam asarga aylantirish, filmni yaxshilash maqsadida ko'tarilayotgan mavzuni zamonaviylashtirish niyatida filmni boshlash oldidan muallif g'oyasini rosa pishiradi. Sh.Junaydullaev «Xurshida» nomli 4 seriyali filmni tasvirga olish oldidan xuddi shunday yo'l tutdi. Filmning bosh qahramoni - qishloq ayoli. U hayotini yanada farovonlashtirish, salbiy odatlardan tezroq qutilish, xalq bilan birgalikda hayot murakkabliklarini yengib o'tishni niyat qilib yashaydi. Ammo film eski qolip va usullarda ishlangani uchun teletomoshabin diqqatini ko'pam jalb etolmaydi.

Shu ma'noda, rejissyor M.Rajabov miliitsiya xodimlarini tayyorlovchi oliy dargoh hayotidan olib yaratilgan 4 seriyali «Akademiya» filmi ham voqealarni yoritib berishda originallikka erisholmadi. Voqealar joyida olib borilgan kuzatishlar, reportajlar va sahnalashtirilgan lavhalardan birortasi ham tomoshabin yodida qolmadidi. Kadrlar miliitsiya xizmatiga ishga kelgan yangi xodimlarning paradi, yig'inlari, o'quv mashg'ulotlaridangina iborat bo'lib qolgan.

Kinematografchilarmiz komediya janrida ham ijod qilishni o'zlashtira boshlaganini yuqorida aytib o'tgan edik. «Diqqat, motor!» «Xo'roz qochdi» komediyalarining achchiq sabog'idan keyin studiyamiz jamoasi yana xalq og'zaki ijodi namunalariga, ertaklar olamiga murojaat qilib yangi-yangi filmlar yaratishga kirishdi. Zangori ekranda Munid Zokirovning «Baxt gullari», Melis Abzalovning «Zumrad va Qimmatning sarguzashtlari» filmlari shu tariqa paydo bo'ldi va namoyish qilina boshladи. Ushbu filmlar bolalar mavzusiga yangicha yondashish namunalaridan bo'lib qoldi.

Kinoertaklar mualliflari hammaga ma'lum syujetlar oldida shoshilib qolmaydilar, balki go'dak tomoshabinlarni o'zlariga sezdirmagan holda illyuziya va hayolot dunyosiga boshlab boradilar.

Filmda bolalarni kundalik turmush voqealariga hayolan jalb etib olib, ularni qiziqarli sarguzashtlar olamiga va attraktsion maydoniga, sirli-sehrli sahnalarga olib kiruvchi, ularni orzu va maqsadlar sari dadil da'vat etuvchi voqealar ko'p. «Baxt gullari» filmida yosh personajlar bilan bir qatorda aktyor Mels Abzalov yaratgan Dev obrazi ham bor. Ertak voqealarini ana shunday sirli-sehrli davom etishi juda zaruriy va tabiiydir, yosh tomoshabin o'zi bilmagan holda mualliflarga ergashib, yangi bir olam ichiga kirib ketadi, ertak oxiri nima bilan tugashini orziqib kutadi.

Muallifning har qanday niyatini amalga oshirish – film ijodkorlarining mahoratigagina bog'liq. Shukurkim, "O'zbektelefilm" studiyasida epchil, mahoratli, haqiqiy ijodkorlar ko'p. Studiyada mehnat qilayotgan o'nlab malakali rejissyorlar o'zlariga ishonib topshirilgan har qanday vazifaning yetuk darajada amalga oshishi uchun suratga olish jarayoniga qo'shilib ketaverishi, ishni oxirigacha yetkazib, yakunlab berishi mumkin.

Uzoq tajribalardan kelib chiqib aytish mumkinki, turli xil janrlarda, turli xil mavzularda filmlarni tasvirga olaverib, qo`lu oyoqlarimiz «kino yaratish»ning o`ziga xos yo`nalishini belgilashga katta hissa qo`shish uchun imkoniyat yaratdi. Bu bejiz emas, zero Moskvadagi Oliy kinematografiya kurslarida bizlarga ta`lim bergen, lektsiyalar o`qigan, bizlarni o`zining filmlarida ishtirok etishga taklif qilib, malakamizni, mahoratimizni oshirgan ustozimiz – Rossiya xalq artisti Emil Lotyanu edi. Diplom ishimiz bo`lmish «Eshmat - ezgulik farishtasi» nomli qisqa metrajli badiiy filmimizni esa yana bir ustozimiz, El og`ziga tushgan ajoyib rejissyor Ali Hamroev rahbarligida ishlab chiqqanmiz. Shundan so`ng ko`p yillar “O`zbektelefilm” studiyasida hujjatlari filmlar ustida ijod qilib ularni tasvirga olish bilan shug`ullanishga yetib keldik. Ana shunday tayyorgarchiliklar ko`rib, ustiga ustak, bir qancha reportaj, ocherk, televizion badiiy filmlarni tasvirga olib yurGANimizdan keyingina, ustozlardan o`rgangan tajribalarimizga ishonch hosil qilGANimizdan so`ng, ko`p seriyali badiiy asarlar yaratishga jazm etdik. Bu bizning o`ttiz besh yillik hayot va ijodimizning maxsuli edi, amaliy-tadrijiy o`sish, yuksalish pog`onali.

O`zbek televizion kinochilar ko`p seriyali badiiy asarlar yaratishda jahonga mashhur bo`lgan eng yaxshi filmlar tajribalarini yaxshilab o`rganganlar. Bugun, ayniqsa, «Sarson-sargardonlikda», «Bahorning 17 lahzasi», «Katta tanaffus», «Po`lat qanday toblandi?», «Inqilob tufayli tug`ilganlar» kabi Markaziy TV asarlari, shuningdek, «Devid Kopperfild», «Forsaytlar haqida saga», «Hayotdan ortiqroq tavakkal», «Jeyn Eyr» kabi chet el ko`p seriyali filmlari tajribalari qo`l keldi. Studiyamiz ish boshlagan dastlabki filmlarning ommalashuvida, shu bilan bir vaqtida televizion kinoning barcha janr turlari taraqqiy topa borishida bunday tajribalar asqotishi – ayni haqiqat.

Telekino imkoniyatlari birinchi navbatda ko`p seriyali kinoning imkoniyati ortishi – bu san`at turi sifatidagi TV imkoniyatlarining ham ortishidir. Ushbu haqiqatni anglab yetish esa, o`zlarini telekinoga bag`ishlagan rejissyorlar va boshqa mutaxasssilarning shaxsiy tajribalariga bog`liq.

Teledasturlar uchun uzun tuyuladigan, ammo vaqtি cho`zilganligi sabab «ko`p seriyali filmlar» ro`yxatiga kirib qolgan ba`zi asarlarning nomini va ularning uzunlik vaqtlarini quyida sanab o`tamiz:

«Shashmaqom» – 1 soat 27 minut; «Yana o`sha Nasriddin» – 1 soat 40 minut; «Ilon» – 1 soat 30 minut, «Nolinchi variant» – 1 soat 30 minut; «Hayotga qaytish» – har bir seriyasi 45 minut (2 seriya), «Yulduzli osmon» – 1 soat 40 minut davom etadi.

Shu o`rinda, «O`zbektelefilm» mahsulotlari orasida ijodiy tur sifatida janr va mavzu, stilistik nuqtai nazardan har xil filmlar mavjudligini qayd etib o`tish lozim. Filmlarning barchasi kinochilarimizga berilgan ijodiy vazifalarini hal etishda yordam beruvchi lirizm, patetika, kinoya va boshqa bo`yoqlardan, uslublar majmuidan xoli emas.

Buni o`zimizning o`ttiz-qirq yillik ijodiy tajribalarimizdan misollar keltirgan holda izohlab o`tamiz. Bevosita o`zimning rahbarligimda bir necha ko`pseriyali kartinalar – «Qabohatga qo`yilgan tuzoq» (2 seriya), «Baland tog`lar ostida» (4 seriya), «Lafz» (6 seriya), «Bog`» (7 seriya) va boshqa asarlar yaratildi.

Kinotanqidchilar e'tirof etishlaricha, «Lafz» nomli ko'pseriyali film o'zbek telekinosi sohasida chin ma'noda yangilik deb qabul qilindi. Asar mavzusi ifoda bo'yoqlari bilan tomoshabinlarda yaxshi taassurot qoldirdi. Mavzuning yangiligi shundan iborat ediki, biz ilk bora ulug` hadisshunos bobomiz Al-Buxoriy hadislariga murojaat qilib, shu asosda syujet voqealarini pishitib oldik. Stsenariy mualliflaridan biri Farhod Musajon bilan birga asar yo'nalishini qadimiy xalq ertaklariga xos bo'lgan soddalik, oddiylik ila ifodalashga urundik. O'ylaymizki, tomoshabinlarni ergashtirib olib ketayotgan voqealar oqimi, filmdagi maxsus realizm darajasi hammaga ma'qul tushdi.

«Lafz» filmi ustida olib borilgan ish o'z ijodimda ham muhim burilish hosil qildi. Filmdagi har tomonlama yangi ifoda uslublari, vazmin hikoya qilish usuli, zangori ekranning noyob ifoda vositalari – filmni o'tmish hayotidan olingan jonli reportaj kabi qabul qilishga imkon beradi.

«Lafz» kartinasida ishtirok qilgan aktyorlar guruhi ham o'zlariga bildirilgan ishonchni oqlab chiqqa oldilar. Biz bu filmda qatnashgan ko'plab aktyorlar tajriba hosil qilishida, mahoratda ancha kamol kasb etganliklariga o'zimiz guvoh bo'ldik. Bosh rollarning birini o'ynagan aktyor Said Muxtorov bag'ritosh, nokas odam rolini ijro etishda ajoyib mahorat ko'rsatdi va o'ziga topshirilgan vazifani qoyilmaqom bajarib chiqdi. Filmdagi boshqa aktyorlar ham o'zlarining ijro mahoratlarini ancha charxlab oldilar.

«Lafz» asari kasb etgan tajriba va saboqlar hamma kinochilar uchun namuna bo'ladi, deb o'ylaymiz. Filmning muvaffaqiyatli chiqishiga sabab, bizningcha, tanlagan ifoda usulimiz – teleekran uchun juda yarashimli, umum-estetika jihatdan, ham tomoshabinbop bo'lib chiqdi. Ushbu film boshqa ko'pseriyali asarlarning o'zbek televideniesida yaratilishiga yo'l ochib berdi, deyish mumkin. Darhaqiqat, asarning muvaffaqiyatli chiqqan jihatlarini kinotanqidchilardan tortib, tomoshabinlar ham o'z vaqtida izhor etib turdilar.

2001 va 2003-2004 yillarda biz yana ikkita asarni tayyorlab, zangori ekranlarda namoyish etishga muvaffaq bo'ldik, bular: «Bog`» va «Imon» filmlari edi. Garchi bu ishlar janriga va mualliflarning niyati, g'oyasiga ko'ra turlicha yechim talab etadigan filmlar bo'lsa-da, rejissyor sifatida har ikkala materialga ham yangicha yondoshishga urindik.

Shu tariqa, ijodimdagagi yangi bir yo'nalishni – filmlarimdagagi didaktik ohangni turli davr va turli qahramonlar taqdiri orqali tomoshabinlarga singdirishga moyillik sezdim. Keyinchalik, «Imon» filmida mana shunday poetik talqin ruhini topa olganimiz, chin insoniylik ruhini kuchaytirish yo'llarini aniqlashga va filmda shu ruhni bera olganimiz ayni muddao bo'ldi.

«Imon» filmi uchun stsenariyni bizning g'oyamiz va buyurtmamiz bo'yicha yozuvchi Miraziz A'zam yozib taqdim etdi. Filmda «hech vaqt birov larga yomonlik qilma, birovning haqini yema, aks holda o'zingga yomon bo'ladi», degan g'oya zamonaviy voqealar asosida talqin qilingan. Yosh biznesmen yigit - bozor xo'jayini. U o'zi ham hech kutmaganda vijdonsiz va manman odamlar bilan qarama-qarshilikka borib qoladi. Keksa tuhmatchi, shu bozorda savdo-tijorat ishlari bilan shug'ullanadigan badniyatli bir odam butun oilasi - xuddi o'zi kabi tuhmatchi o'g'il-

qizlari bilan mana shu biznesmen yigitning qanotini qayirmoqchi, yo'ldan olib tashlamoqchi. Bozor xo'jayini mening xotinimni mashinasi bilan urib, o'limiga sababchi bo'ldi, deb tovon talab qila boshlaydi. Tuhmatchilar bu ishda yutib chiqish uchun har qanday razillikdan qaytmaydilar, hatto sud xodimlarini sotib olish ilinjiga ham tushib qolishadi. Ammo tuhmatchilarning qilmishlari fosh bo'ladi, razillar oilasi esa, iyomon-e'tiqod taqozosiga muvofiq, qattiq jazo oladilar.

«Imon» va «Lafz» filmlari ruhan bir-birlariga yaqin asarlar. Ularni al-Buxoriy bobomiz to`plagan hadislar (Muhammad alayhissalomning hikmatli so`zlari) ruhi birlashtirib turadi. Aktyorlarimiz ijrosida namoyon bo`lgan kuchli dramatizm, psixologik holatlar – Said Muxtorov va Farziddin Fayozovlarning talqini va mahoratining samarasidir.

Aytib o'tadigan yana bir gapim shuki, ijodimda ko`pseriyali «Bog`» filmini yaratishimiz ham muhim o`rin tutadi. Rejissyor sifatida meni yozuvchi Shoyim Bo`taevning shu nomli qissasi, aniqrog`i, mazkur qissaning o`ziga xos tili, syujeti, asarning ichki shiddati, epik mohiyati qiziqtirib qo`ydi. Asar muallifi ne-ne mashaqqatlar natijasida bir oilada bor-yo`g`i ikki odam - buvi bilan nabiragina qolganligini yozadi. Hayotda bu - bo`lishi mumkin bo`lgan voqeа. Vaqt kelib nabira ilm olish uchun shaharga jo`naydi. Kampir uzoq yillar mobaynida oilasini boqib kelgan bog`ni va uyni qoravullab yashaydi.

Meni mana shu qissa assosida film yaratishga majbur qilgan narsa: asar qahramonlarining boy ichki dunyosi edi. Bundan tashqari, rejissyor kampir va nabira obrazlarini turli xil odamlar davrasida, qishloqda va shaharda tasvirlash orqali, zamonaviy odamlarning ichki dunyosiga nazar solishi mumkin edi. Shunga ko`ra, biz operator M.Soliev ikkovimiz qissani qayta-qayta o`qishga, o`qiganlarimizni tafakkur elagidan o`tkazishga kirishdik.

Kinoda mazmun va uning ifodasi – ancha murakkab ish. Mana shunday paytlarda sahnalashtiruvchi rejissyor bilan operatorning hamkor-hamfikrliligi juda muhim. Biz bunday hamkorlikning yaxshi natijalar keltirishi mumkinligiga ishonib, yana bir asarni zangori ekranga olib chiqish rejasini tuzdik. Bu - ulug` adibimiz Sadreddin Ayniyning o`lmas asarlaridan biri «Sudxo`rning o`limi» qissasi edi. Asarni tasvirga olish ishlari Buxoroda amalga oshirildi. Ayni kunlarda filmni montaj qilish, ovoz berish ishlari davom etayotir. Umid qilamizki, bu film – bizning uzoq yillar mobaynida to`plangan tajribalarimizni yanada boyitishda, mahoratimizni jiddiy sinovlardan o`tkazishda yaxshigina maktab rolni o`tayajak!

2006 yilda yana bir teleserial-asar yaratilgandi – rejissyor S.Boboevning «Bir kam dunyo» asari zangori ekranlarga chiqarildi va tomoshabinlar hukmiga havola qilindi. Ushbu film Boboevning hamisha izlanishda, qizg`in mehnat quchog`ida, izlanishlar yo`lida ekanidan bir darak.

Telefilmning ifodalash kompozitsiyasi ma'lum bir qisqagina vaqt oralig`ida tasvirga olingan «tirik ijro» materialini tomoshabinga yetkaza bilishi kerak. Ko`pseriyali kartina yaratishda alohida bir kadr-epizodga emas, balki barcha seriyalarning stilistik jihatdan umumlashuviga va bir-birlariga muvofiq kelishlariga e'tiborni qaratish lozim. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda Markaziy TV asarlari hisoblanmish ko`pseriyali filmlar «Trest», «Bahorning o'n yetti lahzasi», «Po`lat

qanday toblandi?» kartinalarining muvaffaqiyatlari tasvir yechimi va aktyorlar ijrosining yagona maqsad sari yo`naltirilganligiga ham bog`liq edi.

Keyingi paytlarda zangori ekran orqali namoyish etilayotgan o`zbek ko`pseriyali filmlari mavzu jihatidan bir qancha yo`nalishda yaratilayotganligini aytib o`tish kerak, bular ma`naviy mavzudagi filmlar («Imon»), detektiv («Illon»), komediya («Qaytmas»), musiqiy («Uvaysiy»), sarguzasht («Akbarning sarguzashtlari»), ertak («Zumrad va Qimmat»), tarixiy («Mehrobdan chayon», «Lafz»), sanoat va ishlab chiqarish mavzusida («Taqdir yo`llari») kabi filmlardir.

Tomoshabinda sarguzashtli, «oldi-qochdi»li, detektiv mavzularidagi filmlarga qiziqish hech qachon so`nmaydi. Mana shu yo`nalishdagi kinoni ham qiziqarli, ham ta`sirli, ham tarbiyaviy ahamiyatli qilib, maromiga yetkazib, ekranga uzatsak - yoshlarning tarbiyasiga, odob-axloqiga, bilimiga ham hissa qo`shadigan asarlarning dunyoga kelishiga sabab bo`lamiz.

Hozirgi zamon o`zbek ko`pseriyali kino san`atida badiiy shaklning alohida turi sifatida o`zining tiliga, ifoda shakllariga ega bo`lish yo`lida izlanishlar olib borilmoqda. O`zbek telekino ijodkorlari jahonning shuhrat qozongan kinolariga taqlid qilmasdan, seriyali asar uchun mo`ljallangan materialdan foydalanishni tashkil qilishda, turli-tuman milliy-an`anaviy, badiiy namunalarni yaratishda adabiyot, sahna, musiqa, tasviriy san`at yutuqlaridan ham foydalanmoqdalar.

Albatta, kinematografiya sohasida televideniening ijodiy imkoniyatlaridan ham katta imkoniyatlar mavjud, misol uchun balki kinoning tasvirlash vositalari, badiiyati, montaj va ritmika usullarini teleekran filmlarini yaratishda qaysidir vaqtarda takrorlab bo`lmaydi. Ammo shu bilan birga, telekinoda ham «katta kino»da erishib bo`lmaydigan afzalliklar mavjud. Agar kinematograf o`z sohasida teatr an`analaridan voz kechishni taklif etsa, teleekranda aynan shu an`analarga suyanib, muvaffaqiyat qozonib, keyinchalik ommaviy sahnalarni zabit etgan janrlar – estrada-shou, teleteatr, teleminityurlar ham aynan TVda tashkil etilib, katta sahnalarga shu yerdan turib qadam tashlagani bejiz emas.

Ommaviy auditoriya bilan aloqalarni kengaytirishda televideenie vositalariga teng keladigan imkoniyatlar hech qaysi san`at turlarida yo`q.

Televizion ijodkorlik – zamonaviy adabiyot, publisistika (turmush, oila, axloq muammolari shuning ichida) bilan bog`liq bo`lgan murakkab jarayonlarga ham bevosita munosabat bildirib turadi. Agar TV faoliyatidagi mana shu keng ommaviylik jihatlarini hisobga olmaydigan bo`lsak, uning jamiyatimizdagi zamondoshlarimiz ehtiyojini aks ettirishdagi o`rniga munosib baho berolmaymiz.

O`zbek ko`pseriyali telefilming taraqqiyoti bundan buyon dramaturgiya sifatiga bog`liq bo`ladi. Muallif endilikda davrga moslab syujet tuzishni asarga boshdan-oyoq zamonaviy ohangdorlik bag`ishlashni bilishi kerak. Ko`pseriyali film ko`rinishiga ko`chirilayotgan har qanday adabiy asar stsenariychidan televizion ijodkorlikning maxsus qonun-qoidalarini yaxshi bilishni talab qiladi. «Lafz» ko`pseriyali televizion filmining adabiy materiali ustida ishlaganimizda bunga ishonch hosil qilganimiz.

XXI asr boshidagi o`zbek ko`pseriyali telefilmlari – televizion san`at xususiyatlari bilan bog`liq bo`lgan ijodkorlik deganigina emas, balki endilikda

vaqtning, kundalik turmush voqeliklari fonida insonlarning ichki dunyosini ham tadqiq qila olish deganidir. Televizion san'atning kommunikativlik tabiatini ko`pincha «dialog» (musohaba, muloqat suhbat) degan so`z bilan tushuntirmoqchi bo`ladilar. Televideniening eng kuchli tomoni ayniqsa, telefilmlarda namoyon bo`ladi. Televideniening tomoshaviylik xususiyatlariga baho berishda albatta, xalqimizning turmushidagi bugungi kundagi faktlarga mutanosiblikini ham hisobga olish zarur. Teleekrandagi qahramon – oddiygina ishtirokchi emas, balki xalqimizning milliy xususiyatlarini, ma’naviyati va mentalitetini ham namoyon etadigan insondir.

Televizion film, ayniqsa, ko`pseriyali telefilm voqeliklardan, aniqroq aytganda, televizion qissada hikoya qilinadigan voqeliklardan chetga chiqib ketolmaydi. Bu borada telemutaxassis V.Voroshilovning quyidagi fikrlarida jon bor: «Televizion tomoshaga bo`lgan intilish, - deb yozadi u, - teleasarning o`zigagina emas, balki o`sha asar bilan bog`liq bo`lgan hayotiy koordinatlar tizimiga ham yo`naltirilgan intilishdir»<sup>38</sup>.

Qolaversa, teleserial kino san'atining ijtimoiy hayotdagi o`ynayotgan psixologik rolini to`la anglab yetish uchun hali bu san'at sirlarini qayta tadqiq qilib chiqishimiz shart. Bu serial-serial filmlar nega tomoshabinlarni o`ziga shunchalik maftun etib oldi? Teleserjallarning tomoshabinlar ruhiyatiga, tarbiya va axloqiga ta'siri-chi, bu masalalarni ham birma-bir o`rganib chiqish mavridi kelmadi. Hozir bunday ilmiy tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo`lib borayotirki, ko`pseriyali telefilmlarning san'at turi sifatida tomoshabinga ta'sir qilish tarmoqlari kengaygandan kengaymoqda. Ko`pseriyali televizion filmlar asar ishtirokchilarining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalarini, xarakterini, nutq san'atini namoyon qilishda katta imkoniyatlarga ega bo`lib borayotir.

Zangori ekran uchun kinofilmlar yaratishda endilikda kinoteledramaturgiyaning ahamiyati ham oshib boradi. Ko`pseriyali telefilm qahramonlarini bundan keyin ham «ishtirok etish samarasi» degan umumqoidaga muvofiq, tomoshabinlar uchun taniqli va aziz, obro`-e'tiborli shaxslarga aylanib boraveradilar. Qolaversa, kinoasarlar mohiyatiga yuklangan yuk yanada vazminlashadi, muallifning film «xo`jayini» sifatidagi erkinligi oshadi. Serial filmlar «katta kino»da mavjud bo`lgan cheklavlarni yengib o`tib, o`zining tomoshabinlariga yanada kuchliroq ta'sir etish vosita va yo'llarini kasb etib boraveradi. Zero, televidenie - jahonga qarata ochilgan yorug` va katta darchadir.

---

<sup>38</sup> Ворошилов В. Телевидение, вчера, сегодня, завтра. –М.: Искусство, 1984. с.126.

## X U L O S A

Ushbu tadqiqotda o'zbek televizion kinosining shakllanish jarayonlari, uning taraqqiyot bosqichlari to'g'risida fikr yuritdik. Respublikamizda zangori ekran uchun filmlar paydo bo'lishi qonuniy tusga kirib bo'ldi. Televidenie ichida dunyoga kelgan, televideniening texnikaviy, tashkiliy va ijodiy imkoniyatlarining samarasi o'laroq jamiyat va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini belgilovchi omil sifatida teleseriallar inson taqdirini va kechinmalarini, davr o'zgarishlari va yangiliklarini qahramonlar ichki dunyosini, shu bilan birga, atrof-muhit manzaralarini yanada to'laroq va yorqinroq aks ettira boshladi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab o'zining dastlabki tetapoya qadamlarini tashlagan O'zbekistonning kinoteleijodkorlari shu yillar mobaynida murakkab taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdilar, badiiy jihatdan anchagina sayoz bo'lgan asarlar yaratish bilan birga, chinakam san'at asari deyishga loyiq mukammal badiiy filmlarni dunyoga keltirdilar. Bularning bari «O'zbektelefilm» studiyasi jamoasining yangiliklarga intilishlarining, mehnatkashligining samarasi, uzoq izlanishlar, ijobiy tajribalar, shuningdek, milliy adabiyoti, teatr, kino va boshqa san'at turlari, an'analariga mustahkam suyana olganining natijalaridir.

Tadqiqotda biz «O'zbektelefilm» studiyasida tayyorlanib, mamlakatimiz zangori ekranlari orqali namoyish etilgan ba'zi filmlarning yaratilish tarixi, asarlarning g'oyaviy-badiiy saviyasi, janr va mavzu yo`nalishlari borasidagi tadqiq va tahlil ishlarimizni misollar orqali tahlil qilish bilan quyidagi yakuniy fikrlarga keldik. Natijada, «O'zbektelefilm» studiyasi yaralishi, kamolga yetishi, navqiron bir korxonaga aylanib, televidenie uchun yetuk asarlar yaratib berayotganini bosqichma-bosqich kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik. Birinchi bosqichda teleokinoijodkorlar kinoning tajriba va an'analaridan ta'lif olganliklari aytib o'tildi. Darhaqiqat, «televizionchi»lar mavzu tanlash, janr yo`nalishlarini belgilash, asarni kompozitsiyalari, s'yomka va montaj ishlarini aynan «katta kino»dan o'rganganliklari e'tirof etildi.

Demak, **birinchi bosqich** o'rganish bosqichi bo'lib, bu - televidenie uchun film yaratish, film yaratishning yangi san'at turi sifatidagi keng imkoniyatlarini tajribada anglash ishlarining davom etishi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich bosqichda ko'plab yo'qotishlar, muvaffaqiyatsizliklar yuz berdi, 70-80-yillarda ishlangan filmlarda mualliflarning tajribasizligi tufayli anchagina nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi, ba'zan yuzaki rejissura ishlari tufayli bunday nuqsonlar chuqurlashib ham ketdi. Kinodokumentalistikamiz sohasidagi yaratilgan ishlar ba'zan faqat film-kontsertlar, film-portretlar, tabiat haqidagi qadimiy shaharlarimiz va me'moriy inshootlarimiz haqidagi son-sanoqsiz qisqa lavhalardan iborat filmlar yaratildi. Mustaqillik davriga kelib «O'zbektelefilm» studiyasining jamoalari tajriba to'plab, yaratilgan asarlar publitsistik ruh, zamonaqiylik kabi, dolzarb muammolar talqini bilan to'la boshlagan, badiiy va hujjatlari filmlarining yanada jozibali va barkamollik kasb eta boshlagani ijobiy holdir deb baholash mumkin.

O'zbek televizion kinosining rivojlanishida Toshkent, Moskva va Leningraddagi oliy ta'lif dargohlarini bitirib kelgan milliy kadrlarimiz – L.Boboxonov, Sh.Junaydullaev, S.Ahmadxo'jaev, B.Ahmedov, R.O'tkirov, Sh.Bizaatov, N.Mahmudov, M.Soliev, N.Gerasimov, Q.Karimov, S.Boboev, R.Xakimova, S.Abdurahmonova va boshqa rejissyorlar, operatorlar, ovoz rejissyorlari, xodimlar ulkan rol o'ynadilar. Ular qisqa vaqt ichida hujjatli kino, badiiy kino, ko'pseriyali teleserial kinolar yaratish tajribalarini o'zlashtirib, o'z ishlarining ustalari bo'lib yetishdilar.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek televizion kinosida to'plangan tajribalar, qilingan ishlar, yaratilgan filmlar asosida sifat o'zgarishlari bilan bezalgan, kamolga yetgan yangi-yangi iste'dodlar o'z asarlari ila bo'y ko'rsatib, e'tiborni torta boshladi. Ko'p seriyali televizion filmlar yaratishda yangi bir bosqich - badiiy kamolot bosqichi boshlandi.

90-yillar va yangi asrimizning dastlabki yillarda telefilmchilar jamoasida mualliflar iste'dodining turli yo'naliishlarda namoyon bo'lishiga imkon yaratish, qay birlari hujjatli telefilm, qaysi birlari badiiy seriallar yaratishda, o'zlarining iste'dodi, mahoratini kamol toptirish ishlarida aniq bir yo'naliishlarni kasb eta boshladi.

Mamlakatimiz rahbariyati o'zbek badiiy telefilmlarni ishlab chiqarishda yangi-yangi imkoniyatlarni rejali ravishda kengaytirish masalasiga e'tiborni qaratishi sohamizdag'i ishlarning yanada yangi yuksakliklarga ko'tarilishida turtki bo'ldi. 2005 yil 8 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mustaqil teleradio uzatish kanallarini isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni chiqdi, shu yilning 27 dekabrida esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida»gi qarori qabul qilindi.

Shular asosida 2006 yilning 12 iyunida Milliy teleradiokompaniya «Milliy serial» ijodiy-ishlab chiqarish dasturini qabul qildi. Dasturga ko'ra, badiiy film ishlab chiqarishni hozirgidek yiliga 10 soatlik hajmdan 2010 yilgacha 50 soatga yetkazish mo'ljallanmoqda. Bu - o'zbek televizion kino san'ati o'zining rivojlanish tarixida yangi yuksalish bosqichini boshlash arafasida ekanligidan darak beradi.

**“O`zbektelefilm”da 1961-2006 yillarda tasvirga olingan kinovideomahsulotlar filmografiyasi (teleserial, badiiy film, film-kontsert, multfilm va hujjatli telefilmlar)**

1961-1967 yillar			
1.	“Azizaxon”	bad. f-m, 4 qism	Mual. J.Abdullaxonov Rej. M.Muhamedov Oper. F.Olimov
2.	“Assalom, rus og`amiz” (“Zdravstvuy, russkiy brat”)	xuj. f-m, 4 qism	
3.	“Aya”	xuj. f-m, 5 qism	Rej. M.Muhamedov
4.	“Oybek” (“Aybek”)	xuj. f-m, 3 qism	Rej. H.Ibrohimov Oper. A.Dalaboev, A.Vaxobov
5.	“Qudratli to`lqin” (“Burnye volny”)	bad. f-m, 3 qism	Rej. H.Ibrohimov
6.	“O`zbekiston taomlari” (“Blyuda Uzbekistana”)	xuj. f-m, 1 qism	Rej. A.Muhamedov
7.	“Do`slik tashrifi” (“Vizit drujby”)	xuj. f-m, 1 qism	
8.	“Yo`lga otlanamiz” (“V put-dorogu”)	xuj. f-m, 3 qism	
9.	“Ikkinchchi iste`dod” (“Vtoroe prizvanie”)	xuj. f-m, 4 qism	
10.	“Mexikoda uchrashamiz” (“Vstrechimsya v Mexiko”)	xuj. f-m, 2 qism	
11.	“25 asrlik shahar” (Samarqand haqida) (“Gorod 25-ti vekov”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. G`Shermuhamedov
12.	“Do`slik nigohi bilan” (“Vzglyad druga”)	xuj. f-m, 2 qism	
13.	“Gidroponiika”	xuj. f-m, 1 qism	Rej. V.Raykova
14.	“Dyuymovochka	t/f-m, 2 qism	
15.	“Ona zamin farzandlari” (“Deti zemli rodnoy”)	xuj. f-m, 2 qism	Mual. A.Karimov Rej. M.Muhamedov Oper. A.Dalaboev
16.	“Yo`llar chorlaydi” (“Dorogi zovut”)	xuj. f-m, 5 qism	Rej. B.Xo`jaev Oper. M.Hamidov
17.	“XII spartakiada o`yinlari” (“Igry XII-y spartakiady”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. A.Ibrohimov Oper. A.Qoriev
18.	“Sattor akaning ikki hikoyasi” (“Dva rasskaza Sattor aka”)	xuj. f-m, 2 qism	
19.	“Zarafshon qizlari” (“Devushki iz Zerafshana”)	xuj. f-m, 2 qism	
20.	“Hammasi inson uchun” (“Vsyo dlya cheloveka”)	xuj. f-m, 1 qism	
21.	“Oddiy kunlardan biri” (“Odin iz obyichnyx dney”)	xuj. f-m, 1 qism	
22.	“Shunday shahar bor” (Navoiy shahri haqida)	xuj. f-m, 1 qism	Mual. F.Rashidov Rej. A.Yoqubov

	(“Est takoy gorod”)		Oper. F.Matsakas
23.	“Ona yurtim manzaralari” (“Etyudy o rodnoy zemle”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. G`Shermuhamedov Oper: V.Panov
24	“Moydodir”	t/f-m, 1 qism	Rej. V.Raykova
25.	“Moviy tog`lardagi yog`du” (“Raduga gornyx vershin”)	xuj. f-m, 1 qism	Rej. A.Yoqubov
26.	“Mehri ona”	t/f-m, 4 qism	
27.	“Mimik etyudlar” (“Mimicheskie etyudy”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej.L.Bobohonov
28.	“Biz raqsga tushamiz” (“My tantsuem”)	f-m - konts, 4 qism	Rej. V.Raykova Oper. A.Dalaboev
29.	“Tik qiyaliklarda” (“Krutye vershiny”)	xuj. f-m, 3 qism	
30.	“O`zbek zamini bo`ylab” (“Po zemle uzbekskoy”)	xuj. f-m, 3 qism	
31.	“O`zbek sirki sahnasida” (“Na orene uzbekskogo sirk”)	xuj. f-m, 3 qism	Oper. A.Dalaboev
32.	“Hosil kutib” (“V ojidanii urojaya”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. A.Yoqubov Oper. F.Matsakas
33.	“Pioneerlar ishi haqida” (“O delax pionerskix”)	xuj. f-m, 1 qism	
34.	“O`t-o`lanlar nimalar haqida shivirlaydi” (akad. S.Yunusov haqida) (“O chyom shepchut travy”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. H.Ibrohimov
35.	“Diqqat, kobra!” (“Ostorojno, kobra!”)	xuj. f-m, 1 qism	Rej. B.Xo`jaev
36.	“Otello” (aktyor Abror Hidoyatov haqida)	xuj. f-m, 2 qism	Mual. – Oper. F.Olimov
37.	“Bitta orzu – bitta maqsad” (“Odna mechta – odna sel”)	xuj. f-m, 3 qism	Rej. A.Yoqubov Oper. V.Panov
38.	“Laylo Sharipova kuylaydi” (“Poyot Laylo Sharipova”)	f-m – konts, 4 qism	Rej. U.Burhonov Oper. F.Olimov, Kim Gim Nyan
39.	“Ona zamin bo`ylab” (“V krayu rodnom”)	xuj. f-m, 4 qism	
40.	“Ona zamin kuychisi” (rassom Urol Tansiqboev haqida)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. G`Shermuhamedov
41.	“Odamlar xizmatidagi avlod” (“Nasledniki na slujbe lyudey”)	xuj. f-m, 3 qism	
42.	“Tamara Xonim kuylaydi” (“Poyot Tamara Xanum”)	f-m – konts, 3 qism	Rej. M.Asadullaev Oper. A.Dalaboev
43.	“Cho`lning zabit etilishi” (“Pokorenie stepi”)	xuj. f-m, 2 qism	Mual. F.Rashidov Rej. A.Yoqubov Oper. V.Panov
44.	“Ozod Bolqon qo`shiqlari” (“Pesni svobodnyx Balkan”)	f-m – konts, 2 qism	Rej. – Oper. B.Xo`jaev
45.	“Biz nega bu yerkarga keldik” (“Zachem my priexali syuda”)	xuj. f-m, 3 qism	
46.	“Rais hikoya qiladi”	xuj. f-m, 1 qism	

	(“Rasskaz Predsedatelya”)		
47.	“Konlar razvedkachilar” (“Razvedchiki nedr”)	xuj. f-m, 2 qism	
48.	“Ravshan va uning do`stlari” (“Ravshan i yego druzya”)	xuj. f-m, 3 qism	
49.	“Marg`ilon kamalagi” (“Raduga Margelana”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. A.Yoqubov Oper. F.Matsakas
50.	“Qo`lingni ber, cho`l” (“Day ruku, step”)	xuj. f-m, 3 qism	Mual. G`Rasulov Rej. H.Ibrohimov
51.	“Do`stlik sahifalari” (“Stranitsy drujsby”)	xuj. f-m, 1 qism	
52.	“Olimovlar oilasi” (“Semya Alimovych”)	xuj. f-m, 1 qism	
53.	“Bir kulishaylik” (“Davayte posmeyomsya”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. M.Muhamedov Oper. A.Dalaboev
54.	“Sharq qo`lyozmalar xazinasi” (“Sokroviščnitsa vostochnykh rukopisey”)	xuj. f-m, 2 qism	
55.	“O`zbekistondan esdaliklar” (“Suveniry Uzbekistana”)	xuj. f-m, 1 qism	
56.	“E’tiqod uchun sud qilishmaydi” (“Sudyat ne za veru”)	xuj. f-m, 3 qism	Mual. A.Jukov Rej. A.Yoqubov Oper. V.Panov
57.	“Toshkent teatrlarida” (“V teatrax Tashkenta”)	xuj. f-m, 4 qism	
58.	“Sokin tong” (“Tioxoe utro”)	xuj. f-m, 2 qism	
59.	“Tiriklar ichidagi murdalar” (“Myortvye sredi jivyx”)	xuj. f-m, 2 qism	
60.	“Toshkent, Xlebushkinaga” (“Tashkent, Xlebushkinoy”)	xuj. f-m, 2 qism	Mual. – Rej. F.Matsakas, A.Qoriev
61.	“Hamma uchun Universitet” (“Universitet dlya vsex”)	xuj. f-m, 1 qism	
62.	“Hayot tongi” (“Rassvet jizni”)	xuj. f-m, 2 qism	
63.	“O`zbekiston – 66”	xuj. f-m, 3 qism	Rej. M.Muhamedov Oper. F.Matsakas, A.Qoriev
64.	“Yashnayotgan O`zbekiston” (“TSvetuščiy Uzbekistan”)	xuj. f-m, 3 qism	
65.	“Bahor chizgilari” (“Etyudы o vesne”)	xuj. f-m, 2 qism	
66.	“Yana safda” (“Vnov v stroyu”)	xuj. f-m, 3 qism	Rej. H.Ibrohimov
67.	“Abror Xidoyatov”	xuj. f-m, 3 qism	
68.	“Toshkent, 26 aprel” (zilzila haqida)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. H.Ibrohimov Oper. Kim Gim Nyan, M.Salimov, F.Matsakas
69	“Noma’lum so`qmoqlar bo`ylab” (“Na neizvestnykh tropax”)	xuj. f-m, 2 qism	
70	“Chimyonda bir kun”	xuj. f-m, 1 qism	

	(“Odin den v Chimgane”)		
<b>1968 yil</b>			
1.	“Oq yo`l” (“Dobrogo puti”)	xuj. f-m, 3 qism	Rej. A.Yoqubov Oper. F.Matsakas, T.Sodiqov
2.	“Livanlik mehmonlar” (“Gosti iz Livana”)	xuj. f-m, 3 qism	
3.	“Baxt yo`llari bo`ylab” (“Dorogami schastya”)	xuj. f-m, 2 qism	Mual. N.Vinogradov Rej. A.Muhamedov
4.	“G`ayri oddiy uy” (“Obыchnyy dom”)	xuj. f-m, 2 qism	
5.	“Televidenie Toshkentga qaytib keldi” (“Televidenie vernulos v Tashkent”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. A.Muhamedov Oper. Kim Gim Nyan
6.	“Muhabbat Shamaeva kuylaydi” (“Poyot Muxabbat Shamaeva”)	f-m. konts, 3 qism	Rej. H.Ibrohimov Oper. Kim Gim Nyan, A.Qoriev
7.	“Asrlarga dasthatlar” (“Avtografsi na veka”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. R.O`tkirov
8.	“Zamindagi izlat” (“Sledы na zemle”)	xuj. f-m, 2 qism	Mual. F.Rashidov Rej. H.Ibrohimov
<b>1969 yil</b>			
1.	“Muhiddin Qori Yoqubov”	xuj. f-m, 2 qism	Mual. A. Avdeeva Rej. H.Ibrohimov
2.	“Xorazm qo`schiqlari” (“Pesni Xorezma”)	f-m – konts, 3 qism	
3.	“Salom, Bolgariya” (“Zdravstvuy, Bolgariya”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. – Oper. B.Xo`jaev
4.	“Ellada yoshlari kuylaydi” (“Poyot molodoxyj Elladы”)	f-m – konts, 3 qism	Mual. – Rej. F.Matsakas Oper. V.Shugaev, A.Qoriev
5.	“Qish manzaralari” (“Zimnie etyudy”)	xuj. f-m, 1 qism	
6.	“Moviy kemalar” (“Golubые korabli”)	xuj. f-m, 2 qism	Rej. A.Yoqubov Oper. F.Matsakas, A.Qoriev
<b>1970 yil</b>			
1.	“Qo`g`irchoqboz” (“Kukolnik”)	bad. f-m, 25 daq.	Mual. - Rej. L.Boboxonov Oper. Sh.Junaydullaev
2.	“Bir kelib keting qishlog`imizga” (“Priezjayte k nam v derevnyu”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. V.Belousov Rej. A.Qosimov Oper. R.Islomov
3.	“Oq oltin” (“Beloе zoloto”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. - Rej. H.Ibrohimov Oper. S.Ahmadxo`jaev
4.	“Sharqning ko`hna obidalari” (“Starojilы Vostoka”)	xuj. f-m.	Mual. - Rej. A.Qosimov Oper. S.Axmadho`jaev
5.	“Hamro buvining ertaklari” (“Skazki babushki Xamro”)	xuj. f-m.	Mual. V.Mirazimov Rej. A.Qosimov Oper. S.Axmadho`jaev
6.	“Tashvishli dunyo kuychisi” (“Pravda strastey zemnyx”) (Shukur Burxonov haqida)	xuj. f-m.	Mual. A.Anichkin Rej. M.Xalaminskiy
7.	“Daryo yog`dulari”	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. - Rej. L.Boboxonov

	(“Sveti reka”)		Oper. O.Yusupov
8.	“Urgut naqshlari” (“Uzorы Urguta”)	xuj. f-m.	Mual. A.Sokolov Rej. E.Ahmedov Oper. L.Simbirtsev
9.	“Quvonchning tug`ilishi” (“Rojdenie radosti”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. - Rej. A.Qosimov Oper. S.Ahmadxo`jaev
10.	“Samarqandlik kulol Usta” (M.Oblaqulov haqida)	xuj. f-m. (arxivda)	Mual. R.Solihova Rej. A.Muhamedov Oper. V.Shurigin
11.	“Uch ulkan ximiya inshoati” (“Tri giganta ximii”) (Chirchiq, Navoiy, Olmaliq)	xuj. f-m.	Mual. – Rej. V.Mirazimov Oper. R.Islomov
12.	“Qizil Turkistonga salom” (“Privet krasnomu Turkestani”)	xuj. f-m.	Mual. Yu.Tarnopolskiy Rej. X.Ibrohimov Oper. V.Shurigin
13.	“Chiqish navbati sizga, Olim Xo`jaev” (“Vash vyyod, Alim Xodjaev”)	(xuj. f-m)	
14.	“Ra’no Sharipova kuylaydi” (“Poyot Ra’no Sharipova”)	xuj. f-m, 30 daq.	Mual. – Rej. T.Akromov Oper. M.Salimov

### 1971 yil

1.	“Kuzgi novella” (“Osennyaya novella”)	bad. f-m. 50 daq.	Mual. O.Xmelnitskaya Rej. – Oper. Sh.Junaydullaev
2.	“Bozsu shodasi” (“Ojerele Bozsuv”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. A.Goroxov Rej. R.Shermatov Oper. Kim Gim Nyan
3.	“Tikuvchi” (“Tkachixa”)	xuj. f-m, 14 daq. (arxivda)	Mual. O.Xmelnitskaya Rej. V.Leshtaev Oper. T.Kayumov
4.	“Tong, kunduz, oqshom” (“Utro, den, vecher”)	xuj. f-m.	Mual. - Rej. - Oper. V.Lyondis
5.	“Bo`ysunmagan she’riyat” (“Nepokoryonnyi stix”)	xuj. f-m.	Mual. F.Rashidov Rej. - Oper. Sh.Junaydullaev
6.	“Mehanizator”	xuj. f-m.	Mual. G.Ratsek Rej. H.Ibrohimov Oper. M.Salimov
7.	“Toshkent traktor zavodida” (“Tashkentskiy traktorniy”)	xuj. f-m.	Mual. G.Uzilevskiy Rej. H.Ibrohimov Oper. V.Shurigin
8.	“Tasvirga olish maydonidan reportaj” (“Reportaj so s`yomochnoy ploshadki”)	xuj. f-m.	Mual. – Rej. E.Xachaturov Mual. – Oper. M.Penson

### 1972 yil

1.	“Shashmaqom”	bad. f-m, 1 s. 27 daq.	Mual. Turob To`la Rej. T.Akromov Oper. V.Lyondis
2.	“Tanish chehralar” (“Znakomoe litso”)	bad. f-m, 1 s. 10 daq.	Mual. E.Eshmuhamedov Rej. - Oper. S.Ahmadxo`jaev
3.	“Moviy osmon yonida” (“U samogo sinego neba”)	bad. f-m, 42 daq.	Mual. V.Niyozmatov, A.Faynberg

			Rej. L.Boboxonov Oper. O.Yusupov
4.	“Menga qo’shiqni chizib ber” (“Narisuy mne pesnyu”)	f-m. - konts, 30 daq.	Mual. – Rej. L.Inozemtsova
5.	“Me’morning mohir qo’llari” (“Rukami iskusnyix zodchix”)	xuj. f-m.	Mual. V.Zoxidov, G.Pugachenkova Rej. H.Ibrohimov Oper. M.Salimov
6.	“Yuksaklikka intilib”	xuj. f-m, 15 daq.	Mual. – Rej. R.Islomov
7.	“Iste’dod bulog’i” (“Istoki talanta”)	xuj. f-m, 40 daq.	Mual. J.Teshaboev Rej. A.Qosimov Oper. N.Ryadov
8.	“Malik siri” (“Sekret Malika”)	(arxivda) 15 daq.	Mual. M.Kosых Rej. – Oper. M.Penson
9.	“Toshkent - mening shahrim” (“Tashkent - moy gorod”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. - Oper. S.Ahmadxo’jaev
10.	“Shunchaki jumla emas” (“Ne prosto fraza”)	xuj. f-m, 15 daq. (arxivda)	Mual. V.Belousov Rej. M.Mirzaev Oper. V.Shurigin

### 1973 yil

1	“Gulka”	bad. f-m, 1 s. 10 daq.	Mual. O.Xmelnitskaya Rej. – Oper. Sh.Junaydullaev
2.	“Navbatdan tashqari uchrashuv” (“Nekalendarniy match”)	bad. f-m, 45 daq.	Mual. K.Kryuk Rej. M.Og`amirzaev Oper. N.Ryadov
3.	“Qambarning sexrli sozi” (“Volshebny saz Kambara”)	f-m. konts, 30 daq.	Rej. M.Og`amirzaev
4.	“Xolisxon Qodirova kuylaydi” (“Poyot Xolisxon Kadyrova”)	f-m. konts, 30 daq.	Mual. – Rej. N.Qo`ldoshev Oper. M.Salimov
5.	“Kuyla yoshligim” (“Molodые golosa”)	f-m. konts, 28 daq.	Mual. – Rej. B.Ahmedov Rej. Sh.Bizaatov Oper. B.Gadabayev
6.	“Zarafshon qizlari” (“Devushki iz Zerafshana”)	xuj. f-m.	Mual. X.Stoychev, D. Abdulova Rej. X.Stoychev Oper. S.Ahmadxo’jaev B.Gadabayev
7.	“Toshkentning Lenin prospekti” (“Tashkent - prospekt Lenina”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. A.Petrov, R.Grishin Rej. Sh.Junaydullaev Oper. A.Umarbekov
8.	“Qorako’l”	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. F.Rashidov Rej. A.Qosimov Oper. M.Hamidov
9..	“O’rtoqlarim va o`zim haqimda” (“O tovarishax i o sebe”)	xuj. f-m.	Mual. N.Petrachenko Rej. A.Qosimov Oper. V.Shurigin
10.	“Quvonishga haqqim bor” (“Pravo na radost”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. G.Do`schenov Rej. A.Yoqubov
11.	“Zarafshonga uzoqdan kelib” (“Izdaleka v Zarafshan”)	xuj. f-m, 20 daq.	Mual. X.Stoychev, D.Abdulova Rej. X.Stoychev

			Oper. S.Ahmadxo'jaev
12.	"Respublikaning uchinchi ordeni" ("Tretiy orden Respubliki")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. – Rej. M.Qayumov
13.	"Telefilm - 73"	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. F.Rashidov, V.Mirazimov Rej. A.Yoqubov
14.	"Sherabodlik qizlar" ("Devushki iz Sherabada")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. G'.Rasulov Rej. H.Ibrohimov Oper. T.Bobojonov
15.	"Toshkentda 1-May bayrami" ("Prazdnik 1 maya v Tashkente")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. G'.Ratslov Rej. H.Ibrohimov Oper. M.Hamidov
16.	"Chotqol manzaralari"	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. – Rej. – Oper. O.Yusupov
17.	"Bir kun va bir umr" ("Den i vsya jizn")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. D.Sviridenko Rej. V.Leshtaev
18.	"Mening pioneriym" ("Moya pioneriya")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. D.Abdulova Rej. – Oper. O.Yusupov
19.	"Sovet O'zbekistoni" ("Sovetskiy Uzbekistan")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. M.Qayumov, Yu.Avetikov Rej. H.Ibrohimov Oper. T.Bobojonov, D.Salimov
20.	"Abramov muzligi" ("Lednik Abramova")	xuj. f-m.	Mual. V.Eershova Rej. Kim Gim Nyan Oper. R.Islomov
21.	"Depodan chiqqan odamlar" ("Lyudi iz depo")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. N.Krikun Rej. E.Ahmedov Oper. V.Shurigin

#### 1974 yil

1.	"Erta sari qadam" ("Idu v zavtra")	bad. f-m, 1 soat	Mual. V. Sodirov Rej. H.Fayziev Oper. M.Agzamov
2.	"Shamol har kuni esadi" ("Veter den-denskoy")	bad. f-m, 1 s. 20 daq.	Mual. G'.Rasulov Rej. M.Og'amirzaev Oper. S.Ahmadxo'jaev
3.	"Har doim bo'lsin quyosh" ("Pust vsegda budet solntse")	f-m – konts, (arxivda)	Mual. R.Solihova Rej. H.Ibrohimov Oper. T.Bobojonov
4.	"O'zbekiston odamlari" ("Lyudi iz Uzbekistana")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. J.Teshaboev Rej. V.Leshtaev Oper. T.Qayumov
5.	"Zaminga ishonaman" ("Veryu zemle")	xuj. f-m, 10 daq.	Mual. N.Ramozonov Rej. A.Qosimov Oper. A.Umarbekov
6.	"Inson va zamin" ("Chelovek i zemlya")	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. – Rej. A.Qosimov Oper. A.Umarbekov
7.	"Usta Solijon"	xuj. f-m,	Mual. V.Mirazimov Rej. – Oper. S.Ahmadxo'jaev
8.	"Brigada"	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. M.Shamaev
9.	"Hosil"	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. F.Rashidov

	(“Strada”)		Rej. A.Qosimov
10.	“Qahrabo don haqida so`z” (“Slovo o yantarnom zerne”)	xuj. f-m, 15 daq. (arxivda)	Mual. M.Penson, M.Kosых Rej. M.Penson Oper. T.Kayumov
11.	“Bahmal manzaralari” (“Etyudy Baxmalya”)	xuj. f-m.	Mual. – Rej. H.Ibrohimov Oper. B.Nazrullaev
12.	“Topilmalar mamlakatida” (“V strane otkrytiy”)	xuj. f-m.	Mual. G.Pugachenkova S.Berezanskaya Rej. L.Gurevich Oper. R.Islomov
13.	“Sharqona fantaziya” (“Vostochnaya fantaziya”)	xuj. f-m.	Mual. X.Asqarov Rej. A.Qosimov Oper. A.Umarbekov
14.	“Naqshlar” (“Uzorly”)	xuj. f-m, 15 daq.	Mual. F.Rashidov Rej. A.Qosimov Oper. A.Umarbekov
15.	“Koni foyda” (“Jivye protsentny”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. A.Anichkin Rej. – Oper. S.Ahmadxo`jaev
16.	“Mehmon ko`ngli nega g`ashlandi?” (“Kogda gostyam ne radы”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. A.Anichkin Rej. – Oper. S.Ahmadxo`jaev
17.	“Eng yorug` uy” (“Samiy svetlyy dom”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. A.To`xtaxo`jaev Rej. H.Ibrohimov Oper. M.Salimov
18.	“Inson manfaati deb” (“Idu k cheloveku”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. L.Gurevich Rej. V.Mirazimov Oper. V.Bahteev
19.	“Yuz yildan keyingi bog” (“Sad cherez sotni let”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. – Rej. R.O`tkirov Oper. R.Islomov
20.	“Asrga teng do`stlik” (“Drujba na veka”)	xuj. f-m (arxivda)	Mual. F.Rashidov Rej. A.Yoqubov Oper. F.Matsakas
21.	“Haykaltarosh Quttimurodov” (“Skulptor Kuttymuradov”)	xuj. f-m.	Mual. B.Bokser Rej. Sh.Junaydullaev Oper. B.Nazrullaev
22.	“Qoraqalpoq kuy va ohanglari” (“Ritmы i melodii Karakalpakii”)	f-m – konts.	Mual. – Rej. H.Ibrohimov Oper. M.Salimov
23.	“Quyoshli yurt qo`sishlari” (“Pesni solnechnogo kraya”)	f-m – konts.	Rej. H.Ibrohimov
24.	“Men-balerinaman” (“Ya - balerina”)	xuj. f-m.	Rej. Sh.Mahbubov
25.	“Shodlik ohanglari” (“Zvuki muzыki”)	f-m – konts.	Mual. L.Samatbekova Rej. – Oper. Sh.Junaydullaev
26.	“Azim Azizov raqsga tushadi” (“Tantsuet Azim Azizov”)	f-m. konts, 18 daq.	Mual. – Rej. B.Ahmedov Oper. R.Islomov

### 1975 yil

1.	“Komsomollar ketmoqda” (“Uxodili komsomoltsы”)	bad. f-m, 1 s. 10 daq.	Mual. D.Bulgakov, H.Fayziev Rej. H.Fayziev Oper. V.Bahteev
2.	“Oq yol haqida afsona” (“Legenda o Belogrivoy”)	bad. f-m, 1 s. 15 daq.	Mual. R.Muhammadjonov Rej. T.Akromov

			Oper. V.Lyondis
3.	“Siyohdon odam” (“Chernilnyiy chelovek”)	bad. f-m, 30 daq.	Mual. – Rej. A.Boboxonov Oper. O.Yusupov
4.	“Eski traktor” (“Staryyi traktor”)	bad. f-m, 30 daq.	Mual. G.Rasulov Rej. R.Shermatov
5.	“El farzandi” (“Sын народа”)	xuj. f-m, 30 daq	Mual. A.Hamroev Rej. – Oper. S.Ahmadxo'jaev
6.	“Paxtakor va suv” (“Xlopkorob i voda”)	xuj. f-m, (arxivda)	Mual. A.Anichkin Rej. A.Qosimov Oper. A.Umarbekov
7.	“Asrlar toshi” (“Kamen na veka”)	xuj. f-m, 15 daq	Mual. N.Ramozonov Rej. Sh.Junaydullaev Oper. A.Umarbekov
